



**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ
(MINTAQAVIY) MARKAZI**

MARKAZIY OSIYO ETNOLOGIYASI

**MODULI BO'YICHA
O'QUV- USLUBIY
MAJMUUA**

2024

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIIY TA’LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**

“MARKAZIY OSIYO ETNOLOGIYASI”

moduli bo‘yicha
O‘QUV–USLUBIY MAJMUA

Toshkent – 2024

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishlari o‘quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: Sh.Fayzullayeva, F.T.Yernazarov.
O‘zbekiston Milliy universiteti, t.f.n., dots. A.Ashirov,
t.f.f.d., dosent v.b. N.Narziyev, t.f.f.d., katta o‘qituvchi
A.Bababekov.

Taqrizchi: t.f.d., dots., B.Ubaydullayeva – O‘zbekiston Milliy universiteti, t.f.n., dots. A.Qayumov – O‘zRFA Arxeologiya Milliy markazi

*O‘quv uslubiy majmua Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2024-yil 20- yanvardagi № 4/2-sonli bayonnomasi)*

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR.....	5
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI	14
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	17
IV. AMALIY MASHG`ULOT MATERIALLARI.....	85
V. GLOSSARIY	96
VI. ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	98

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022- 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslarini yoritib berish, oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari bo‘yicha ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, ilmiy-innovatsion faoliyat darajasini oshirish, pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalaridan samarali foydalanish, etnologik tadqiqot metodlarini qo‘llash, Markaziy Osiyo etnologiyasi asoslarini o‘zlashtirish bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o‘quv dasturi quyidagi modullar mazmunini o‘z ichiga qamrab oladi:

1.1. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari.

- 1.2. Oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslari.
- 1.3. Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar.
- 1.4. Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish.
- 1.5. Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish.
- 1.6. Ta'lim sifatini ta'minlashda baholash metodikalari.
- 1.7. Etnologik tadqiqot metodlari.
- 1.8. Markaziy Osiyo etnologiyasi.

Malakaviy attestatsiya

Kursning maqsadi va vazifalari

Oliy ta'lim muasasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarning innovatsion yondoshuvlar asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

“**Antropologiya va etnologiya**” yo'nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

- pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalarning o'zlashtirilishini ta'minlash;

- o'quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta'minlash borasidagi ilg'or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlarni o'zlashtirish;

“**Antropologiya va etnologiya**” yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o'quv modullari bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining davlat va jamiyat hayotini takomillashtirishdagi o'rni va ahamiyatini;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplarini;

- Oliy ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmunini;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta'lim tizimiga oid farmonlari, qarorlarini;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta'lim tizimiga tegishli qarorlarini;
- Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining ta'lim jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etishga oid buyruqlarini;
- Davlat ta'lim standartlari, ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o'quv rejalari, fan dasturlari va ularga qo'yiladigan talablarni, o'quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullarini;
- ta'lim jarayonini raqamli transformatsiyasini;
- raqamli ta'lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini;
- raqamli ta'lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasini;
- mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini;
- raqamli ta'lim resurslarini loyihalash uchun asosiy talablarni;
- jahonda oliy ta'lim rivojlanish tendensiyalari: umumiy trendlar va strategik yo'nalishlarni;
- zamonaviy ta'limning global trendlarini;
- inson kapitalining iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida rivojlanishida ta'limning yoshdagi ahamiyatini;
- oliy ta'limning zamonaviy integratsiyasi: global va mintaqaviy makonda raqobatchilikdagi ustuvorliklari, universitetlarning xalqaro va milliy reytingini;
- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarini;
- zamonaviy universitet jamiyatning faol, ko'pqirrali va samarali faoliyat yurituvchi instituti sifatidagi uchta yirik vazifalarini;
- universitetlarning zamonaviy modellarini;
- zamonaviy kelajak universitetlarning beshta asosiy modellarini;
- tadbirkorlik universiteti faoliyatining muhim yo'nalishlarini;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini;
- innovatsion ta'lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llarini;
- kasbiy kompetensiyalarning mazmun va mohiyatini;
- kasbiy kompetensiyalar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini;
- pedagogik texnikaning asosiy komponentlarini;
- pedagogik texnikani shakllantirish yo'llarini;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etishda innovatsion, akmeologik, aksiologik, kreativ, refleksiv, texnologik, kompetentli, psixologik, andragogik yondashuvlar va xalqaro tajribalar hamda ularning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ta'sirini;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini;

- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda uchraydigan to‘siqlarni yechishda, to‘g‘ri harakatlar qilishda pedagogning kompetentlik va kreativlik darajasi, pedagogik kvalimetriyasini;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning nazariyasini;
- ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillarni;
- kredit-modul tizimida talabalarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashning o‘ziga xos xususiyatlari, didaktik funksiyalarini;
- baholash turlari, tamoyillari va mezonlarini;
- etnologiya fan sifatida shakllanishining ilk bosqichlarida ma’lumotlarni;
- zamonaviy etnologiyada ilmiy tahlil qilish: etnograf olimlarning tadqiqot va tavsiflari, xalq og‘zaki ijodi va badiiy matnlar, etnososologik va etnopsixologik tadqiqotlar, publisistik ma’lumotlar, rasmiy xujjatlar, tarixiy va ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar, arxiv, statistik qo‘mitalar va h.k ma’lumotlarni;
- turlicha ma’lumotlarni to‘plash, ularni qayta ishlash, umumlashtirish, turlicha metodlarni;
- bugungi kundagi etnologiyada etnologik tadqiqotlarni butun bir majmuini;
- Markaziy Osiyo hududi, aholisi haqida umumiy ma’lumotlar, kursning dolzarbligi, maqsad va vazifalari haqida, ularni amalga oshirish usullari izohi, fanga oid ilmiy monografiyalar, darsliklar va ilmiy to‘plamlar tavsifini;
- Markaziy Osiyo xalqlari etnogenezi va etnik tarixi, xo‘jaligi va moddiy, hamda ma’naviy madaniyati haqidagi bilimlarning nazariy asoslarini;
- Markaziy Osiyo etnologiyasining asosiy tushunchalarini, klassifikatsiyalash tamoyillarini;
- fanga oid asosiy tushuncha va atamalarni **bilishi** kerak.

Tinglovchi:

- 2022- 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining asosiy yo‘nalish va maqsadlarini tahlil etish va baholash;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta’lim tizimiga tegishli qarorlari asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- xorijiy tajribalar asosida malaka talablari, o‘quv rejalari va fan dasturlarini takomillashtirish;
- multimedia va infografika asosida interaktiv didaktik materiallar yaratish va bulut xizmatlarida saqlash;
- masofiviy ta’lim platformalari uchun video kontent yaratish;
- Internetda mualliflik huquqlarini himoya qilish usullaridan foydalanish;
- raqamli ta’lim resurslari sifatini baholash;
- OTMlarni reyting bo‘yicha ranjirlash;
- jahon universitetlari reytingini tahlil etish va baholash;
- universitetlarni mustaqil baholash yondashuvlarini aniqlashtirish;
- tadbirkorlik universitetiga o‘tish uchun zarur bo‘ladigan o‘zgarishlarni

aniqlash;

- Universitet 1.0 dan Universitet 3.0 modeliga o'tish borasidagi muammolarni aniqlash;

- zamonaviy tadbirkorlik universiteti modeli tamoyillarini o'zlashtirish;
- pedagoglarning kreativ potentsiali tushunchasi va mohiyatini ochib berish;
- pedagoglar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarini qo'llash;

- o'qituvchi faoliyatida pedagogik texnikaning ahamiyatini yoritib berish;
- tinglovchilar diqqatini o'ziga tortish usullaridan foydalanish;
- kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish yo'llarini tahlil etish;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to'siqlar, qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish;

- talabalarning o'quv auditoriyadagi faoliyatini baholash;
- talabalarning kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, o'quv-malakaviy amaliyot (mehnat faoliyati)ini nazorat qilish;

- baholashning miqdor va sifat tahlilini amalga oshirish;
- etnologiya fan sifatida shakllanishining ilk bosqichlarida ma'lumotlarni to'plash, turli nomoddiy ashyolardan foydalanish;

- bugungi kundagi etnologiyada etnologik tadqiqotlarni butun bir majmuini to'plash va tahlil etish;

- Markaziy Osiyo etnoslari: lingvistik, antropologik, xo'jalik-madaniy klassifikatsiyalari mohiyatini tushunishda talabalarni zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantirish;

- fanga oid asosiy tushuncha va atamalardan foydalanish;
- Markaziy Osiyo etnologiyasi asoslarini yoritib berish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasining mazmun-mohiyatini yoritib berish;

- Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid buyruqlari, Davlat ta'lim standartlari, ta'lim yo'nalishlarining va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, o'quv rejalar va fan dasturlarini takomillashtirish;

- o'quv yuklamalarni rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish;
- meyoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlarini tahlil etish;

- an'anaviy va raqamli ta'limda pedagogik dizaynning xususiyatlarini ochib berish;

- onlayn mashg'ulotlarni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish;
- mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini o'zlashtirish;
- pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish;

- raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish;
- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarining ahamiyatini ochib berish;
- OTM reytingiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish;
- universitetlarning zamonaviy modellarini o'rganish;
- OTM bitiruvchilari va xodimlari tomonidan texnologiyalar transferiga litsenziyalar oluvchi startaplarni shakllantirish va yaratish;
- professor-o'qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini tahlil etish;
- innovatsion ta'lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish;
- pedagog kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish xususiyatlarini tahlil etish va baholash;
- ijtimoiy va kasbiy tajribaga asoslangan intellektual mashqlarni ishlab chiqish;
- o'quv jarayoni ishtirokchilarini bir-birlari bilan tanishtirish, samimiy do'stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish, tinglovchilarning ijodiy imkoniyati va shaxsiy sifatlarini ochish, tinglovchilarning hamkorlikda ishlashlari uchun qulay sharoitni vujudga keltirish;
- tinglovchilarning kasbiy kompetensiyalarini o'rganish, tanishish;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini ochib berish;
- ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillar (moddiy-texnik baza, professor-o'qituvchilarning salohiyati va o'quv-metodik ta'minot)ni tahlil etish va baholash;
- talabalarning o'quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholash;
- talabalarning o'quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholashda o'quv topshiriqlari (reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli, kreativ (ijodiy) murakkablik)ni ishlab chiqish metodikasidan samarali foydalanish;
- etnologiyada tadqiq etilayotgan etnos vakillarini bevosita kuzatish, ularni turli vaziyatlarda o'zlarini qanday tutishlari, suhbat, munozaralardagi mantiqiy fikrlashlari, dunyodagi hodisa, voqealarni o'z xulq-atvorlarini izohlash usullaridan foydalanish;
- Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasining maxalliy va xorijlik tadkikotchilar tomonidan urganilishini tahlil etish va baholash;
- etnologik tadqiqot metodlarini o'zlashtirish;
- tarixshunoslik taxlilini amalga oshirish *malakalariga* ega bo'lishi zarur.

Tinglovchi:

- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslarini mazmun-mohiyatini yoritib berish;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining buyruqlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalar va fan dasturlar asosida fanning ishchi dasturini ishlab chiqish amal qilish va ularni ijrosini ta'minlash;

- raqamli ta'lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini o'quv jarayoniga faol tatbiq etilishini tashkil etish;
- raqamli ta'lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasi asoslarini o'zlashtirish;
- raqamli ta'lim muhitida pedagogik dizaynga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish;
- universitetlarning xalqaro va milliy reytingini baholash;
- OTMlarda talim, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilmiy tadqiqot natijalarni tijoratlashtirish yo'llarini tahlil etish va amaliyotga tatbiq etish;
- «Amaliyotchi professorlar» (PoP, Professor of Practice) modelini qo'llash;
- professor-o'qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollari yoritib berish;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini amaliyotga tatbiq etish;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik trayektoriyalarini ishlab chiqish;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to'siqlarning xilma-xilligi va o'ziga xos xususiyatlari, sabablarini amaliy tomonlarini yoritish, ularni yechish bosqichlarini guruh bilan birgalikda aniqlash;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholash;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning elektron monitoring tizimini yuritish;
- talabalarning ta'limiy (o'quv predmetlari), tarbiyaviy (ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar) va rivojlantiruvchi (ilmiy-tadqiqot ishi, start-up loyihalar) maqsadlarini baholash;
- zamonaviy etnologiyada ilmiy tahlil qilish;
- turlicha ma'lumotlarni to'plash, ularni qayta ishlash, umumlashtirish, turlicha metodlarni qo'llash;
- Markaziy Osiyo etnologiyasining asosiy tushunchalarini, klassifikatsiyalash tamoyillarini o'rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

Modulni o'qitish ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

- modulni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida

prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

“Markaziy Osiyo etnologiyasi” moduli mazmuni o'quv rejadagi “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslari”, “Oliy ta'limning normativ huquqiy asoslari”, “Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar”, “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish”, “Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish”, “Ta'lim sifatini ta'minlashda baholash metodikalari”, “Etnologik tadqiqot metodlari” mutaxassislik o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning ta'lim jarayonida kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

“Markaziy Osiyo etnologiyasi” modulini o'zlashtirish orqali tinglovchilar ta'lim jarayonini tashkil etishdagi texnologik yondoshuv asoslarini, bu boradagi ilg'or tajriba va yangiliklarni o'rganadilar, ularni taxlil etish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy yutuqlarga ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya o'quv yuklamasi		
		Jami	jumladan	
			Nazariy	Amaliy mashg'ulot
1.	Markaziy Osiyo hududi, aholisi haqida umumiy ma'lumotlar.	4	2	2
2.	Markaziy Osiyo etnoslari.	6	2	4
3.	Markaziy Osiyo etnologiyasining asosiy tushunchalari.	4	2	2
4.	Tarixshunoslik taxlili.	4	2	2
	Jami:	18	8	10

NAZARIY VA AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Markaziy Osiyo hududi, aholisi haqida umumiy ma'lumotlar.

Markaziy Osiyo hududi, aholisi haqida umumiy ma'lumotlar, kursning dolzarbligi, maqsad va vazifalari haqida, ularni amalga oshirish usullari izohi, fanga oid ilmiy monografiyalar, darsliklar va ilmiy to'plamlar tavsifi.

2-mavzu: Markaziy Osiyo etnoslari.

Markaziy Osiyo etnoslari: lingvistik, antropologik, xo'jalik-madaniy klassifikatsiyalari mohiyatini tushunishda talabalarni zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantiradi. Markaziy Osiyo xalqlari etnogenezi va etnik tarixi, xo'jaligi va moddiy, hamda ma'naviy madaniyati haqidagi bilimlarning nazariy asoslarini.

3-mavzu: Markaziy Osiyo etnologiyasining asosiy tushunchalari.

Markaziy Osiyo etnologiyasining asosiy tushunchalarini, klassifikatsiyalash tamoyillarini o'rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish. Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasining maxalliy va xorijlik tadkikotchilar tomonidan urganilishi.

4-mavzu: Tarixshunoslik taxlili.

Tarixshunoslik taxlili: xronologik (Rossiya imperiyasi, sovet va mustakillik davrida) va muammoviy (etnogenez, etnik tarixi, xo'jalik, moddiy madaniyat, ma'naviy madaniyat masalalari va x.).

Fanga oid asosiy tushuncha va atamalar. Tarixiy-etnografik viloyat va tarixiy-madaniy xudud, etnomadaniy muxit, avtohton, diaspora, kam sonli etnik guruxlar, etnos, etniklik, etnik gurux, geneologiya, madaniy kiyofa, o'zlikni anglash, etnik madaniyat, moddiy va ma'naviy madaniyat, etnonim, etnogenez, xo'jalik-madaniy tip, marosim, milliy kadriyat, urf-odat, klassifikatsiya, gender, etnografik makon, etnik xudud, etnik chegara va x.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi: ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlarida geologiya fanlarni o'qitish metodikasi sohasidagi yangi ma'lumotlar, zamonaviy texnika hamda texnologiyalar bilan tanishtirish, nazariy bilimlarini mustahkamlash.

O'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, grafik organayzerlardan, keyslardan foydalanish, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, blits-so'rovlardan, sinkveyn va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

- Metodni amalga oshirish tartibi:
- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

“Davra suhbatlari” metodi


Aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbatlari” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi” ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr- mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Davra stolining tuzilmasi

Yozma davra suhbatida stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta’lim oluvchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir ta’lim oluvchi konvert ustiga ma’lum bir

mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va "Javob varaqasi"ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z javobini "Javoblar varaqasi"ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida "Davra suhbat" metodining tuzilmasi keltirilgan



"Blits-o'yin" metodi

Metodning maqsadi: o'quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maqsadida qo'llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya'ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o'rganish talab etiladi. Shundan so'ng, ishtirokchilarga to'g'ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o'qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a'zolarini o'z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta'sir o'tkazib, o'z fikrlariga ishonirish, kelishgan holda bir to'xtamga kelib, javoblarini "guruh bahosi" bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, to'g'ri harakatlar ketma-ketligi trener-o'qituvchi tomonidan o'qib eshittiriladi, va o'quvchilardan bu javoblarni "to'g'ri javob" bo'limiga yozish so'raladi.

4. "To'g'ri javob" bo'limida berilgan raqamlardan "yakka baho" bo'limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa "0", mos kelsa "1" ball quyish so'raladi. Shundan so'ng "yakka xato" bo'limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo'shib chiqilib, umumiy yig'indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda "to'g'ri javob" va "guruh bahosi" o'rtasidagi farq chiqariladi va ballar "guruh xatosi" bo'limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo'shiladi va umumiy yig'indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o'qituvchi yakka va guruh xatolarini to'plangan umumiy yig'indi bo'yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-MAVZU. MARKAZIY OSIYO HUDUDI, AHOLISI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR.

Markaziy Osiyo hududi va uning tarixiy-geografik joylashuvi.

Markaziy Osiyo — bu Osiyo qit'asidagi sub-mintaqa bo'lib, janubi-g'arbda Kaspiy dengizi va shimoli-g'arbda Sharqiy Yevropadan sharqda Xitoy va Mo'g'ulistonga qadar, janubda Afg'oniston va Erondan shimolda Rossiyaga qadar cho'zilgan. Mintaqa o'z ichiga sobiq sovet davlatlari bo'lmish Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekistonni oladi. Ushbu besh respublika nomidagi o'xshashliklar tufayli mintaqadan tashqarida (asosan G'arbda) mintaqa davlatlari umumiy tarzda '-stan' davlatlari deb ham yuritiladi.

Islomdan oldingi davrda va Islom dini mintaqaga kirib kelishi davrida (tahminan milodiy 1000-yil yoki undan oldin) Markaziy Osiyoda asosan eroniy tilda so'zlashuvchi va madaniyatga ega bo'lgan xalqlar istiqomat qilgan. Hududda baqtriyaliklar, so'g'dlar, xorazmliklar va yarim-ko'chmanchi skiflar hamda dahlar yashagan. Turkiy xalqlarning ko'chib kelishi bilan Markaziy Osiyo asta-sekin o'zbeklar, qozoqlar, tatarlar, turkmanlar, qirg'izlar va uyg'urlar kabi turkiy xalqlarning vataniga aylandi. Tojikistonni istisno qilganda, hududda amal qilgan Eroniy tillar o'rniga Turkiy tillar kirib keldi. Tarixan Markaziy Osiyo Buyuk Ipak yo'li bilan aloqador bo'lib, Yevropa va Uzoq Sharq orasida odamlar, tovarlar va g'oyalar almashinuvi uchun chorraha vazifasini bajargan. Markaziy Osiyoning ko'pchilik davlatlari bugungi kunda ham dunyo iqtisodining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

XIX asr oxirlaridan XX asr oxirigacha Markaziy Osiyo ruslar tomonidan mustamlakaga aylantirilgan. Hudud dastlab Rossiya imperiyasi, keyinchalik Sovet Ittifoqi tarkibiga kiritilgan bo'lib, bu ruslar va boshqa slavyan xalqlarining hududga ko'chib kelishiga sabab bo'ldi. Bugungi kunda Markaziy Osiyoda kelib chiqishi Yevropalik bo'lgan ko'p sonli xalqlar mavjud bo'lib, ulardan asosiy qismi



Qozog'istonda istiqomat qiladi. Hududda 7 million ruslar, 500,000 ukrainlar va taxminan 170,000 nemislar yashaydi. Stalin davridagi majburiy ko'chirishlari sababli hudduda bugungi kunda 300,000 dan ortiq koreyslar ham istiqomat qiladi.

Markaziy Osiyoda taxminan 80.2 million kishi istiqomat qilib, ular beshta davlatga taqsimlangan: Qozog'iston (20 million), Qirg'iziston (7 million), Tojikiston (10 million), Turkmaniston (6 million) va O'zbekiston (37.2 million). Markaziy Osiyo shimolda Sibir o'rmonlari bilan chegaralangan. Markaziy Osiyoning shimoliy qismi (Qozog'iston) Yevrosiyo dashtining o'rta qismini tashkil qiladi. G'arbda Qozoq dashti rus-ukrain dashtlari bilan tutashsa, sharqda Jung'or va Mog'ul dashtlari bilan tutashib ketadi. Janubga qarab yer tobora quruqlashib, ko'chmanchi aholi ham siyraklashib boradi. Janubdagi sug'orma dehqonchilik imkoni bor hududlarda aholi zichlashib, shaharlar shakllangan. Asosiy sug'orma dehqonchilik hududlari Sharqdagi tog' yonbag'irlarida, Oks va Yaksart daryolari vodiylarida va Fors bilan

chegaradagi Kopetdog‘ning shimoliy yonbag‘irlarida joylashgan. Kopetdog‘dan sharqda Marv vohasi, shuningdek Hirot va Balx kabi muhim hududlar joylashgan.

Tyan-

Shan



tog‘larining ikki tumshug‘i sharqdagi tog‘lar orasida uchta o‘ziga xos 'ko‘rfazlarni' hosil qiladi. Ularning ichida eng yirigi shimolda, sharqiy Qozog‘istonda bo‘lib, bu hudud tarixan Yettisuv, yoki Semirechye (ruscha: Semiréche) deb nomlangan va bu hududda Balxash ko‘li joylashgan. O‘rtaliqda kichik, lekin zich aholiga ega bo‘lgan Farg‘ona vodiysi joylashgan. Janubda esa keyinchalik Toxariston deb atalgan Baqtriya joylashgan bo‘lib, bu hudud janubda Hindukush tog‘lari bilan chegaralangan. Sirdaryo (Yaksart) Farg‘ona vodiysida boshlansa, Amudaryo (Oks) Baqtriyada boshlanadi. Bu daryolarning har ikkisi ham shimoli-g‘arbga, Orol dengiziga qarab oqadi. Amudaryo Orol dengiziga quyiladigan joyida yirik deltani hosil qiladi va bu hudud Xorazm, keyinchalik Xiva xonligi deb atalgan. Amudaryo shimolida nisbatan notanish, lekin Samarqand va Buxoro kabi savdo-sanoat markazlarini suv bilan ta‘minlovchi Zarafshon daryosi joylashgan. Mintaqadagi yana bir yirik savdo markazi Toshkent bo‘lib, bu shahar Farg‘ona vodiysiga kirish nuqtasidan shimoli-g‘arbda joylashgan. Amudaryodan shimoldagi hududlar Movarounnahr, shuningdek, ayniqsa ipak yo‘li savdosida hukmron mavqeda bo‘lgan so‘g‘d savdogarlariga nisbatan ishlatilganda, So‘g‘d deb atalgan.

Sharqda, Jung'ariya va Tarim havzasi taxminan 1759-yilda Xitoyning Shinjon

viloyatiga birlashtiriladi. Odatda Xitoydan o'tlangan karvonlar Tarim havzasining shimoliy yoki janubiy qismlaridan o'tib, Qashqarda birlashishgan va u yerdan shimoli-g'arbdagi Farg'ona tomonga, yoki janubi-g'arbdagi Baqtriya tomonga harakatlanishgan. Buyuk ipak yo'lining kichikroq yana bir shaxobchasi Tyan-Shanning shimolidan boshlanib, Jung'oriya va Yettisuvdan o'tgan va Toshkent yaqinida janubga qayrilgan. Ko'chmanchi qabilalar odatda Mo'g'ulistondan boshlanib, Jung'oriya orqali o'tishgan va Toshkent yaqinida janubga qayrilib, o'troq aholini istilo qilishgan, yoki g'arbga, Yevropa tomonga harakatni davom ettirishgan.

Qizilqum cho'li Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida joylashgan va Qoraqum Amudaryo hamda Turkmanistondagi Kopetdog' orasida joylashgan. Xuroson tahminan shimoli-sharqiy Eronni va Afg'oniston shimoliy hududlarini anglatgan. Marg'iyona esa Marv shahri atroflarini anglatgan. Ustyurt platosi esa Orol Orol va Kaspiy dengizlari oralig'idagi hududdir.

Janubi-g'arbda, Kopetdog'dan narida Fors davlati joylashgan. Aynan shu hudud orqali Fors davlati va Arab xalifaligi Markaziy Osiyoga suqilib kirgan va Rossiya Imperiyasi bosqiniga qadar mahalliy aholining madaniyatiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Janubi-sharqda Hindiston tomon yo'l mavjud. Qadimda Buddizm shu yo'l orqali shimolga tarqalgan va tarixda juda ko'p marotaba Markaziy Osiyolik jangovar qabilalar va podshohlar shu yo'ldan o'tib, Shimoliy Hindistonni istilo qilishgan va u yerda o'z hokimiyatlarini o'rnatishgan. Ko'chmanchi bosqinchilarning ko'pchiligi shimoli-sharqdan kirib kelgan. 1800-yillardan keyin Rossiya imperiyasi va keyinchalik Sovet Ittifoqi shaklida hududga shimoli-g'arbdan G'arb sivilizatsiyasi kirib keldi.

Markaziy Osiyo hududi aholisi va demografik jarayonlar

Markaziy Osiyo turli millatlar, tillar, dinlar va qabilalar yashaydigan mamlakatdir. Markaziy Osiyoni tashkil etuvchi davlatlar beshta sobiq Sovet respublikalari: Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston va O'zbekiston bo'lib, ularning umumiy aholisi 72 millionga yaqin. Afg'oniston har doim ham mintaqaning bir qismi hisoblanavermaydi, lekin u bo'lganda, Markaziy Osiyoda jami 122 millionga yaqin aholi istiqomat qiladi (2016); Mo'g'uliston ham geografik jihatdan Sharqiy Osiyo bo'lsa-da, Markaziy Osiyo madaniy aloqalari va an'analari

tufayli ba'zan Markaziy Osiyoning bir qismi deb ham hisoblanadi. Markaziy osiyoliklarning aksariyati so'nggi 1500-yil ichida hududning dinlarga mansubdir, masalan, Sunniylik, Shia Islomi, Ismoiliiy Islomi, Tangrilik va Suriyalik Nasroniylik.

Hozirgi Markaziy Osiyo aholisining avlodi hind-eron va turkiy ekspansiyalardan kelib chiqqan. Aksariyat zamonaviy aholilar ajdodlari etnik chegaralarga mos kelgan hind-eron yoki turkiylardan kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Temir davri Pazirik madaniyati dafnlari qoldiqlari bo'yicha arxeogenetik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, miloddan avvalgi 7-asrda hind-eron (skif) ekspansiyasi tugaganidan so'ng. Sharqiy Yevroosiyo G'arbiy dashtlarga asta-sekin sharqdan g'arbga ko'chib kela boshlagan.

O'rta Osiyoda xalkolit davridan (miloddan avvalgi 4-ming yillik) dehqonlar va ko'chmanchi chorvadorlar birga yashagan. Bu ikki guruh tuzilishi jihatidan keskin farq qilgan, chunki chorvadorlar ekzogamik patrilineal klan tuzilmalarida, fermerlar esa endogamiya (qarindoshlar nikohi) bilan tuzulgan katta oilalardan tashkil topgan. Natijada, chorvadorlar dehqonlarga qaraganda patrilineal nasl (Y-xromosoma) jihatidan sezilarli darajada kamaygan.

Turkiy ekspansiya turkiy tillarni „Shimoliy-Sharqiy Osiyo“ ajdodlari bilan birga g'arbga, butun O'rta Osiyoga, shuningdek, Yevropaning ba'zi qismlariga tarqalgan.

Bronza davri O'rta Osiyoda, asosan, G'arbiy Yevroosiyo eroniyzabon xalqlari, shuningdek, uzoq sharqdan kelgan Sharqiy Osiyo Paleo-Sibir xalqlarining ozchilik qismi yashagan. Temir davridan boshlab Sharqiy Osiyo va Sharqiy Sibirdan sezilarli darajada migratsiyalangan, bu asosan turkiy xalqlarning hozirgi Mo'g'ulistonga to'g'ri keladigan mintaqadan kengayishi, Markaziy Osiyoni asosan G'arbiy Yevroosiyo kelib chiqishi bo'lgan mintaqadan mintaqaga aylantirilishi bilan bog'liq. asosan Sharqiy Osiyodan kelib chiqqan.

Arxeologik va antropologik ilmiy tadqiqotlar Markaziy Osiyo mintaqasi bir necha ming yillar davomida murakkab etnik jarayonlar, katta va kichik guruhlarining aralashuv makoni bo'lib kelganligini ko'rsatadi. Antropolog tadqiqotchilar fikricha hozirgi kunda Markaziy Osiyoning tub aholisi, asosan, ikki katta irqqa: mongoloid va yevropoid irqiga mansubdir. Mongoloid irqiga qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, yevropoid irqiga bo'lsa o'zbek, tojik, turkman va boshqa xalqlar kiradi. Lekin ayrim etnik

guruhlarda aralash tiplar ham uchraydi. Markaziy Osiyo xalqlarining antropologik qiyofasi miloddan avvalgi I mingyillikda shakllana boshlagan.

Markaziy Osiyo xalqlarining ko'pchiligi Oltoy oilasining turkiy tillar guruhiga kiradigan til va shevalarda so'zlashadi. Bu guruhga o'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman, uyg'ur, tatar tillari kiradi. Turkiy tilda so'zlashadigan aholi butun mintaq xalqlarining taxminan 60 foizidan ortig'ini tash Umuman olganda turkiy tillarda so'zlashuvchilarning umumiy soni 130 million kishidan ortiq. Markazidy Osiyoda yashovchi aholi shahar va qishloqlarda istiqomat qilddi. Oxirgi ma'lumotlarga ko'ra, mintaqada shahar aholisining nufuziga ko'ra eng ko'p sonli aholi O'zbekistonda yashaydi va 15 mln. kishi, ya'ni mamlakat aholisining 51 foizi shaharlarda yashaydi. Ikkinchi o'rinda Qozog'istonda, ya'ni 9,1 mln. kishi shaharlarda istiqomat qiladi. Turkmanistonda 2,5 mln., Qirg'izistonda 33,9 foiz (1,9 mln. yaqin) aholi yashasa, Tojikistonda umumiy aholisining 26,5 foizi, boshqacha aytganda 2 mln. aholi shaharda yashaydi.

2-MAVZU. MARKAZIY OSIYO ETNOSLARI.

Markaziy Osiyo xalqlari etnogenezi va etnik tarixi masalasi.

Tarixiy yozma manbalar, arxeologiya, etnografiya, antropologiya, lingvistika, toponimika, epigrafika, numizmatika kabi fanlar bilan o‘zaro aloqada va uzviy bog‘liq bo‘lib, ularsiz o‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixini mukammal ilmiy o‘rganib bo‘lmaydi.

Dastlab, sobiq sovet hokimiyati tarkibida milliy respublikalarni tashkil etish jarayoni ketayotgan kezlarda, o‘zbek xalqining kelib chiqishi masalasi faqat turk etnosi bilan bog‘lab o‘rganilib, fanda “panturkizm” atamasi paydo bo‘ldi. Bu ta’limot zaminida “O‘rta Osiyo aholisi azaldan turklar bo‘lib, buyuk Turon, so‘ng Turkiston bo‘lib ketgan”, degan g‘oya yotardi. Ular o‘zbek xalqining turk ildizini turkiy bo‘lmagan etnoslar bilan aralashish natijasida tashkil topganligini inobatga olmaydilar. Hatto, qalam sohiblari orasida shundaylar ham bor ediki (hozir ham ular uchrab turadi), ular o‘zbek xalqining kelib chiqishini Nuh payg‘ambarning o‘g‘li Yofasdan, Yofasning o‘g‘li Tur yoki Turkdan boshlaydilar .

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida sobiq sho‘rolar davlatining ichki siyosati, nima qilib bo‘lsa ham o‘lka xalqlarini Markaziy hokimiyatga nisbatan munosabatini yaxshilashga, o‘lka xalqlarini o‘z tomoniga ag‘darib olishga, buning uchun esa birinchi navbatda milliy masalaga e’tibor berishlikni zarur, deb hisobladi.

Bolsheviklar hokimiyatining dohiysi V.I.Lenin Sharqning mazlum musulmon xalqlariga qaratilgan murojaatida, mulkdorlar sinfi hokimiyatdan ag‘darilganligi, endi har bir xalq o‘zlari yashab turgan yurt va elni boshqarish va uni qanday qilib boshqarish mazlum xalqlar ixtiyoriga o‘tganligi haqida alohida ta’kidladi. Yo‘qsillar dohiysining bu murojaati joylardagi milliy intelegensiya-o‘lka milliy xalqlarining ilg‘or otryadi, jumladan O‘rta Osiyoda jadidlarni ilxomlantirib yubordi.

Sobiq sovet hokimiyatining 1924 yilda O‘rta Osiyoda milliy respublikalarni tashkil etish va ularning davlat chegaralarini belgilash yo‘lida olib borgan siyosati tashqaridan qaraganda juda to‘g‘ri edi. Chunki, turkiy tilda so‘zlashuvchi xalqlarning har birida o‘ziga xoslik, etnomadaniy, antropologik o‘zgachalik mavjud ediki, u

belgilar aynan o'sha millatni boshqalardan ajratib turardi. Ammo, milliy respublikalar tuzish zaminida "shaklan milliy, mazmunan sotsialistik jamiyat" qurish siyosati yotar edi. Boshqacha qilib aytganda, har bir xalq o'zi istagan jamiyat va davlat tuzib, uni o'zi istaganicha boshqarishga yo'l berilmas edi. Uzoqni o'ylab olib borilgan bu siyosat mohiyatini dastlab yuzaki tushungan jadidlar Sovet davlati tarkibida O'rta Osiyoda yagona turk avtonomiyasini tuzish tashabbusi bilan chiqadilar.

O'rta Osiyo turk avtonomiyasining nazariy va mafkuraviy asosini "turk milliy vatanparvarlik" ("tyurkskiy natsionalnyy patriotizm) g'oyasi tashkil etardi. Bu g'oya XX asrning 20 - yillarida Turkiston jadidlarining siyosiy rahbarlari orasida juda keng mavqeiga ega edi. Ammo, sobiq sovet davri siyosiy adabiyotlarida turk milliy vatanparvarlari peshonasiga salbiy ma'noda "panturkist" tamg'asi bosildi.

Turk milliy vatanparvarligi konsepsiyasining g'oyaviy asoschisi turk faylasufi Ziyoy Gyoqalb (1879-1924) edi. Uning bolsheviklar Rossiyasi turkiy tilli xalqlari orasidagi taniqli izdoshi yirik sharqshunos-tarixchi olim Zaki Validiy To'g'on bo'lgan.

Zaki Validiy To'g'on Turkiston ziyolilari orasida o'z asarlari bilan bolsheviklar Rossiyasining totalitar-diktatura rejimi ostida qolgan turkiy xalqlar tarixini aniq dalillar asosida yoritgan siyosatchi olim sifatida mashhur edi.

XX asrning birinchi choragida Ziyoy Gyoqalb va Zaki Validiy To'g'onlar konsepsiyasi Turkiston milliy jadidlari orasida juda keng yoyildi. Bu harakatning yetakchi ilg'or otryadi tepasida Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Munavar qori Abdurashitov va boshqalar turar edi.

XX asrning 20 - yillarida Turkkomissiya bilan Turkiston sovet avtonomiyasi rahbariyati o'rtasida Turk Respublikasini tuzish va mamlakat ichki muammolarini mustaqil hal etish masalasida keskin kurash ketadi. Turkiston sovet avtonom respublikasi Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisi Turor Risqulov milliy muholifat tepasida turdi. Uni Turkiston sovet avtonom respublikasining a'zolari A. Rahimboev, S. Xo'janov va boshqalar qo'llab-quvvatlab chiqdilar. Afsuski, ularning barchasi keyinchalik har xil bahonalar bilan o'zlarining turk milliy vatanparvarlik sadoqati va ishonchlari uchun siyosiy qatag'onlikning qurboni bo'ldilar.

O'rta Osiyo ma'naviy va siyosiy hayotida panturkistik chiqishlar avj olib turgan kezlarda, uning aks sadosi sifatida "paneronizm" ta'limoti paydo bo'ldi. Bunga ko'ra,

“bu zaminning tub joyli aholisi eroniy tilli xalqlar bo‘lib, bu yurtga turklar kelgindidir”, degan g‘ayri ilmiy konsepsiya paydo bo‘ldi. Paneronistik g‘oya tarafdorlari o‘zbek xalqining kelib chiqish tarixiy ildizlarini Shayboniy o‘zbeklari bilan bevosita bog‘lashga urindilar. Mintaqada, ziyolilar orasida siyosiy vaziyat tabora murakkablashib bordi.

O‘sha kezlarda, xalqlarning kelib chiqishi haqidagi bu o‘ta murakkab masala yechimiga islom aqidaparastlari ham aralashib, “bu vaqtinchalik dunyoda milliy etnoslar yo‘q, faqat islom millati bor. Xalqlarni milliy tili va etnomadaniy o‘ziga xosligiga qarab emas, balki diniy-ruhiy dunyosiga qarab millatini belgilamoq kerak,” degan diniy konsepsiya paydo bo‘ldi. Afsuski, fanga zid bunday konsepsiyalarning paydo bo‘lishi, davr taqazosiga ko‘ra, muammo yechimi bilan bog‘liq fan tarmoqlarining rivojlanish darajasini zaifligidan dalolat berardi.

Darhaqiqat, O‘rta Osiyo xalqlari etnogenez va etnik tarixi bilan bevosita bog‘liq fanlar-etnologiya, arxeologiya, etnografiya, antropologiya, toponimika, tarixiy lingvistika kabi fan tarmoqlari o‘sha kezlarda xali rivojlanmagan edi. Shuning uchun O‘rta Osiyo xalqlarining kelib chiqishi masalasida tushunmovchiliklar ko‘p edi. U yoki bu xalqning kelib chiqishi masalasida olg‘a surilgan g‘oyalar faqat tarixiy va afsonaviy rivoyatlar omuxtalashgan o‘rta asrlar davri qo‘lyozma asarlariga asoslangan edi.

Bunday holatdan chiqib ketish uchun O‘rta Osiyo xalqlarining kelib chiqishi masalasida ko‘xna tarix taqazo etgan, ilmiy asosli konsepsiya yaratish kerak ediki, bu muammo yechimi bilan o‘tmish tariximizning darg‘alari, rus sharqshunos, arxeolog, etnograf va antropologlari shug‘ullandilar. Buning uchun esa yuqorida eslatilgan fan yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy izlanishlarni rivojlantirish va masalaga kompleks yondashuv asosida tadqiqotlar olib borish kerak edi. Chunki o‘tgan asrning 40-yillarigacha xorijiy va sobiq SSSR tarixchi olimlari o‘rtasida o‘zbek xalqining etnik tarixi Shayboniy o‘zbeklarining O‘rta Osiyo hududlariga XVI asr boshlarida kirib kelishidan boshlanadi, degan tasavvur hukmron edi.

O‘rta Osiyo qadimgi va o‘rta asrlar tarixini mukammal o‘rgangan olimlar esa bunday fikrga qo‘shilmas edilar. Ana shunday qat‘iyatli olimlardan biri taniqli sharqshunos va arxeolog A.Yu. Yakubovskiy bo‘lib, o‘zining 1941 yilda Toshkentda o‘zbek va rus tillarida chop etilgan “O‘zbek xalqining yuzaga kelishi masalasi haqida”

(“K voprosu ob etnogeneze uzbekskogo naroda”) risolasida bu masalada o‘zining qarashlarini quyidagicha ifodalaydi: Dashti Qipchoqning 92 bo‘li saxroyi o‘zbeklari Shayboniyxon boshliq O‘rta Osiyoga kirib kelganlarida, bu yerda qadimdan yashab kelayotgan turkiy aholini uchratadilar. Bu turg‘un turkiy aholi O‘rta Osiyoning ikki azim daryolari (Amudaryo va Sirdaryo) oralig‘ida eng qadimdan boshlab yashab kelayotgan eroniy tilli xalqlar bilan aralashib, qorishish natijasida Qoraxoniylar davriga kelganda bu qorishmadan yangi etnos, ya‘ni o‘zbek xalqi shakllangan. Dashti Qipchoqdan bu zaminga ko‘chib kelgan ko‘chmanchi qabilalar, ularning kelishidan roza 5 asr burun shakllangan yangi etnos tarkibiga qo‘shilgan komponentlar bo‘lib, tarix taqazosiga ko‘ra, ular o‘zbek xalqiga o‘z nomini bergan.

A.Yu. Yakubovskiy XX asrning 40-yillarigacha tarix fanida hukm surgan bunday g‘ayriilmiy qarashni aniq tarixiy ma‘lumotlar asosida xatoligini isbotlagan. A.Yu. Yakubovskiyning bu ilmiy fikr-mulohazalari uning akademik B.D. Grekov bilan hamkorlikda chop ettirgan “Oltin O‘rda va uning qulashi” nomli asarida ham o‘z aksini topgan .

Darhaqiqat, A.Yu. Yakubovskiy ishlab chiqqan konsepsiya nafaqat ilmiy jihatdan tarixiy haqiqatni o‘zida aks ettirdi, hatto sobiq sovet hokimiyatining lenincha milliy siyosatini ham o‘zida ifoda etardi. Shuning uchun bu konsepsiyani ilmiy asosda qonunlashtirish Rossiya sharqshunoslarining zimmasiga tushdi.

Demak, sobiq SSSR tarkibidagi milliy xalqlarning kelib chiqish tarixini o‘rganishga qaratilgan xatti-harakatlar sovetlar hokimiyat tepasiga kelgandan so‘ng boshlangan. Uning amaliy hayotga tadbiiq etilishi Turkistonda milliy davlat chegaralash siyosati tufayli kun tartibiga qo‘yilgan. Ungacha, na qadimda, na o‘rta asrlarda, na mustamlaka Turkistonda milliy masala davlat siyosati darajasida ko‘tarilmagan edi. Turli tilli Turkiston xalqlari uzoq asrlar davomida milliy nizolarsiz hamjihatlikda, bir xalq, bir millat, ya‘ni Turkiston millati bo‘lib yashab kelishgan.

Bu zaminda tarkib topgan davlatlar o‘tmish tarixda sulolaviy yoki etnik nomlar ostida ma‘lum hududiy doirada tashkil topgan bo‘lsalarda, ularning fuqarolari hech qachon milliy belgilariga qarab ajratilmagan va mayda millat vakillariga nisbatan muayyan davlat tazyiqi bo‘lmagan.

Tarixan tarkib topgan bunday an'anaviy-o'zgacha holatda yashab kelgan Turkiston ziyolilari, olimu-fuzalolar, badiiy ijod ahli, davlat arboblari, ikki etnos jamoalari birga yoki bir-birlariga yaqin joylarda yashagan oddiy xalq ham turkiy va forsiyda bab barobar so'zlashganlar.

O'rta asrlarda tarix taqazosiga ko'ra, dastlab ilm-fan arab tilida, keyinroq astasekin fors va turkiy tillarda ham olib borilgan. Davlat mahkamachiligida asosan fors tili, qisman va ba'zida turkiy til ham qo'llanilgan (Xiva xonligida). Keng xalq ommasining jonli tili turkiy va forsiyda edi. Shu bois, o'tmishda o'tgan allomalar, ilm-fan darg'alari, shoiru-adiblarimizning ilmiy va badiiy ijod merosi mintaqamiz xalqlarining barchasiga tegishli ekanligini tarixiy haqiqat deb bilishgan.

Afsuski, sovetlar hokimiyati davrida bu tarixiy haqiqat ildiziga bolta urildi. Milliy respublikalar chegara maydonlarini belgilash bahonasida Turkiston xalqlari, ularning yaxlit tarixi va madaniy merosi sun'iy ravishda bo'lib tashlandi, millatlararo nizolarni kelib chiqishiga asos solindi. Bu siyosat tufayli sobiq sovet davrida tarkib topgan yangi avlod mintqa tarixini o'rganish bilan shug'ullanar ekan, ularning har birida ona suti bilan qoniga, qalbiga singdirilgan til doirasida fikrlash, hudud va meros talashish kayfiyati va ruhiyati shakllanib bordi.

Ko'p millatli mamlakatda (sobiq SSSRda) barqarorlikni ta'minlash yo'lida davlat hokimiyati qanchalar qat'iy tartibni, millatlararo munosabat muvozatini saqlashga urinmasin, go'yo milliy o'zlikni anglashga qaratilgan sovetlarning "bo'lib tashla va hukmronlik qil" siyosati millatlararo ichki nizolar va ziddiyatlarni yetilib, ildiz ortib borishiga olib kelgan.

Markaziy Osiyo etnoslari kelib chiqishiga doir konsepsiyalar. Tadqiqotchilar etnik jarayonlarni ikkiga ya'ni bo'linib ketishga va birlashishga moyil jarayolarga bo'ladilar. Bo'linib ketishga moyil jarayonlar ko'proq ko'chmanchi chorvador qabilalar hayotida ko'zga tashlanadi. Masalan, bir qabila ittifoqi yoki elatni ma'lum bir tarixiy sabablarga ko'ra, bo'linish jarayonlarini "xunn", "qang'ar", "turk", "ko'chmanchi dashti qipchoq o'zbeklari" misolida ko'rish mumkin, ya'ni o'z davrida elat bo'lib shakllangan bu ijtimoiy-siyosiy uyushmalar etnik jarayonlarning bo'linish tamoyiliga ko'ra, o'zlarining dastlabki etnos xolatlarini yo'qotadilar. Etnik jarayonlarning birlashish tamoyiliga ko'ra esa, keyinchalik parchalangan bu elat

urug'larining ishtirokida yangi etnik birliklar vujudga keladi. Masalan, o'zbek, qirg'iz, qozoq, turkman, qoraqalpoq, uyg'ur va boshqalar.

O'zbek xalqi etnogenetik jarayonlarining jadal kechgan vaqt miloddan avvalgi III – milodiy V asrlar davomida Qang' davlati doirasida yuz berdi. Bu davrda turli tilli etnik guruhlarining bir-birlariga yaqinlashish, qo'shilish jarayonlari jadal kechdi. Etnik guruhlarining tashqi qiyofasi, tili, moddiy va ma'naviy madaniyatida yaqinlashish, fe'l-atvorida umumiylik hosil bo'ldi¹. Miloddan avvalgi II-milodiy I-II asrlarda Tangritog' shimoliy-sharqiy hududlaridan usunlarning katta guruhi, Xitoyning shimoliy-g'arbiy mintaqalaridan va janubiy Sibirda yashagan xu, di, dinlin, tele, xun va boshqa turkiy tilli ko'chmanchi etnoslarning katta guruhi Qang' davlati hududiga kelib o'rnamadilar². Mana shu davrda yuz bergan etnogenetik jarayonlar, ya'ni Movarounnahr va unga tutash mintaqalarda ularning sug'diylar, xorazmiylar, bohtariy va Farg'ona va Chochning o'troq aholisi bilan qorishuvi natijasida turkiy tilli qang'ar elati shakllanadi. Bu etnos o'zbek elatining shakllanishiga asos solgan eng qadimgi yirik turkiy qatlamni tashkil etgan³.

Sho'rolar davri ijtimoiy-gumanitar fanlari majmuasida etnos bilan etnografiya fani shug'ullanar edi. Rossiya etnografiya maktabining namoyondalari mashhur rus etnografi Mikluxo-Maklay g'oyalari yo'lidan borib, yer yuzidagi barcha etnoslar (xalqlar) o'rtasida jismoniy va aqliy farq yo'qligini, ular o'rtasidagi farq, faqat ularning tabiiy va ijtimoiy sharoitlari bilangina bog'liqdir, degan uning ilmiy xolislik asosida qurilgan g'oyasini rivojlantirdilar. Darhaqiqat, Mikluxa-Maklay Yangi Gviniya papauslari va Okeaniya xalqlari ustida izlanishlar olib borib, ularning turmush tarzi, moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rganish orqali G'arb dunyosining irqchilik nazariyasiga qarshi ishonarli ma'lumotlar to'play olgan. Sovet davrida bu fan asosan tavsifiy xarakterga ega bo'lganligi uchun "etnografiya" deb yuritildi. Bu borada katta ishlar qilindi⁴. Natijada, ilmiy avtohtonizm nazariyasi g'oyalari yo'nalishida sho'rolar davri etnografiyasida etnogenez va etnos masalalariga ilmiy -metodologik yondashuv

Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. T.: 2001, 83-84 betlar.

² Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Москва-Ленинград. I-jild, 92-93, II-jild, 196-198 betlar.

³ Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. T.: 2001, 85-bet.

⁴ Народы Средней Азии и Казахстана. (Серия «Народы мира»), том I, Москва-1962.

asosida tadqiqotlar olib borilib, tadqiqot ob'ektidan kelib chiqqan holda, turli qarashlar va ilmiy maktablar shakllandi.

Masalan, akademik Yu.V. Bromleyning dualistik konsepsiyasi, N.N. Cheboksarov va S.A. Arutyanyovning etnos bilan bog'liq infarmatsion konsepsiyasi, G.E. Markov va V.V. Pimenovning tizimli-statistik yoki komponentli nazariyasi, yoki Sho'rolar davrida ma'lum ma'noda cheklangan taniqli turkshunos olim L.N. Gumilevning "passionar nazariyasi" va boshqalar. Chunki, Sobiq Sovet davrida bu fan siyosiy buyurtmalar bajarib, ayniqsa, etnik rivojlanishning barcha jarayonlarini yoritib bera olgan emas. Masalan, etnik ong, etnik o'zlikni anglash, etnomadaniyat va etnomadaniy qadriyatlar, etnoslararo jarayonlar, etnoslararo munosabatlarning tub mohiyatini ochib berish kabi etnosning asosiy muammolarini tadqiq qilishda ma'lum ma'noda cheklangan edi.

Mutaxassis olimlar orasida etnosga ta'rif berishda har xillik mavjud edi. Masalan, etnos bu-kelib chiqishi bir bo'lgan kishilar (jamoalar) guruhi; etnos bu-umumiy til asosida shakllangan madaniyat samarasi; etnos bu-bir-birlariga o'xshagan kishilar guruhi; etnos bu-o'zlikni anglash xissi qaynab toshgan odamlar guruhi; etnos bu-tabiatning samarasi; etnos bu-ijtimoiy kategoriya yoki jamiyatning ijtimoiy hosilasi va boshqalar.

Mashhur turkshunos olim L.N. Gumilev bu masalada o'zining alohida pozitsiyasiga ega edi. U etnos masalasidagi o'z qarashini o'zining "passionar nazariyasi" orqali bayon etgan⁵. U etnosga faqat jamiyatning ijtimoiy hosilasi sifatida emas, balki biosferaning noyob, kamdan-kam uchraydigan natijasi sifatida qaraydi. Uningcha, etnos bu tabiatning, geografik muhitning ijtimoiy hosilasi, etnos shakllanishi bilan bog'liq etnogenetik jarayonlar esa o'z navbatida ijtimoiy-tabiiy aspektga ega. Shu bilan birga, etnos bu oddiy tushuncha bo'lib, u na ijtimoiy, na biologiya kategoriyasiga kiradi. Etnos bu-tarixiy-geografik faktlarning empirik umumlashmasi. Aniqrog'i, L.N. Gumilev qarashlariga ko'ra, etnos ijtimoiy emas, balki bio-geografik hosiladir. Etnos biosferaning tarkibiy qismi bo'lgani bois, undagi qonuniyatlarga bo'ysunadi⁶. Etnos bu ijtimoiy o'ramdagi real borliq, tarixiy ketma-

⁵ Гумилов Л.Н. Этногенез и биосфера земли. Москва-1993.

⁶ Гумилев Л.Н. Этносфера: История людей и история природы. Москва-1993. стр. 41.

ketlikda davom etuvchi etnogenetik jarayonlar natijasi, ularni harakatga soluvchi kuch, manba harakatchan, omilkor passionarlardir. Bu mutatsion jarayonlar ildizi Yerning boisfera hodisasi bilan bog'liq.

L.N. Gumilevning passionarlik konsepsiyasi asosida odam tabiatiga xos har xil harakatlar, olg'a intilishlar, erishgan yutuq, boylik va mansabdan qoniqmaslik nafs, o'z hukmini boshqalarga o'tkazishga intilish, bu yo'ldan qaytmaslik, qoniqmaslik va boshqalar yotadi. Turkshunos L.N. Gumilevning fikricha, mana shu yo'ldagi harakatlar, energiya, etnosni paydo bo'lishiga, shakllanishiga olib keladi. Boshqacha qilib aytganda, maqsad sari omilkorlik bilan olg'a intilish-passionarlikdir.

Passionarlik bu inson psixikasiga xos biologik holat, belgi, odamlarning tinchgina, befarq yashash holatini buzishga olib keluvchi dastlabki harakat, yangi avlodni paydo bo'lishining garovidir.

Odamzod o'zining mavjudligi bilan tabiiy holatni doimo buzishga intiladi, aks holda uning maqsadga erishish yo'lida tinch va osoyishta yashashi mumkin emas. Atrof muhit bilan kurash tufayli odamlar birlashishga majbur bo'ladilar. Bu kurashlar tepasida passionarlarni (urug', qabila sardorlarining) bosh-qosh bo'lishlari tabiiydir. Aks holda el, elat, xalq, millat o'z-o'zidan shakllanmaydi, degan to'g'ri xulosaga keladi L.N.Gumilev. Demak, etnos tabiiy, tinch rivojlanish oqibati ham emas, balki ijtimoiy madaniy jarayonlar faol rivojining hosilasidir.

Inson biologik mavjudot, tabiatning bir qismi. Kishilik jamiyatining evolyusion taraqqiyot natijasi. Inson ijtimoiy va geografik omillarning ta'siri tufayli muayyan guruhlar va jamoalarga bo'linadi. Mana shunday jamoalardan biri etnosdir. Demak, etnos-tabiiy-tarixiy jarayonlar natijasida tarkib topgan kishilar guruhidir⁷.

Masalan, akademik Yu.V. Bromleyning dualistik konsepsiyasi,

Etnos masalasida sobiq Sovet davri nazariyachilaridan ayniqsa, akademik Yu.V. Bromleyning fikrlari e'tiborga loyiqdir. U 1973 yilda "Etnos va etnografiya" (Etnos i etnografiya), 1987 yilda "Etnosotsial jarayonlar: nazariya, tarix, hozirgi zamon" (Etnosotsialnye protsessy: teoriya, istoriya, sovremennost), 1983 yilda «Etnos nazariyasining ocherklari (Ocherki teorii etnosa) nomli asarlarida etnos nazariyasiga

⁷ Краткий этнологический словарь. М-фонд. «Социальный мониторинг». 1995.

oid mavjud qarashlarning ilmiy tahlilini bergan va rivojlantirgan. Natijada, nazariy etnografiyada “bromley konsepsiyasi” yoki “etnosning dualistik nazariyasi” deb ataluvchi konsepsiya paydo bo‘ldi. Uning fikricha, etnos aniq bir hudud, til, kelib chiqish, madaniyat umumiyliigi, o‘z-o‘zini etnik anglash va o‘z etnik nomi (etnonimi) ga hamda o‘ziga xos turmush tarziga ega bo‘lgan kishilar guruhidir. Yu.V. Bromley tasavvurida etnos tushunchasini bir vaqtni o‘zida keng va tor ma’noda tushunish mumkin. Tor ma’nodagi etnos tushunchasini u “etnikos” deb ataydi, keng ma’nodagi etnos tushunchasini esa “etnoijtimoiy tuzilma” deb atashni taklif qiladi.

Yu.V. Bromley nazariyasiga ko‘ra, “etnikos” o‘ziga xos barqaror madaniyat, til birligi, psixika hamda etnik o‘z-o‘zini anglash va etnik nomga ega bo‘lgan kishilarning tarixan tarkib topgan guruhidir. Keng ma’nodagi etnosga yoki “etnoijtimoiy tuzilma”ga nafaqat hududiy-siyosiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy umumiylik ham kiradi. Masalan, o‘zbek xalqi misolida oladigan bo‘lsak, ushbu nazariyaga ko‘ra, butun yer sharida yashovchi o‘zbeklar etnikos bo‘lsa, O‘zbekistonda yashovchi o‘zbeklar etnoijtimoiy organizmdir.

Etnos tarixining muhim bosqichlaridan biri, uning shakllanish jarayoni, ya’ni etnogenezidir. Agar etnos shakllanishi nihoyasiga yetgan bo‘lsa, undan keyin, unga qo‘shilgan etnik komponentlar etnos tarkibini o‘zgartirib yubora olmaydi, balki uning tarkibida etnografik guruh sifatida uzoq vaqtlar yashab, ma’lum bir tarixiy voqelik ta’siridan so‘ng etnos tarkibiga singib ketadi.

Etnosning muhim alomatlaridan biri uning tilidir. Til ko‘pincha xalq etnogenezining yakuniy bosqichi hisoblanadi. Masalan, o‘zbek xalqining uzil-kesil shakllanishida til o‘zbek etnogenezining yakuniy omili bo‘ldi. Akademik K. Shoniyozov, o‘zbek etnogenezi va etnik tarixiga doir asarlarida o‘zbek xalqining shakllanishi IX-X asrlarda yuz berdi deb yozadi, ya’ni hozirgi O‘zbekiston hududlaridan sharqda Qoraxoniylar davlatining tarkib topishi bilan (IX-X asrlarda), o‘zbek elati xalq sifatida shakllandi⁸, deydi. Ammo, u asrlarda Qoraxoniylarning davlat tili umum turk tili edi, uning tarkibidan hali qarluq va chigil til lahjalari asosida shakllangan eski o‘zbek tili ajrab chiqmagan edi. Qachonkim, XI asrning o‘rtalarida

⁸ Shoniyozov K. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. T.: 2001, 318-319, 336 betlar.

Qoraxoniylar davlati ikkiga bo'lingach, uning g'arbiy viloyatlari doirasida, Movarounnahr va Xorazm, ularga yaqin tevarak-atrofda qarluq va chigil til lahjalarining o'lib borayotgan sug'diy, xorazmiy, boxtariy tillari hamda bu yerga kirib kelgan fors va arab tillari bilan qorishuvi asosida asta-sekin eski o'zbek tili rivojlanib, umum turk tilidan XII asrda ajrab chiqdi.

Shuni ham unitmaslik kerakki, turli etnoslar bir tilda so'zlashishlari ham mumkin. Masalan inglizlar, avstraliyaliklar bir tilda-ingliz tilida so'zlashadilar. Shuningdek, bu tilda AQSh aholisi, kanadaliklarning katta qismi, Yamayka oroli, Yangi Zelandiyaliklar, irlandlar, Markaziy Amerika aholisi so'zlashadilar. To'g'ri, ingliz tilining bunchalar keng yoyilishi kapitalizmning mustamlakachilik siyosatini samarasi bo'lib, ayni vaqtda ular emigrant mamlakatlar bo'lsalarda, amalda turli etnoslar hisoblanadilar. Demak, etnosning shakllanishida til hamma vaqt ham hal qiluvchi alomat bo'la olmasligi mumkin ekan. Etnosga xos alomatlar sirasiga moddiy va ma'naviy madaniyat, milliy etnik alomatlar: urf-odatlar, marosimlar, xalq san'ati, axloq-odab me'yorlari, etnomadaniy qadriyatlar ham kiradi.

Etnos shakllanishining eng muhim alomatlaridan biri mazkur etnosga mansublikni idrok etish, ya'ni etnik o'zlikni anglash xissidir. Etnik o'zlikni anglash xissi mazkur xalqqa tegishli fuqarolar tomonidan o'zlarining kelib chiqish tarixi va tarixiy taqdirLARining umumiyLigi asosida shakllanadi. Fanda shakllangan mana shu qarashlar asosida etnos nazariyalari shakllandi, joylarda mahalliy sharoitlar hisobga olinib, ular yangidan-yangi materiallar, qarashlar asosida rivojlantirildi.

Fanda mavjud ilmiy qarashlar majmuasida milliy avtoxtonizm g'oyasi o'zining ilmiyligi va ob'ektivligi bilan tarix fanida o'z o'rnini egalladi. Ushbu konsepsiya asosida, ayniqsa, o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi muammolarini o'rganishda akademik K. Shoniyozovning xizmatlari alohida tahsinga sazovordir. U o'zining qariyb yarim asrlik ilmiy faoliyati davomida Markaziy Osiyo mintaqasida yashovchi o'zbek va boshqa qardosh xalqlar etnogenezi va etnik tarixini izchil o'rgandi, qator ilmiy maqolalar va bir necha yirik monografiyalar yaratdi. Uning "O'zbek qarluqlari" (1964 y.), "O'zbek xalqining etnik tarixiga oid" (1974 y.), "O'zbek xalqining moddiy madaniyatidan etnografik lavhalar" (1981 y.), "Qang' davlati va qang'lilar" (1990 y.),

“O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni” (2001 y.) kabi asarlari fundamental ilmiy asosga ega.

Afsuski, keyingi yillarda O‘rta Osiyo xalqlarining etnogenezi va etnik tarixini o‘rganishda yana ilmiy tafakkurga yot “paniranizm” g‘oyasi jonlanib, mintaqada milliy nizolarga olib keluvchi harakatlar qilinmoqda. “Paneronizm” g‘oyasi tarafdorlarining ta’kidlashicha, milliy avtohtonizm nazariyasi sobiq sovet davri ijtimoiy-gumanitar fanlarining siyosiy o‘yini edi, aslida O‘rta Osiyo mintaqasi eroniy tilli xalqlar vatani, o‘zbek turklari bu yurtlarni zo‘rlilik bilan bosib olib, uning tub joyli xalqi-tojiklarning tog‘u-toshlarga siqib chiqardi, mazmunida asarlar yozib, chop etmoqdalar.

Masalan, Tojikiston FAsi akademigi, tarixnavis R. Masov A.Ya. Vishnevskiyning 1988 yilda Dushanbeda rotoprintda chop etilgan “Емьо раз к вopросу об истории нaтсионално-территориального размежевания» risolasiga asoslanib, 1991 yilda «История топоpного разделения», 1995 yilda esa «Таджик: история под грифом “sovershenно секретно” nomlari ostida, 2003 yilda esa “Таджик: вьтеснение и ассимиляция» kabi paneronistik ruhda monografiyalar chop etdi.

Markaziy Osiyo sharoitida, ayniqsa, uning g‘arbiy qismi - Turkistonda yuz bergan murakkab etnogenetik jarayonlarni hisobga olmay, bunday chiqishlarga g‘oyaviy ozuqa beruvchi kuchlar ham fanda yo‘q emas. Masalan, AQShdagi Indiana universitetining professori Yu. Bregel va uning ba’zi bir izdoshlari (A.Ya. Vishnevskiy, N. Ne‘matov, Yu. Yakubov, S. Polyakov, S.N. Petrova va boshqalar) chiqishlarida “Hinduovro‘pa” nazariyasi asosida paneronistik qarashlarga bo‘lgan hayrixohlik hamon ko‘zga tashlanadi⁹.

Tojikiston Respublikasi rahbariyati nomidan «Tojiklar tarix oynasida: oriylardan Somoniylargacha» (“Таджик в зerkale истории: от арийсев до Саманидов») asarini chop etilishi, uning ketidan Tojikiston Respublikasining Prezidenti E. Raxmanov tomonidan 2006 yilni «Oriylar sivilizatsiyasi yili» (“Годом арийской сivilизации”) deb e‘lon qilinishi paneronistik chiqishlarga yanada kengroq yo‘l ochdi.

Masalan, Tojikiston Respublikasi FA akademigi, taniqli arxeolog olim N. Ne‘matov o‘zining o‘ta eronparast hamfikrlaridan ham oshib tushdi, ya’ni

⁹ Yu . Bregel. Notes on the study of Central Asia. Журнал «Восток», № VI. Москва. 1997.

“paneronizm” nazariyasining asosini tashkil etgan “oriylarning ilk vatani O‘rta Osiyo, uning tub joyli aholisi esa tojiklarning o‘zginasidir”, deb ilmiy jamoatchilikni ishontirmoqchi bo‘lmoqda. U «Ariana xalqi mamlakati inqilobiy makrotsivilizatsiyasining 8 ming yilligi» (“Permanentnoy makrotsivilizatsii strany naroda Arianы 8000 let») maqolasida oriylarning kelib chiqish tarixini o‘zicha davrlashtiradi. Uningcha, oriylarning paydo bo‘lishi qadimgi tosh davrini yuqori paleolit bosqichiga to‘g‘ri keladi. Bu davrni u «oriy ibtidosi» (“ariyskoy arxaiki”) deb atab, aynan shu davrda tojik oriylari tarixi boshlangan, ya’ni “oriylar erasi boshlandi”, deydi. «Tojik oriylari tarixining ikkinchi bosqichi esa, mezolit va neolit davrining boshlariga (mil.avv. XII-VI ming yilliklar) to‘g‘ri keladi. Bu davrda o‘simliklar va hayvonot dunyosining ibtidoiy-intuitiv seleksiyalanishi yuz beradi, hayvonlarni xonakilashtirish, ibtidoiy dehqonchilik xo‘jaligining paydo bo‘lishi, oriylar seleksiyasi, ya’ni umum ovom orasidan oriylarning ajrab chiqishi sodir bo‘ladi. Bu davrning “Neolit inqilobi” deb atalmish bosqichida yangi tarixiy davr, sivilizatsiya ixtirolari, ya’ni yangidan-yangi xo‘jalik kashfiyotlari davri boshlanadi: tosh qurollarini silliqlash va teshish, kulolchilik, to‘qimachilik, loydan uy yasash va boshqalar kashf etiladi. Ibtidoiy urug‘ jamoalarining birlashtirishga, ularni o‘zlashtiruvchi xo‘jalikdan ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka o‘tishida bosh-qosh bo‘lgan oriy jamoalarining sivilizatsiyasi “neolit inqilobi” bilan yakunlanadi»¹⁰, deb yozadi.

Muhtaram akademik N. Ne‘matovning ta’biri bilan aytganda, miloddan avvalgi VI-IV ming yilliklarda insoniyat tarixida oriylarning “O‘rta Osiyo Oriyonasi” ya’ni “Qadimgi Oriyona” - oriy xalqlarining ilk vatani shakllanadi. Shundan boshlab, Oriyona sivilizatsiyasining ikkinchi davri boshlanadi, uning xronologik sanasi miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda sug‘orma dehqonchilik, aholining o‘troq turmush tarzi tarkib topadi, vohalarning, qadimgi shaharlar, ijtimoiy-boshqaruv markazlari vujudga keladi, boshqali o‘simliklar yangi navlarining seleksiyasi, tog‘ sanoati, misdan mehnat qurollari yasash paydo bo‘ladi. Bu davrning so‘nggi bosqichida oriylarning ilk va azaliy vatanidan Yevroosiyo mintaqalariga migratsiyasi (yoyilishi) boshlanadi. Oriylarning yangi guruhlari

¹⁰ Негматов Н. Газета «Вароруд» № 51 (87) от 24.XII. 2003 г.

Shimoliy Hindistonga, Afg'oniston va Eronga, Janubiy Kaspiy bo'ylari, Janubiy Kavkaz va Kichik Osiyoga, Dardanel bo'g'ozi orqali Frakiya va Egay dengizining havzalariga yoyilishi kuzatiladi. Oriylar muammosining "yangi nazariyotchisi" oriylarning kelib chiqishi va ularning ilk vatani haqida ilmiy manbalarga asoslangan ko'plab ilmiy asarlar borligini hisobga olib fikr-mulohazalar qilmagan ko'rinadi¹¹.

Oriylarning kelib chiqishini, umuman tosh davri bilan bog'lashlikning hech bir ilmiy asosi yo'q. Shuningdek, ularning kelib chiqishini qadimgi dehqonchilik mintaqalari bilan bog'lashlik ham asossiz. Afsuski, milliy ehtirolarga o'ta berilgan N. Ne'matov g'oyasi zaminida O'rta Osiyo xalqlari qadimgi tarixini faqat tojiklar bilan bog'lashlik yotadi. Uningcha, yer kurrasining yagona sivilizatsiya o'chog'i O'rta Osiyoku, uning aholisi esa tojiklar bo'lib, tojik xalqining ajdodlari dunyo bo'ylab madaniyat va sivilizatsiya tarqatgan. Bunday chiqish XX asrning 30-yillaridagi gitlerchilar Germaniyasini eslatmaydimi?

Akademik N. Ne'matovning "yangi konsepsiya"si aslida sobiq Sho'rolar hokimiyatining dastlabki yillarida avj olgan "paniranizm"ning qo'pol ko'rinishi xolos. Bunda, O'rta Osiyoda qadimgi dehqonchilik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi jarayonlarini "tojik oriylari"ning kelib chiqishi va rivojlanishi bilan sun'iy ravishda bog'lashga urinilgan. Afsuski, bunday ilmiy asossiz chiqishlar, fandagi mavjud murakkab ilmiy muammolarni yechimini topishga emas, balki faqat ularni yanada chigallashtirishga olib keldi.

Tarixiy jarayonni xolisona va ob'ektiv yoritish, tarixiy voqea va hodisalarni to'g'ri tahlil etish ilmiylikka asoslangan haqiqiy mezondir. Sizga mushohada uchun tavsiya etilayotgan turli ilmiy konsensiyalar va turlicha qarashlarning tub mohiyatini bayonidan so'ng ta'kidlash joizki, tarix fanining asosiy ob'ekti-xalq, millatdir, uning yaratuvchilik faoliyatisiz tarixiy jarayon o'zining mazmun va ma'nosini yo'qotadi. Binobarin, tarix dolzarb va qiziqarli bo'ladiki, qachonkim u xalq bilan, uning kelib chiqishini haqqoniy yorita olsa; tarix xalqning rivojlanish jarayonini asosiy bosqichlarini ob'ektiv kuzata olsa; jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida xalqning

¹¹ Кузьмина Е.Е. Откуда пришли индоарии? Материальная культура племен андроновской общности и происхождение индоиранцев. Москва-1994; Аскарлов А. Арийская проблема: новые подходы и взгляды. Сб. «История Узбекистана в археологических и письменных источниках». Т.: 2005.

asl farzandlari (daholar, davlat arboblari, fan va madaniyatning ilg'or vakillari)ning xizmatlarini to'g'ri baholay olsa. Tarixni u yoki bu muammosi yechimi yo'lida ishlab chiqilgan ilmiy konsepsiyalar nafaqat tarixiy jarayonni to'g'ri yoritishga, balki muayyan mintaq xalqlari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga, iqtisodiy va madaniy hamjihatlilikka xizmat qilmog'i kerak.

1. Markaziy Osiyodagi kam sonli etnik guruhlar. O'rta Osiyo arablari (arablar) — O'rta Osiyo mamlakatlaridagi kam sonli arab xalqlarining umumiy nomi. Arab o'ziga xosligini saqlab qolgan guruhlardan bo'lib, garchi umumiy tendentsiyasi salbiy bo'lishi 1930-yillarda Markaziy Osiyo respublikalari hududiy chegaralanganidan keyin ko'plab etnik guruhlar bilan asta-sekin assimilyatsiya qilish bilan izohlanadi. SSSR parchalanganidan keyingi birinchi o'n yillikda arablar milliyligini saqlab qolishga qiziqish yana kuchaydi. Bu, ayniqsa, soni jihatdan bir necha baravar ko'p bo'lgan Tojikiston arablarida yaqqol namoyon bo'ldi. Biroq, 2000-yillarda etnik o'zini o'zi anglash yana so'na boshladi. O'rta Osiyoda ildiz otgan arab guruhlarining umumiy soni 10 ming kishidan oshmaydi, shu jumladan Tojikistonda 4 ming (2010-yil, aholini ro'yxatga olish) va O'zbekistonda 2,5 ming kishini (1989-yil aholi ro'yxati) tashkil etgan. Turkmanistonda arablarning an'anaviy turar joyi Chardjou va Deynau shaharlari yaqini bo'lgan.

O'rta Osiyo arablarining ona tili o'zining tipologiyasi bo'yicha arab-mesopotamiya klasteriga yaqin. Ularning nutqini lingvistik va antropologik tahlili Markaziy Osiyo arablarining mintaqaga Mesopotamiya va Markaziy Arabistondan Eron va Afg'oniston orqali kirib kelganligi haqidagi nazariyani tasdiqlaydi. Tarixan arablar fors tiliga o'tishga ko'proq moyil bo'lgan. Biroq 18-asrdan keyin Marv va Zaravshon vohalarida ikkinchisining kamayishi bilan ko'plab arablar bu yerda kuchayib borayotgan turkiy tillarni (turkman va o'zbek) o'zlashtirdilar. Mintaqaning barcha arablari o'z ona tillarini saqlab qolishd. 1959-yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, O'rta Osiyo arablarining 34% ga yaqini arab tilida so'zlashgan. Tojikiston aholisini oxirgi ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, arablarning 35,7 foizi arab tilida so'zlashgan. Bundan tashqari, deyarli barcha hozirgi arablar uchta tilda gaplashadi: rus, o'zbek, tojik. Markaziy Osiyo arab lahjalari arab tilining alohida tipologik kichik guruhi sifatida ajralib turadi. 20-asrda ular faqat bir necha aholi punktlarida saqlanib qolgan:

G'ijduvon viloyatining Jangori va Chaxdar qishloqlarida, Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi Arabxona va Surxondaryo viloyatining Jenov qishlog'ida. O'zbekistonning Qashqadaryo viloyati Beshkent tumani Qamashi qishlog'ida arablar tojiklar va kosib lo'lilari bilan birga yashaydilar Arab oilalari O'rta Osiyoga 7-asrdan 17-asrgacha bir necha guruh bo'lib kelgan. O'rta Osiyo arablari 2 subetnik guruhga bo'linadi: shaymoniylar va sanoniylar. 7-8-asrlarda arab qo'shinlari O'rta Osiyoga bostirib kimgach, viloyatning asosiy shaharlari Buxoro va Samarqandda yirik garnizonlarni joylashtirdilar. Solnomalar guvohlik beradiki, Buxoroda arab askarlari bosib olingan eroniyzabon aholining uylari va yerlarining yarmini olgan. Ammo 9-asr boshlariga kelib, bu guruh butunlay mahalliy eron tilida so'zlashuvchi aholi bilan to'liq assimilyatsiyaga uchragan. 15-asrda forslar va yot arablarning asta-sekin turklanishi jarayoni boshlandi, bu faqat Tojikiston hududida bo'lmagan.

Bir oz ko'proq vaqt o'tgach, birinchi arab ko'chmanchilari Amudaryoning chap qirg'og'ida o'zlarining etnik o'ziga xosligi va tilini saqlab qolishdi. Bu yerda keyingi istilolari uchun asosiy tayanch bo'lgan Marv va Balx hududlarida ko'plab arablar shaharlik va ko'chmanchi bo'lib, ular yirik qabila guruhlariga bo'lingan. Shaharlik o'troq arab aholisi mahalliy forszabon va turkiyzabon aholi orasida tezda tarqalib ketishdi, ko'chmanchi arab qabilalari esa qadimgi urf-odatlar va tilni oxirigacha deyarli 19-asr ohirigacha buzilmasdan saqlab qolishdi.

Rasmiy Rossiya chegarasi o'rnatilgunga qadar Shimoliy Afg'onistonning (Shibirg'on va Balx viloyatlari) kam sonli, ammo jangari arab qabilalari 10-asrdan 19-asr boshlarigacha Amudaryo bo'ylab kezib yurgan. Ular mahalliy aholi bilan deyarli aloqada bo'lmagan va shuning uchun o'z ona tilini yaxshi saqlab qolgan. Arablar bosimi ostida 1513-yilda o'zbek sultonlari Janibek va Ubaydulla Amudaryoning chap qirg'og'ida vaqtincha egallab olgan yerlarini tashlab ketishga majbur bo'ladilar. Shu bilan birga, Jonibek Balx va Shibirgon arablariga Zaravshon vodiysi yerlariga — Samarqanddan Rabot Malikgacha (hozirgi. Kermine) yerlariga joylashishga ruxsat bergan. Ular asosan garnizon jangchilari oilalari edi. Oxirgi oqim a'zolari Afg'oniston va Eron orqali Markaziy Osiyoga joylashdi. O'rta Osiyoda arab ko'chmanchilari O'zbekiston va Tojikistonning quruq subtropik vohalarini tanladilar. Ilgari arablar uzoq vaqtdan beri alohida shahar bloklarida ixcham yashashni afzal ko'rishgan.

Qishloqlarda arablar ham o'z qishloqlarini barpo etishni ma'qul ko'rganlar, ular o'zbek, tojik yoki turkman qishloqlaridan ma'lum masofada yakka-yakka yoki guruh bo'lib joylashgan edi. Hozirgi vaqtda mintaqa aholisining tez o'sishi, migratsiyaning kuchayishi, yangi binolar va yirik kolxoz aholi punktlarining paydo bo'lishi tufayli arablar hamma joyda etnik guruhlar bilan aralashib ketishdi. Markaziy Osiyo arablari, qoida bo'yicha, SSSRning Markaziy Osiyo respublikalariga xalqaro talabalar yoki yangi mustaqil davlatlarda sifatida kelgan XX asr arab muhojirlarini o'z ichiga olmaydi.

3-MAVZU. MARKAZIY OSIYO ETNOLOGIYASINING ASOSIY TUSHUNCHALARI.

Milliy avtohtonizm konsepsiyasi va uning tub mohiyati.

Kichik bir lirik chekinishdan so'ng, muammoning ilmiy yechimi yo'lida olib borilgan izlanishlarga qaytadigan bo'lsak, yuqorida eslatilgan akademik A.Yu. Yakubovskiyning risolasi ruhiyati asosida 1942 yilda Toshkentda O'rta Osiyo xalqlarining etnogenezi masalalari bo'yicha maxsus ilmiy sessiya o'tkazildi. Sessiyada taniqli olimlar: A.D. Udalsev "Etnogenetik tadqiqotlarning nazariy asoslari", S.P. Tolstov "O'rta Osiyo etnogenezining asosiy muammolari" hamda "Aral etnogenetik jarayonlar maydoni", L.V.Oshanin "Antropologiya ma'lumotlari O'rta Osiyo xalqlari etnogenezi haqida", K.V.Trever "Miloddan avvalgi VI-V asrlarda O'rta Osiyo aholisining etnik tarkibi", I.I.Umnyakov "Toharlar muammosi", A.N.Bernshtam "O'rta Osiyo etnogenezida qadimgi turkiy elementlar", N.A.Kislyakov "Tojiklarning yuzaga kelishi masalasi haqida", V.V.Ginzburg "Antropologiya ma'lumotlari tojiklar etnogenezi haqida", A.Yu. Yakubovskiy "Turkman xalqining VIII-X asrlardagi etnogenezi tarixidan" mavzularda ma'ruzalar qilishib, O'rta Osiyo xalqlari etnogenezi va etnik tarixining asosiy yo'nalishi va ilmiy-metodologik asoslari belgilab olindi.

Mana shu konseptual yo'nalishda ko'p millatli O'rta Osiyo xalqlari etnik tarixi bo'yicha kompleks tadqiqotlar olib borish yo'lga qo'yilib, ularning natijalari asosida 1962 yilda ko'p jildli "Jahon xalqlari" tarixining "O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari"ga bag'ishlangan qismi chop etildi. Ushbu ilmiy va metodologik asarning "O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi" bo'limida, "tarixning ilk bosqichlaridanoq sug'orma dehqonchilik bilan qadimdan shug'ullanib kelgan eroniy tilli mahalliy aholining ma'lum qismi Zarafshon, Farg'ona, Choch va Movarounnahrning vohalari va dasht-sahrolariga hamda qadimgi Xorazmga kirib kelgan turkiy qabilalar bilan bir necha asrlar davomida aralashib yashashlari natijasida til jihatidan turkiylashgan yangi etnos shakllanadi. O'z navbatida turkiy qabilalar eroniy tilli xalqlarning madaniy ta'siridan bahramand bo'lib, ulardan xo'jalik yuritish usullarini, dehqonchilik sirlarini o'rganadilar. XI-XII asrlar etnik aralashuv va turklashish jarayonining eng jadallashgan vaqti bo'lib, aynan shu asrlarda ikki azim daryo (Amudaryo va Sirdaryo)

oralig'i va uning tevarak-atroflarida turkiyzabon o'zbek xalqining asosiy o'troq o'zagi shakllanadi. Keyinchalik bu xalq (etnos) o'zbek etnik nomini qabul qilgan". Bu konseptual qarash O'rta Osiyo xalqlari etnogenezining asosiy ilmiy tezisiga aylanib, mintaqa xalqlari tarixiga bag'ishlangan fundamental asarlarda o'z aksini topdi.

O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarining kelib chiqishi muammolari yechimiga nazariy va ilmiy metodologik asos bergan bu ilmiy ishlanma etnologiya fanida "milliy avtohtonizm konsepsiyasi" nomini oldi. Bu yangi nazariyaning konseptual asosini O'rta Osiyoning har bir xalqi "hozirda yashab turgan hududlari bilan azaldan bog'liqdir" . "Hozirgi zamon O'rta Osiyo xalqlarining birontasi ham qadimgi etnik guruhlariga bevosita borib taqalmaydi. Aksincha, ularning shakllanishida, yerli tub joyli xalqlar va tevarak-atrofdan ko'chib kelgan xalqlar har xil nisbatda o'z aksini topgan , degan g'oyalar tashkil etadi.

Ma'lumki, turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlarning har birida o'ziga xoslik, etnomadaniy va antropologik o'zgachalik mavjudki, u belgilar aynan o'sha millatning boshqalardan ajratib turadi. Sho'rolar davrida tarix fani va uning arxeologiya, antropologiya va etnografiya sohalarida o'tkazilgan tadqiqotlar aynan ana shu o'ziga xoslikni ilmiy o'rganishga, etnogenetik jarayonlarning tarixiy izchillik va xolisona birlamchi manbalar asosida ob'ektiv taxlil qilishga qaratildi. Bu konsepsiya nazariya asosida "qizil imperiya" tarkibida milliy respublikalarning tashkil topishiga, milliy tillarning tarkib topishiga, o'zlikni anglash va har bir xalqqa xos milliy mentalitetni shakllanishiga xizmat qildi. Shuningdek, bu konsepsiya "panturkizm", "paniranizm" "panislamizm"ga qarshi sobiq tuzum mafkurasining kuchli siyosiy himoyasida bo'ldi. Mavjud ilmiy qarashlar majmuasida milliy avtohtonizm g'oyasi o'zining ilmiyligi va ob'ektivligi bilan tarix fanida o'z o'rnini mustahkam egalladi.

O'rta Osiyo xalqlarining kelib chiqishi haqidagi milliy avtohtonizm konsepsiyasi ilmiy-metodologik jihatdan asosli bo'lsada, ammo uning ayrim nazariy jihatlari jiddiy tahlil va qo'shimcha ilmiy izlanishlarni talab qiladi. Masalan, o'zbek xalqining turkiy ildizini O'rta Osiyoda ilk bor paydo bo'lishi hamda turkiylarni faqat ko'chmanchi xalq sifatida ta'riflash masalasi, etnosni shakllantiruvchi omillar orasida tilning alohida o'рни masalasi, "xalq" atamasi bilan "millat" atamasiga bo'lgan talablar masalasi, millatga xos mentalitetning shakllanish davri masalasi, qadimgi xalqlarning tabiiy-

geografik sharoitga, ekologik vaziyatga moslashib xo‘jalik yuritish an‘analari hisobga olinmagan. Natijada, fanda ba’zi bir anglashilmovchiliklar paydo bo‘ldiki, bunga ko‘ra, O‘rta Osiyoning turkiygo‘y qabilalari “kelgindi”, “o‘zbek xalqi va millatining shakllanishida mintaqaning qadimiy eronzabon xalqlari qatnashmagan”, degan tasavvurlar paydo bo‘ldi. Aslida shundaymidi? Yo‘q, unday emas.

Mavjud yozma va moddiy madaniyat manbalarining tahliliga ko‘ra, o‘zbek xalqining ajdodlari O‘rta Osiyoning ikki azim daryolari (Amudaryo va Sirdaryo) oralig‘ida va ularning tevarak-atrof hududlarida azaldan yashab kelgan. O‘zbek xalqining ilk ajdodlari ikki til-turkiy tillar turkumidagi qabila va elatlar (tiek, xu, di, xun, dinlin, turk, qarluq, chigil, qipchoq, o‘g‘iz, barlos, jaloyir, qavchin, arlot va boshqalar) va shimoliy-sharqiy eroniy tillar turkumidagi qabila va elatlar (sug‘diylar, xorazmiylar, bohtariylar, Choch va Fraganiklar hamda sak-massagetlar) bo‘lgan. Ular uzoq asrlar davomida bir-birlariga yaqin yoki aynan bir hududda aralashib, qo‘ni-qo‘shni va quda-anda bo‘lib yashaganlar va ularning etnik qorishuvi jarayonida o‘zbek xalqi shakllangan.

Afsuski, hozirgacha o‘zbek xalqi tarixi, madaniy merosi, uning kelib chiqishi haqida bitilgan ilmiy maqolalar, risolalar, fundamental monografiya va asarlarda asosiy urg‘u, uning turkiy ildizi bilan bog‘liq yozma manbalarga ko‘proq qaratib kelindi. Natijada, o‘zbek xalqining tub joyli o‘troq sug‘diy, bohtariy, xorazmiy, choch va fraganik negiziga beixtiyor soya tushayotganligiga e‘tibor berilmay kelindi. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixiga bag‘ishlangan asarlarda “xalq” bilan “millat” atamalarining farqiga borilmadi yoki ularning hech birida millat mentaliteti masalasi maxsus tadqiqot ob‘ekti bo‘lmadi.

Qadimda va ilk o‘rta asrlarda o‘troqlashgan turg‘un turkiy qabila va elatlar faqat ko‘chmanchi chorvador sifatida ta‘riflanib, ularning Yettisuv, o‘rta va quyi Sirdaryo havzalari hududlarida keng ko‘lamda urbanistik jarayonlarga tortilishi, hatto bronza davridan e‘tiboran ularning bir qismi tog‘ sanoati va metallurgiya bilan maxsus shug‘ullanib, o‘troq hayotga moslashib borishi unitib kelindi.

Ma‘lumki, etnologiya fanida milliy avtohtonizm konsepsiyasiga ko‘ra, har bir xalqning kelib chiqish tarixi uch bosqichdan iborat bo‘ladi. Birinchi bosqichda qo‘shni, hududiy jihatdan yaqin, turli til va lahjalarda so‘zlashuvchi qabila va elatlarning

iqtisodiy va madaniy aloqalari asosida etnomadaniy yaqinlashish, aralashish va etnik qorishuv, ya'ni etnogenetik jarayonlar kechadi. Bu etnogenetik jarayon har bir xalq tarixida juda uzoq davom etadigan ob'ektiv tarixiy voqelik bo'lib, uning yakuni aynan olingan xalqning shakllanishiga olib keladi, ya'ni etnogenetik jarayon yakunida xalq shakllanadi.

Demak, xalq bu biologik hosila emas, balki uzoq davom etadigan etnogenetik jarayonlar mahsuli va etnik birliklar yig'indisidir. Xalq tarixining etnogenez bosqichi, ya'ni birinchi bosqich uning elat, xalq bo'lib shakllanganiga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Etnogenezning boshlang'ich nuqtasi, uning ibtidosi qabiladan boshlanadi. Agar biz O'rta Osiyoning eng qadimgi o'troq, tub joyli aholisi – o'zbek va tojik xalqlari misolida oladigan bo'lsak, u holda o'zbek va tojik xalqlarining etnogenezi kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining ibtidoiy jamoa tuzimi so'ngidan (so'ngi bronzadan) boshlanib, to rivojlangan o'rta asrlar jamiyatining X-XI asrigacha davom etadi.

Etnogenez yakunida etnosga xos barcha etnik belgilar, etnik omillar birin-ketin yuz berib, mujassamlashgan bo'ladi. Etnik omillar va belgilarni esa hududiy birlik, iqtisodiy-xo'jalik birligi, etnomadaniy birlik, antropologik tip birligi, etnik nom, o'zlikni onglash, til birligi va nihoyat siyosiy uyushma (politicheskaya konsolidatsiya) birligi tashkil etadi.

Ikkinchi bosqich, bu elat-xalq tarixi, ya'ni qachonkim, xalq etnogenezi yakunlangach, uning shakllangan xalq tarixi boshlanadi. O'zbeklarning xalq tarixi to'laligicha rivojlangan va so'nggi o'rta asrlar davrining ijtimoiy mahsulidir. O'zbek elatining mahalliy tub joyli sug'diy, bohtariy, xorazmiy, sak-massaget, o'troqlashgan turg'un turkiy qabila va elatlar asosida uyushishi qarluq-qoraxoniylar davrida jadallashib (IX-X asrlar), G'arbiy Qoraxoniylar davlati doirasida (XI-XII asrlar) uzil-kesil shakllanadi. Shundan so'ng o'zbek elati-xalqining etnik tarixi boshlanadi.

O'zbeklarning etnik tarixi uning etnogenezi kabi uzoq davom etadigan etnomadaniy jarayon bo'lib, bu jarayon to XIX asrning 70-80-yillarigacha davom etadi.

Xalq tarixi o'z iqtisodiy-xo'jalik va etnomadaniy rivojining ma'lum nuqtasiga yetgach, uning millat bo'lib shakllanish jarayoni boshlanadi, ya'ni uning uchinchi-millat tarixi bosqichi boshlanadi. Bu nuqtaning ijtimoiy hayotda namoyon bo'lishi

jamiyatda kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarining boshlanishi bilan yuz bera boshlaydi. Shuning uchun millat kapitalizmning ijtimoiy mahsuli hisoblanadi. Agar mana shu metodologik prinsipga asoslanadigan bo'lsak, o'zbek xalqining millat tarixi XIX asr oxiri - XX asrning boshlaridan boshlangan.

Millatning shakllanishi xalqning tarkib topishi kabi uzoq davom etadigan tarixiy va etnomadaniy jarayon bo'lib, millat etnik tarixning eng yuksak yuqori cho'qqisi, kamolot bosqichiki, bu bosqichga ko'tarilgan xalqning davlati millat nomi bilan yuritiladi, u suveren davlat sifatida o'zining ichki va tashqi siyosatini mustaqil yuritadi, umum millat tili davlat tili maqomini oladi, uning davlat chegaralari qat'iy, dahlsiz bo'lib, jahon hamjamiyati tomonidan tan olinadi, millatning o'zlikni anglash darajasi yuksak, milliy g'urur, vatanga fidoyilik, ona zamin va xalqiga sodiqlik millat fuqarolarining hayot mazmuniga, kundalik turmush tarziga aylanadi, millatga xos milliy mentalitet uzil-kesil shakllanadi, davlat jamiyat tomonidan boshqariladi, ya'ni davlat millatning xohish-irodasini bajaruvchi jonli mexanizmga aylanadi.

Millatni til, hudud va etnomadaniy jihatdan birlashtiruvchi omil iqtisodiy negizdir. Millatning iqtisodiy-xo'jalik birligi asosida til va hudud hamda etnomadaniy birliklar paydo bo'ladi. Millatning iqtisodiy va siyosiy birlashishi xalq jonli tilining (lahjalarining) yaqinlashishi asosida yagona milliy adabiy tilning paydo bo'lishiga olib keladi. Lahjalar o'rnini milliy adabiy til egallaydi. Uning davlat tili maqomi darajasiga ko'tarilishi esa millat nomi bilan atalgan davlatning mustaqillik belgilaridan nishonadir.

Millat mustaqil davlat belgisi. Davlat pul birligining jahon bozoridagi mavqei, uning iqtisodiy qudratidan nishonadir. Uning mustahkam zamini davlat iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy siyosatining barqarorligiga bog'liq. Fuqarolarning o'zlikni anglash darajasi istiqbolli iqtisodiy siyosat bilan chambarchas bog'liqdir. Bundan o'zbek millati va davlati ham istisno emas.

Markaziy Osiyo etnologiyasining asosiy tushunchalarini, klassifikasiyalash tamoyillarini o'rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish. Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasining maxalliy va xorijlik tadkikotchilar tomonidan urganilishi.

Xalqlarning kelib chiqish tarixini o'rganishda ijtimoiy-gumanitar fanlarida "etnik birlik" va "etnos" atamaları ishlatiladi. "Etnik birlik" ma'lum bir ijtimoiy

tuzimda, tabiiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida vujudga kelgan ijtimoiy va etnik uyushmadir. Uning sinonimi “etnos” bo‘lib, u yunoncha “xalq” demakdir. Ammo, “etnik birlik” (ruschada etnicheskaya obshnost) “xalq” atamasiga nisbatan ma’no jihatidan aniq tushunchadir¹². Etnos atamasi, ya’ni xalq juda keng va tor ma’noda ishlatiladi. Masalan, keng ma’noda: Rossiya xalqi, O‘zbekiston xalqi, dunyo xalqi; tor ma’noda: o‘zbek xalqi, qirg‘iz xalqi, tojik xalqi. Kichik bir guruh kishilariga nisbatan ham “xalq” iborasi qo‘llaniladi.

Fanda etnik birlikning uch bosqichi, ya’ni uch turi mavjud: qabila, elat (xalq) va millat. Ketma-ket almashib kelgan bu atamalar turli davrlarda vujudga kelgan, ular o‘z davrlariga xos xususiyatlari bilan bir-birlaridan farq qiladilar. “Elat” atamasi turkiy va forsiy tilli aholi o‘rtasida qabila, qabila ittifoqi, davlat yoki ma’lum hudud fuqarolariga nisbatan “xalq” atamasi o‘rnida ishlatilib kelingan. Shuning uchun “elat” turkiy va forsiy til muhiti hukmron doirada yaratilgan og‘zaki va yozma manbalarda uchraydi. “Xalq” atamasini “el”, “elat” o‘rnida, allaqachon o‘troq hayot kundalik turmush tarziga aylangan etnik birliklar uyushmasiga nisbatan ishlatilib kelinmoqda.

Qabila-ibtidoiy jamoa tuzimining so‘nggi bosqichiga xos etnik birlik. Qabila urug‘larga bo‘linish xususiyatlari bilan keyingi bosqichdagi etnik birlikdan (elatdan) farq qiladi. Qabilaning o‘ziga xos tili (lahjasi), hududi, qabila nomining (etnonimining) bo‘lishi va o‘ziga xos qabila an‘analarini, uning a‘zolari tomonidan bilishi bilan boshqa qabilalardan ajralib turadi. Qabila urug‘ jamoalari sardorlaridan tashkil topgan “oqsoqollar kengashi” tomonidan boshqarilgan, qabila jamoasiga tegishli barcha ishlar demokratik prinsiplar asosida ko‘rilib, hal etilgan.

Kishilik jamiyatining taraqqiy etib borishi va sinfiy jamiyatning paydo bo‘lishi bilan ibtidoiy bosqichga xos etnik birlik-tub ma’nodagi qabila uyushmasi o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Ammo, qabila atamasi va unga taalluqli bo‘lgan ba’zi xususiyatlar qoldiq (ruschada perejitok) sifatida barcha sinfiy jamiyatlarda ham, ularga moslashgan holda, saqlanib qolgan.

Tarixda ibtidoiy jamoa tuzimi bilan birinchi sinfiy jamiyatning oralig‘ini taniqli elshunos olim L.G. Morgan o‘zining “Qadimgi jamiyat” (1877 yil) asarida “Harbiy

¹² Чебоксаров Н.Н. Проблемы происхождения древних и современных народов. Труды VII Международного конгресса антропологических и этнографических наук. Том V, Москва. 1970. стр.746.

demokratiya davri” nomi bilan birinchi bor fanga kiritgan. Bu davrda qabilalar orasidagi etnik, iqtisodiy xo‘jalik va madaniy aloqalarning tobora rivojlanib borishi va ma’lum tarixiy voqealiklar sababli bir qancha qabilalar birlashadilar. Qabilalarning birlashish jarayonida etnik birlikning yangi turi vujudga keladi. Bu etnik birlik ma’lum tarixiy sharoitda hududiy, iqtisodiy xo‘jalik, til va etnomadaniy umumiylik asosida shakllanadi. Qadimiy davrda (ya’ni harbiy demokratiya davrida) vujudga kelgan bu yangi etnik birlikni ifodalash uchun, deb yozadi elshunos olim K Shoniyofov, “elat” atamasini qabul qilish o‘rinli bo‘lsa kerak.¹³ (“Elat” atamasini o‘zbek tilida yozilgan ilmiy adabiyotlarda “narodnost” (“xalq”) so‘zi o‘rnida ishlatilib kelinmoqda).

Etnologiya fanida “etnografik guruh” (subetnos) atamasi ham ko‘proq qo‘llaniladi. Etnografik guruh-ma’lum bir etnosning ya’ni elat-xalqning ajralmas qismi, uning tarkibidagi bo‘linmalardan biri bo‘lib, o‘ziga xos til lahjasi, xo‘jalik faoliyati, turmush tarzining ba’zi bir tomonlari bilan muayyan elatdan farq qiladi. Etnografik guruh odatda bir qabila yoki elatning boshqa yerga borib, ikkinchi bir xalq tarkibiga kirib yashayotgan, ammo, uning tarkibiga mutlaqo singib ketmay, u bilan birga yashab kelayotgan etnik birlikka aytiladi.

Masalan, sobiq sovet hokimiyatiga qadar o‘zbek xalqi tarkibidagi qipchoqlar, quramalar, umuman olganda ko‘chmanchi turkiy qabilalar etnografik guruh hisoblangan. Ba’zi hollarda etnografik guruh o‘z elidan, xalqidan ajralib, boshqa bir etnos tarkibiga qo‘shilishi tufayli ham paydo bo‘ladi. Bu xildagi etnoslarning katta qismi asrlar davomida mahalliy xalqning ichida yashab, ularning urf-odatlari va madaniyatini qabul qilib, uning tarkibiga singib ketgan (masalan arablarning said va xo‘ja taifasi). Ammo, ularning ma’lum qismi o‘z tilini va urf-odatlarini, antropologik qiyofasining ba’zi bir xususiyatlarini yaqinlash saqlab kelganlar (masalan, eroniylar).

Hozirgi kunda na qipchoq, na qurama, na qo‘ng‘irot, na eroniy, na arablar o‘zbek millati tarkibidagi etnografik guruhlar bo‘la oladi. Chunki, xalq o‘zining eng yuksak kamolot chuqqisi-millat darajasiga ko‘tarilganda, millat tarkibida etnografik

¹³ Shoniyofov K.SH. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. T.: 2001, 76-77 betlar.

guruhlarni bo'lishini tarixiy taraqqiyot taqazo etmaydi.

Etnik guruh muayyan bir xalqning parchalanib, alohida qismlarga bo'linib ketishi natijasida vujudga keladi. Etnografik guruhdan etnik guruhning farqi shundaki, parchalangan xalq tarkibidan ajralib chiqqan etnik guruh boshqa xalq tarkibida uzoq muddat yashab, shu xalqning tili, xo'jalik faoliyati, madaniyati, urf-odatlar va turmush tarzini qabul qilib, ularni o'ziga singdirib, o'zlarini uning nomi bilan ataydigan bo'lib qoladi. Ammo, shu bilan birga, bu guruh o'tmishdagi o'z etnik nomini eslay oladilar. Masalan, qipchoqlar XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida o'zbek xalqining tarkibida etnografik guruh bo'lgan bo'lsalar, ammo qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman, boshqird va boshqa xalqlar tarkibida etnik guruh hisoblangan¹⁴. Ayrim etnik guruhlar boshqa etnik birlik tarkibiga kirib, unga aralashib singib ketgan bo'lsalarda, o'z etnik nomlarini asrlar mobaynida saqlab qoladilar. Masalan, Qashqadaryoning o'rta oqimlarida hozirgacha majar nomi bilan ataluvchi etnik guruh yashaydi.

Ma'lumki, majarlar Vengriya davlatining asosiy xalqidir. Bularning ilk ajdodlari bir zamonlar Sirdaryo quyi oqimlaridagi cho'llarda va O'rol tog' oldi rayonlarida yashagan. Milodiy IX asrda majarlarning katta qismi xazarlar siquviga bardosh bera olmay g'arbga siljib, hozirgi Vengriya hududiga borib o'rtnashganlar. Bu yerda ular slavyanlashib, elat va keyin millat bo'lib shakllanadilar. Qadimgi ona yurtlarida qolganlari tatar, boshqird va o'zbeklar tarkibiga qo'shilib, singib ketishlariga qaramasdan qadimgi etnik (majar etnonimini) nomlarini hozirgacha saqlab keladilar¹⁵.

Endi, "etnik jarayon" iborasiga kelsak, etnik birliklar tarkibiga kirgan etnik guruhlar o'rtasidagi etnik, iqtisodiy xo'jalik va madaniy aloqalarning uzluksiz rivojlanib borishiga "etnik jarayon" deyiladi. Tadqiqotchilar etnik jarayonlarni ikkiga ya'ni bo'linib ketishga va birlashishga moyil jarayolarga bo'ladilar. Bo'linib ketishga moyil jarayonlar ko'proq ko'chmanchi chorvador qabilalar hayotida ko'zga tashlanadi. Masalan, bir qabila ittifoqi yoki elatni ma'lum bir tarixiy sabablarga ko'ra, bo'linish jarayonlarini "xunn", "qang'ar", "turk", "ko'chmanchi dashti qipchoq

¹⁴ Shoniyoov K.SH. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. T.: 2001, 78 bet.

¹⁵ Shoniyoov K.SH. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. T.: 2001, 79-80 betlar.

o'zbeklari" misolida ko'rish mumkin, ya'ni o'z davrida elat bo'lib shakllangan bu ijtimoiy-siyosiy uyushmalar etnik jarayonlarning bo'linish tamoyiliga ko'ra, o'zlarining dastlabki etnos xolatlarini yo'qotadilar. Etnik jarayonlarning birlashish tamoyiliga ko'ra esa, keyinchalik parchalangan bu elat urug'larining ishtirokida yangi etnik birliklar vujudga keladi. Masalan, o'zbek, qirg'iz, qozoq, turkman, qoraqalpoq, uyg'ur va boshqalar.

O'zbek xalqi etnogenetik jarayonlarining jadal kechgan vaqt miloddan avvalgi III – milodiy V asrlar davomida Qang' davlati doirasida yuz berdi. Bu davrda turli tilli etnik guruhlarining bir-birlariga yaqinlashish, qo'shilish jarayonlari jadal kechdi. Etnik guruhlarining tashqi qiyofasi, tili, moddiy va ma'naviy madaniyatida yaqinlashish, fe'l-atvorida umumiylik hosil bo'ldi¹⁶. Miloddan avvalgi II-milodiy I-II asrlarda Tangritog' shimoliy-sharqiy hududlaridan usunlarning katta guruhi, Xitoyning shimoliy-g'arbiy mintaqalaridan va janubiy Sibirda yashagan xu, di, dinlin, tele, xun va boshqa turkiy tilli ko'chmanchi etnoslarning katta guruhi Qang' davlati hududiga kelib o'rinishadilar¹⁷. Mana shu davrda yuz bergan etnogenetik jarayonlar, ya'ni Movarounnahr va unga tutash mintaqalarda ularning sug'diylar, xorazmiylar, bohtariy va Farg'ona va Chochning o'troq aholisi bilan qorishuvi natijasida turkiy tilli qang'ar elati shakllanadi. Bu etnos o'zbek elatining shakllanishiga asos solgan eng qadimgi yirik turkiy qatlamni tashkil etgan¹⁸.

Sho'rolar davri ijtimoiy-gumanitar fanlari majmuasida etnos bilan etnografiya fani shug'ullanar edi. Rossiya etnografiya maktabining namoyondalari mashhur rus etnografi Mikluxo-Maklay g'oyalari yo'lidan borib, yer yuzidagi barcha etnoslar (xalqlar) o'rtasida jismoniy va aqliy farq yo'qligini, ular o'rtasidagi farq, faqat ularning tabiiy va ijtimoiy sharoitlari bilangina bog'liqdir, degan uning ilmiy xolislik asosida qurilgan g'oyasini rivojlantirdilar. Darhaqiqat, Mikluxa-Maklay Yangi Gviniya papauslari va Okeaniya xalqlari ustida izlanishlar olib borib, ularning turmush tarzi, moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rganish orqali G'arb dunyosining irqchilik nazariyasiga qarshi ishonarli ma'lumotlar to'play olgan. Sovet davrida bu

Shoniyoov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. T.: 2001, 83-84 betlar.

¹⁷ Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Москва-Ленинград. I-жилд, 92-93, II-жилд, 196-198 бетлар.

¹⁸ Shoniyoov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. T.: 2001, 85-bet.

fan asosan tavsifiy xarakterga ega bo'lganligi uchun "etnografiya" deb yuritildi. Bu borada katta ishlar qilindi¹⁹. Natijada, ilmiy avtohtonizm nazariyasi g'oyalari yo'nalishida sho'rolar davri etnografiyasida etnogenez va etnos masalalariga ilmiy - metodologik yondashuv asosida tadqiqotlar olib borilib, tadqiqot ob'ektidan kelib chiqqan holda, turli qarashlar va ilmiy maktablar shakllandi.

Masalan, akademik Yu.V. Bromleyning dualistik konsepsiyasi, N.N. Cheboksarov va S.A. Arutyanyovning etnos bilan bog'liq infarmatsion konsepsiyasi, G.E. Markov va V.V. Pimenovning tizimli-statistik yoki komponentli nazariyasi, yoki Sho'rolar davrida ma'lum ma'noda cheklangan taniqli turkshunos olim L.N. Gumilevning "passionar nazariyasi" va boshqalar. Chunki, Sobiq Sovet davrida bu fan siyosiy buyurtmalar bajarib, ayniqsa, etnik rivojlanishning barcha jarayonlarini yoritib bera olgan emas. Masalan, etnik ong, etnik o'zlikni anglash, etnomadaniyat va etnomadaniy qadriyatlar, etnoslararo jarayonlar, etnoslararo munosabatlarning tub mohiyatini ochib berish kabi etnosning asosiy muammolarini tadqiq qilishda ma'lum ma'noda cheklangan edi.

Mutaxassis olimlar orasida etnosga ta'rif berishda har xillik mavjud edi. Masalan, etnos bu-kelib chiqishi bir bo'lgan kishilar (jamoalar) guruhi; etnos bu-umumiy til asosida shakllangan madaniyat samarasi; etnos bu-bir-birlariga o'xshagan kishilar guruhi; etnos bu-o'zlikni anglash xissi qaynab toshgan odamlar guruhi; etnos bu-tabiatning samarasi; etnos bu-ijtimoiy kategoriya yoki jamiyatning ijtimoiy hosilasi va boshqalar.

Mashhur turkshunos olim L.N. Gumilev bu masalada o'zining alohida pozitsiyasiga ega edi. U etnos masalasidagi o'z qarashini o'zining "passionar nazariyasi" orqali bayon etgan²⁰. U etnosga faqat jamiyatning ijtimoiy hosilasi sifatida emas, balki biosferaning noyob, kamdan-kam uchraydigan natijasi sifatida qaraydi. Uningcha, etnos bu tabiatning, geografik muhitning ijtimoiy hosilasi, etnos shakllanishi bilan bog'liq etnogenetik jarayonlar esa o'z navbatida ijtimoiy-tabiiy aspektga ega. Shu bilan birga, etnos bu oddiy tushuncha bo'lib, u na ijtimoiy, na biologiya kategoriyasiga kiradi. Etnos bu-tarixiy-geografik faktlarning empirik

¹⁹ Народы Средней Азии и Казахстана. (Серия «Народы мира»), том I, Москва-1962.

²⁰ Гумилов Л.Н. Этногенез и биосфера земли. Москва-1993.

umumlashmasi. Aniqrog'i, L.N. Gumilev qarashlariga ko'ra, etnos ijtimoiy emas, balki bio-geografik hosiladir. Etnos biosferaning tarkibiy qismi bo'lgani bois, undagi qonuniyatlarga bo'ysunadi²¹. Etnos bu ijtimoiy o'ramdagi real borliq, tarixiy ketma-ketlikda davom etuvchi etnogenetik jarayonlar natijasi, ularni harakatga soluvchi kuch, manba harakatchan, omilkor passionarlardir. Bu mutatsion jarayonlar ildizi Yerning biosfera hodisasi bilan bog'liq.

L.N. Gumilevning passionarlik konsepsiyasi asosida odam tabiatiga xos har xil harakatlar, olg'a intilishlar, erishgan yutuq, boylik va mansabdan qoniqmaslik nafs, o'z hukmini boshqalarga o'tkazishga intilish, bu yo'ldan qaytmaslik, qoniqmaslik va boshqalar yotadi. Turkshunos L.N. Gumilevning fikricha, mana shu yo'ldagi harakatlar, energiya, etnosni paydo bo'lishiga, shakllanishiga olib keladi. Boshqacha qilib aytganda, maqsad sari omilkorlik bilan olg'a intilish-passionarlikdir. Passionarlik bu inson psixikasiga xos biologik holat, belgi, odamlarning tinchgina, befarq yashash holatini buzishga olib keluvchi dastlabki harakat, yangi avlodni paydo bo'lishining garovidir.

Odamzod o'zining mavjudligi bilan tabiiy holatni doimo buzishga intiladi, aks holda uning maqsadga erishish yo'lida tinch va osoyishta yashashi mumkin emas. Atrof muhit bilan kurash tufayli odamlar birlashishga majbur bo'ladilar. Bu kurashlar tepasida passionarlarni (urug', qabila sardorlarining) bosh-qosh bo'lishlari tabiiydir. Aks holda el, elat, xalq, millat o'z-o'zidan shakllanmaydi, degan to'g'ri xulosaga keladi L.N.Gumilev. Demak, etnos tabiiy, tinch rivojlanish oqibati ham emas, balki ijtimoiy madaniy jarayonlar faol rivojining hosilasidir.

Inson biologik mavjudot, tabiatning bir qismi. Kishilik jamiyatining evolyusion taraqqiyot natijasi. Inson ijtimoiy va geografik omillarning ta'siri tufayli muayyan guruhlar va jamoalarga bo'linadi. Mana shunday jamoalardan biri etnosdir. Demak, etnos-tabiiy-tarixiy jarayonlar natijasida tarkib topgan kishilar guruhidir²². Masalan, akademik Yu.V. Bromleyning dualistik konsepsiyasi, Etnos masalasida sobiq Sovet davri nazariyachilaridan ayniqsa, akademik Yu.V. Bromleyning fikrlari e'tiborga loyiqdir. U 1973 yilda "Etnos va etnografiya" (Etnos i etnografiya), 1987 yilda

²¹ Гумилев Л.Н. Этносфера: История людей и история природы. Москва-1993. стр. 41.

²² Краткий этнологический словарь. М-фонд. «Социальный мониторинг». 1995.

“Etnosotsial jarayonlar: nazariya, tarix, hozirgi zamon” (Etnosotsialnye protsessy: teoriya, istoriya, sovremennost), 1983 yilda «Etnos nazariyasining ocherklari (Ocherki teorii etnosa) nomli asarlarida etnos nazariyasiga oid mavjud qarashlarning ilmiy tahlilini bergan va rivojlantirgan.

Natijada, nazariy etnografiyada “bromley konsepsiyasi” yoki “etnosning dualistik nazariyasi” deb ataluvchi konsepsiya paydo bo‘ldi. Uning fikricha, etnos aniq bir hudud, til, kelib chiqish, madaniyat umumiyliigi, o‘z-o‘zini etnik anglash va o‘z etnik nomi (etnonimi) ga hamda o‘ziga xos turmush tarziga ega bo‘lgan kishilar guruhidir. Yu.V. Bromley tasavvurida etnos tushunchasini bir vaqtni o‘zida keng va tor ma’noda tushunish mumkin. Tor ma’nodagi etnos tushunchasini u “etnikos” deb ataydi, keng ma’nodagi etnos tushunchasini esa “etnoijtimoiy tuzilma” deb atashni taklif qiladi.

Yu.V. Bromley nazariyasiga ko‘ra, “etnikos” o‘ziga xos barqaror madaniyat, til birligi, psixika hamda etnik o‘z-o‘zini anglash va etnik nomga ega bo‘lgan kishilarning tarixan tarkib topgan guruhidir. Keng ma’nodagi etnosga yoki “etnoijtimoiy tuzilma”ga nafaqat hududiy-siyosiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy umumiylik ham kiradi. Masalan, o‘zbek xalqi misolida oladigan bo‘lsak, ushbu nazariyaga ko‘ra, butun yer sharida yashovchi o‘zbeklar etnikos bo‘lsa, O‘zbekistonda yashovchi o‘zbeklar etnoijtimoiy organizmdir. Etnos tarixining muhim bosqichlaridan biri, uning shakllanish jarayoni, ya’ni etnogenezidir. Agar etnos shakllanishi nihoyasiga yetgan bo‘lsa, undan keyin, unga qo‘shilgan etnik komponentlar etnos tarkibini o‘zgartirib yubora olmaydi, balki uning tarkibida etnografik guruh sifatida uzoq vaqtlar yashab, ma’lum bir tarixiy voqelik ta’siridan so‘ng etnos tarkibiga singib ketadi. Etnosning muhim alomatlaridan biri uning tilidir. Til ko‘pincha xalq etnogenezining yakuniy bosqichi hisoblanadi. Masalan, o‘zbek xalqining uzil-kesil shakllanishida til o‘zbek etnogenezining yakuniy omili bo‘ldi. Akademik K. Shoniyozov, o‘zbek etnogenezi va etnik tarixiga doir asarlarida o‘zbek xalqining shakllanishi IX-X asrlarda yuz berdi deb yozadi, ya’ni hozirgi O‘zbekiston hududlaridan sharqda Qoraxoniylar davlatining tarkib topishi bilan (IX-X asrlarda), o‘zbek elati xalq sifatida shakllandi²³, deydi.

Shoniyozov K. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. T.: 2001, 318-319, 336 betlar.

Ammo, u asrlarda Qoraxoniylarning davlat tili umum turk tili edi, uning tarkibidan hali qarluq va chigil til lahjalari asosida shakllangan eski o'zbek tili ajrab chiqmagan edi. Qachonkim, XI asrning o'rtalarida Qoraxoniylar davlati ikkiga bo'lingach, uning g'arbiy viloyatlari doirasida, Movarounnahr va Xorazm, ularga yaqin tevarak-atrofdagi qarluq va chigil til lahjalarining o'lib borayotgan sug'diy, xorazmiy, buxtariy tillari hamda bu yerga kirib kelgan fors va arab tillari bilan qorishuvi asosida asta-sekin eski o'zbek tili rivojlanib, umum turk tilidan XII asrda ajrab chiqdi. Shuni ham unitmaslik kerakki, turli etnoslar bir tilda so'zlashishlari ham mumkin. Masalan inglizlar, avstraliyaliklar bir tilda-ingliz tilida so'zlashadilar. Shuningdek, bu tilda AQSh aholisi, kanadaliklarning katta qismi, Yamayka oroli, Yangi Zelandiyaliklar, irlandlar, Markaziy Amerika aholisi so'zlashadilar. To'g'ri, ingliz tilining bunchalar keng yoyilishi kapitalizmning mustamlakachilik siyosatini samarasi bo'lib, ayni vaqtda ular emigrant mamlakatlar bo'lsalarda, amalda turli etnoslar hisoblanadilar. Demak, etnosning shakllanishida til hamma vaqt ham hal qiluvchi alomat bo'la olmasligi mumkin ekan. Etnosga xos alomatlar sirasiga moddiy va ma'naviy madaniyat, milliy etnik alomatlar: urf-odatlar, marosimlar, xalq san'ati, axloq-odab me'yorlari, etnomadaniy qadriyatlar ham kiradi. Etnos shakllanishining eng muhim alomatlaridan biri mazkur etnosga mansublikni idrok etish, ya'ni etnik o'zlikni anglash xissidir. Etnik o'zlikni anglash xissi mazkur xalqqa tegishli fuqarolar tomonidan o'zlarining kelib chiqish tarixi va tarixiy taqdirLARining umumiyLigi asosida shakllanadi. Fanda shakllangan mana shu qarashlar asosida etnos nazariyalari shakllandi, joylarda mahalliy sharoitlar hisobga olinib, ular yangidan-yangi materiallar, qarashlar asosida rivojlantirildi.

Fanda mavjud ilmiy qarashlar majmuasida milliy avtohtonizm g'oyasi o'zining ilmiyligi va ob'ektivligi bilan tarix fanida o'z o'rnini egalladi. Ushbu konsepsiya asosida, ayniqsa, o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi muammolarini o'rganishda akademik K. Shoniyozovning xizmatlari alohida tahsinga sazovordir. U o'zining qariyb yarim asrlik ilmiy faoliyati davomida Markaziy Osiyo mintaqasida yashovchi o'zbek va boshqa qardosh xalqlar etnogenezi va etnik tarixini izchil o'rgandi, qator ilmiy maqolalar va bir necha yirik monografiyalar yaratdi. Uning "O'zbek qarluqlari" (1964 y.), "O'zbek xalqining etnik tarixiga oid" (1974 y.), "O'zbek xalqining moddiy

madaniyatidan etnografik lavhalar” (1981 y.), “Qang‘ davlati va qang‘lilar” (1990 y.), “O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni” (2001 y.) kabi asarlari fundamental ilmiy asosga ega. Afsuski, keyingi yillarda O‘rta Osiyo xalqlarining etnogenezi va etnik tarixini o‘rganishda yana ilmiy tafakkurga yot “paniranizm” g‘oyasi jonlanib, mintaqada milliy nizolarga olib keluvchi harakatlar qilinmoqda. “Paneronizm” g‘oyasi tarafdorlarining ta’kidlashicha, milliy avtohtonizm nazariyasi sobiq sovet davri ijtimoiy-gumanitar fanlarining siyosiy o‘yini edi, aslida O‘rta Osiyo mintaqasi eroniy tilli xalqlar vatani, o‘zbek turklari bu yurtlarni zo‘rlilik bilan bosib olib, uning tub joyli xalqi-tojiklarning tog‘u-toshlarga siqib chiqardi, mazmunida asarlar yozib, chop etmoqdalar. Masalan, Tojikiston FAsi akademigi, tarixnavis R. Masov A.Ya. Vishnevskiyning 1988 yilda Dushanbeda rotoprintda chop etilgan “Емцыо раз к вопросу об истории национально-территориального размежевания» risolasiga asoslanib, 1991 yilda «История топонимического разделения», 1995 yilda esa «Таджик: история под грифом “совершенно секретно”» nomlari ostida, 2003 yilda esa “Таджик: вытеснение и ассимиляция» kabi paneronistik ruhda monografiyalar chop etdi.

Markaziy Osiyo sharoitida, ayniqsa, uning g‘arbiy qismi - Turkistonda yuz bergan murakkab etnogenetik jarayonlarni hisobga olmay, bunday chiqishlarga g‘oyaviy ozuqa beruvchi kuchlar ham fanda yo‘q emas. Masalan, AQShdagi Indiana universitetining professori Yu. Bregel va uning ba’zi bir izdoshlari (A.Ya. Vishnevskiy, N. Ne‘matov, Yu. Yakubov, S. Polyakov, S.N. Petrova va boshqalar) chiqishlarida “Hinduovro‘pa” nazariyasi asosida paneronistik qarashlarga bo‘lgan hayrixohlik hamon ko‘zga tashlanadi²⁴.

Tojikiston Respublikasi rahbariyati nomidan «Tojiklar tarix oynasida: oriylardan Somoniylargacha» (“Таджик в зеркале истории: от арийцев до Саманидов») asarini chop etilishi, uning ketidan Tojikiston Respublikasining Prezidenti E. Raxmanov tomonidan 2006 yilni «Oriylar sivilizatsiyasi yili» (“Годом арийской сивилизации”) deb e‘lon qilinishi paneronistik chiqishlarga yanada kengroq yo‘l ochdi.

Masalan, Tojikiston Respublikasi FA akademigi, taniqli arxeolog olim N. Ne‘matov o‘zining o‘ta eronparast hamfikrlaridan ham oshib tushdi, ya’ni

²⁴ Yu . Bregel. Notes on the study of Central Asia. Журнал «Восток», № VI. Москва. 1997.

“paneronizm” nazariyasining asosini tashkil etgan “oriylarning ilk vatani O‘rta Osiyo, uning tub joyli aholisi esa tojiklarning o‘zginasidir”, deb ilmiy jamoatchilikni ishontirmoqchi bo‘lmoqda. U «Ariana xalqi mamlakati inqilobiy makrotsivilizatsiyasining 8 ming yilligi» (“Permanentnoy makrotsivilizatsii strany naroda Arianы 8000 let») maqolasida oriylarning kelib chiqish tarixini o‘zicha davrlashtiradi. Uningcha, oriylarning paydo bo‘lishi qadimgi tosh davrini yuqori paleolit bosqichiga to‘g‘ri keladi. Bu davrni u «oriy ibtidosi» (“ariyskoy arxaiki”) deb atab, aynan shu davrda tojik oriylari tarixi boshlangan, ya’ni “oriylar erasi boshlandi”, deydi. «Tojik oriylari tarixining ikkinchi bosqichi esa, mezolit va neolit davrining boshlariga (mil.avv. XII-VI ming yilliklar) to‘g‘ri keladi. Bu davrda o‘simliklar va hayvonot dunyosining ibtidoiy-intuitiv seleksiyalanishi yuz beradi, hayvonlarni xonakilashtirish, ibtidoiy dehqonchilik xo‘jaligining paydo bo‘lishi, oriylar seleksiyasi, ya’ni umum ovom orasidan oriylarning ajrab chiqishi sodir bo‘ladi. Bu davrning “Neolit inqilobi” deb atalmish bosqichida yangi tarixiy davr, sivilizatsiya ixtirolari, ya’ni yangidan-yangi xo‘jalik kashfiyotlari davri boshlanadi: tosh qurollarini silliqlash va teshish, kulolchilik, to‘qimachilik, loydan uy yasash va boshqalar kashf etiladi. Ibtidoiy urug‘ jamoalarining birlashtirishga, ularni o‘zlashtiruvchi xo‘jalikdan ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka o‘tishida bosh-qosh bo‘lgan oriy jamoalarining sivilizatsiyasi “neolit inqilobi” bilan yakunlanadi»²⁵, deb yozadi.

Muhtaram akademik N. Ne‘matovning ta’biri bilan aytganda, miloddan avvalgi VI-IV ming yilliklarda insoniyat tarixida oriylarning “O‘rta Osiyo Oriyonasi” ya’ni “Qadimgi Oriyona” - oriy xalqlarining ilk vatani shakllanadi. Shundan boshlab, Oriyona sivilizatsiyasining ikkinchi davri boshlanadi, uning xronologik sanasi miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda sug‘orma dehqonchilik, aholining o‘troq turmush tarzi tarkib topadi, vohalarning, qadimgi shaharlar, ijtimoiy-boshqaruv markazlari vujudga keladi, boshqali o‘simliklar yangi navlarining seleksiyasi, tog‘ sanoati, misdan mehnat qurollari yasash paydo bo‘ladi. Bu davrning so‘nggi bosqichida oriylarning ilk va azaliy vatanidan Yevroosiyo mintaqalariga migratsiyasi (yoyilishi) boshlanadi. Oriylarning yangi guruhlari

²⁵ Негматов Н. Газета «Вароруд» № 51 (87) от 24.XII. 2003 г.

Shimoliy Hindistonga, Afg'oniston va Eronga, Janubiy Kaspiy bo'ylari, Janubiy Kavkaz va Kichik Osiyoga, Dardanel bo'g'ozini orqali Frakiya va Egay dengizining havzalariga yoyilishi kuzatiladi. Oriylar muammosining "yangi nazariyotchisi" oriylarning kelib chiqishi va ularning ilk vatani haqida ilmiy manbalarga asoslangan ko'plab ilmiy asarlar borligini hisobga olib fikr-mulohazalar qilmagan ko'rinadi²⁶.

Oriylarning kelib chiqishini, umuman tosh davri bilan bog'lashlikning hech bir ilmiy asosi yo'q. Shuningdek, ularning kelib chiqishini qadimgi dehqonchilik mintaqalari bilan bog'lashlik ham asossiz. Afsuski, milliy ehtirolarga o'ta berilgan N. Ne'matov g'oyasi zaminida O'rta Osiyo xalqlari qadimgi tarixini faqat tojiklar bilan bog'lashlik yotadi. Uningcha, yer kurrasining yagona sivilizatsiya o'chog'i O'rta Osiyoku, uning aholisi esa tojiklar bo'lib, tojik xalqining ajdodlari dunyo bo'ylab madaniyat va sivilizatsiya tarqatgan. Bunday chiqish XX asrning 30-yillaridagi gitlerchilar Germaniyasini eslatmaydimi? Akademik N. Ne'matovning "yangi konsepsiya"si aslida sobiq Sho'rolar hokimiyatining dastlabki yillarida avj olgan "paniranizm"ning qo'pol ko'rinishi xolos. Bunda, O'rta Osiyoda qadimgi dehqonchilik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi jarayonlarini "tojik oriylari"ning kelib chiqishi va rivojlanishi bilan sun'iy ravishda bog'lashga urinilgan. Afsuski, bunday ilmiy asossiz chiqishlar, fandagi mavjud murakkab ilmiy muammolarni yechimini topishga emas, balki faqat ularni yanada chigallashtirishga olib keldi.

Tarixiy jarayonni xolisona va ob'ektiv yoritish, tarixiy voqea va hodisalarni to'g'ri tahlil etish ilmiylikka asoslangan haqiqiy mezondir. Sizga mushohada uchun tavsiya etilayotgan turli ilmiy konsensiyalar va turlicha qarashlarning tub mohiyatini bayonidan so'ng ta'kidlash joizki, tarix fanining asosiy ob'ekti-xalq, millatdir, uning yaratuvchilik faoliyatisiz tarixiy jarayon o'zining mazmun va ma'nosini yo'qotadi. Binobarin, tarix dolzarb va qiziqarli bo'ladiki, qachonkim u xalq bilan, uning kelib chiqishini haqqoniy yorita olsa; tarix xalqning rivojlanish jarayonini asosiy bosqichlarini ob'ektiv kuzata olsa; jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida xalqning

²⁶ Кузьмина Е.Е. Откуда пришли индоарии? Материальная культура племен андроновской общности и происхождение индоиранцев. Москва-1994; Аскарлов А. Арийская проблема: новые подходы и взгляды. Сб. «История Узбекистана в археологических и письменных источниках». Т.: 2005.

asl farzandlari (daholar, davlat arboblari, fan va madaniyatning ilgʻor vakillari)ning xizmatlarini toʻgʻri baholay olsa. Tarixni u yoki bu muammosi yechimi yoʻlida ishlab chiqilgan ilmiy konsepsiyalar nafaqat tarixiy jarayonni toʻgʻri yoritishga, balki muayyan mintaq xalqlari oʻrtasidagi aloqalarni mustahkamlashga, iqtisodiy va madaniy hamjihatlilikka xizmat qilmogʻi kerak.

4-MAVZU. TARIXSHUNOSLIK TAHLILI.

Tadqiqotchilar etnik jarayonlarni ikkiga ya'ni bo'linib ketishga va birlashishga moyil jarayolarga bo'ladilar. Bo'linib ketishga moyil jarayonlar ko'proq ko'chmanchi chorvador qabilalar hayotida ko'zga tashlanadi. Masalan, bir qabila ittifoqi yoki elatni ma'lum bir tarixiy sabablarga ko'ra, bo'linish jarayonlarini "xunn", "qang'ar", "turk", "ko'chmanchi dashti qipchoq o'zbeklari" misolida ko'rish mumkin, ya'ni o'z davrida elat bo'lib shakllangan bu ijtimoiy-siyosiy uyushmalar etnik jarayonlarning bo'linish tamoyiliga ko'ra, o'zlarining dastlabki etnos xolatlarini yo'qotadilar. Etnik jarayonlarning birlashish tamoyiliga ko'ra esa, keyinchalik parchalangan bu elat urug'larining ishtirokida yangi etnik birliklar vujudga keladi. Masalan, o'zbek, qirg'iz, qozoq, turkman, qoraqalpoq, uyg'ur va boshqalar.

O'zbek xalqi etnogenetik jarayonlarining jadal kechgan vaqt miloddan avvalgi III – milodiy V asrlar davomida Qang' davlati doirasida yuz berdi. Bu davrda turli tilli etnik guruhlarining bir-birlariga yaqinlashish, qo'shilish jarayonlari jadal kechdi. Etnik guruhlarining tashqi qiyofasi, tili, moddiy va ma'naviy madaniyatida yaqinlashish, fe'l-atvorida umumiylik hosil bo'ldi. Miloddan avvalgi II-milodiy I-II asrlarda Tangritog' shimoliy-sharqiy hududlaridan usunlarning katta guruhi, Xitoyning shimoliy-g'arbiy mintaqalaridan va janubiy Sibirda yashagan xu, di, dinlin, tele, xun va boshqa turkiy tilli ko'chmanchi etnoslarning katta guruhi Qang' davlati hududiga kelib o'rtnashadilar. Mana shu davrda yuz bergan etnogenetik jarayonlar, ya'ni Movarounnahr va unga tutash mintaqalarda ularning sug'diylar, xorazmiylar, bohtariy va Farg'ona va Chochning o'troq aholisi bilan qorishuvi natijasida turkiy tilli qang'ar elati shakllanadi. Bu etnos o'zbek elatining shakllanishiga asos solgan eng qadimgi yirik turkiy qatlamni tashkil etgan.

SHo'rolar davri ijtimoiy-gumanitar fanlari majmuasida etnos bilan etnografiya fani shug'ullanar edi. Rossiya etnografiya maktabining namoyondalari mashhur rus etnografi Mikluxo-Maklay g'oyalari yo'lidan borib, yer yuzidagi barcha etnoslar (xalqlar) o'rtasida jismoniy va aqliy farq yo'qligini, ular o'rtasidagi farq, faqat ularning tabiiy va ijtimoiy sharoitlari bilangina bog'liqdir, degan uning ilmiy xolislik asosida qurilgan g'oyasini rivojlantirdilar. Darhaqiqat, Mikluxa-Maklay Yangi

Gviniya papauslari va Okeaniya xalqlari ustida izlanishlar olib borib, ularning turmush tarzi, moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rganish orqali G'arb dunyosining irqchilik nazariyasiga qarshi ishonarli ma'lumotlar to'play olgan. Sovet davrida bu fan asosan tavsifiy xarakterga ega bo'lganligi uchun "etnografiya" deb yuritildi. Bu borada katta ishlar qilindi. Natijada, ilmiy avtohtonizm nazariyasi g'oyalari yo'nalishida sho'rolar davri etnografiyasida etnogenez va etnos masalalariga ilmiy -metodologik yondashuv asosida tadqiqotlar olib borilib, tadqiqot obyektidan kelib chiqqan holda, turli qarashlar va ilmiy maktablar shakllandi.

Masalan, akademik Y.V. Bromleyning dualistik konsepsiyasi, N.N. Cheboksarov va S.A. Arutyanyovning etnos bilan bog'liq infarmatsion konsepsiyasi, G.YE. Markov va V.V. Pimenovning tizimli-statistik yoki komponentli nazariyasi, yoki SHO'rolar davrida ma'lum ma'noda cheklangan taniqli turkshunos olim L.N. Gumilevning "passionar nazariyasi" va boshqalar. Chunki, Sobiq Sovet davrida bu fan siyosiy buyurtmalar bajarib, ayniqsa, etnik rivojlanishning barcha jarayonlarini yoritib bera olgan emas. Masalan, etnik ong, etnik o'zlikni anglash, etnomadaniyat va etnomadaniy qadriyatlar, etnoslararo jarayonlar, etnoslararo munosabatlarning tub mohiyatini ochib berish kabi etnosning asosiy muammolarini tadqiq qilishda ma'lum ma'noda cheklangan edi.

Mutaxassis olimlar orasida etnosga ta'rif berishda har xillik mavjud edi. Masalan, etnos bu-kelib chiqishi bir bo'lgan kishilar (jamoalar) guruhi; etnos bu-umumiy til asosida shakllangan madaniyat samarasi; etnos bu-bir-birlariga o'xshagan kishilar guruhi; etnos bu-o'zlikni anglash xissi qaynab toshgan odamlar guruhi; etnos bu-tabiatning samarasi; etnos bu-ijtimoiy kategoriya yoki jamiyatning ijtimoiy hosilasi va boshqalar.

Mashhur turkshunos olim L.N. Gumilev bu masalada o'zining alohida pozitsiyasiga ega edi. U etnos masalasidagi o'z qarashini o'zining "passionar nazariyasi" orqali bayon etgan. U etnosga faqat jamiyatning ijtimoiy hosilasi sifatida emas, balki biosferaning noyob, kamdan-kam uchraydigan natijasi sifatida qaraydi. Uningcha, etnos bu tabiatning, geografik muhitning ijtimoiy hosilasi, etnos shakllanishi bilan bog'liq etnogenetik jarayonlar esa o'z navbatida ijtimoiy-tabiiy aspektga ega. Shu bilan birga, etnos bu oddiy tushuncha bo'lib, u na ijtimoiy, na

biologiya kategoriyasiga kiradi. Etnos bu-tarixiy-geografik faktlarning empirik umumlashmasi. Aniqrog'i, L.N. Gumilev qarashlariga ko'ra, etnos ijtimoiy emas, balki bio-geografik hosiladir. Etnos biosferaning tarkibiy qismi bo'lgani bois, undagi qonuniyatlarga bo'ysunadi. Etnos bu ijtimoiy o'ramdagi real borliq, tarixiy ketma-ketlikda davom etuvchi etnogenetik jarayonlar natijasi, ularni harakatga soluvchi kuch, manba harakatchan, omilkor passionarlardir. Bu mutatsion jarayonlar ildizi Yerning biosfera hodisasi bilan bog'liq.

L.N. Gumilevning passionarlik konsepsiyasi asosida odam tabiatiga xos har xil harakatlar, olg'a intilishlar, erishgan yutuq, boylik va mansabdan qoniqmaslik nafs, o'z hukmini boshqalarga o'tkazishga intilish, bu yo'ldan qaytmaslik, qoniqmaslik va boshqalar yotadi. Turkshunos L.N. Gumilevning fikricha, mana shu yo'ldagi harakatlar, energiya, etnosni paydo bo'lishiga, shakllanishiga olib keladi. Boshqacha qilib aytganda, maqsad sari omilkorlik bilan olg'a intilish-passionarlikdir.

Passionarlik bu inson psixikasiga xos biologik holat, belgi, odamlarning tinchgina, befarq yashash holatini buzishga olib keluvchi dastlabki harakat, yangi avlodni paydo bo'lishining garovidir.

Odamzod o'zining mavjudligi bilan tabiiy holatni doimo buzishga intiladi, aks holda uning maqsadga erishish yo'lida tinch va osoyishta yashashi mumkin emas. Atrof muhit bilan kurash tufayli odamlar birlashishga majbur bo'ladilar. Bu kurashlar tepasida passionarlarni (urug', qabila sardorlarining) bosh-qosh bo'lishlari tabiiydir. Aks holda el, elat, xalq, millat o'z-o'zidan shakllanmaydi, degan to'g'ri xulosaga keladi L.N.Gumilev. Demak, etnos tabiiy, tinch rivojlanish oqibati ham emas, balki ijtimoiy madaniy jarayonlar faol rivojining hosilasidir.

Inson biologik mavjudot, tabiatning bir qismi. Kishilik jamiyatining evolyusion taraqqiyot natijasi. Inson ijtimoiy va geografik omillarning ta'siri tufayli muayyan guruhlar va jamoalarga bo'linadi. Mana shunday jamoalardan biri etnosdir. Demak, etnos-tabiiy-tarixiy jarayonlar natijasida tarkib topgan kishilar guruhidir.

Masalan, akademik Y.V. Bromleyning dualistik konsepsiyasi,

Etnos masalasida sobiq Sovet davri nazariyachilaridan ayniqsa, akademik Y.V. Bromleyning fikrlari e'tiborga loyiqdir. U 1973 yilda "Etnos va etnografiya" (Etnos i etnografiya), 1987 yilda "Etnosotsial jarayonlar: nazariya, tarix, hozirgi zamon"

(Etnosotsialniye protsessi: teoriya, istoriya, sovremennost), 1983 yilda «Etnos nazariyasining ocherklari (Ocherki teorii etnosa) nomli asarlarida etnos nazariyasiga oid mavjud qarashlarning ilmiy tahlilini bergan va Natijada, nazariy etnografiyada “bromley konsepsiyasi” yoki “etnosning dualistik nazariyasi” deb ataluvchi konsepsiya paydo bo‘ldi. Uning fikricha, etnos aniq bir hudud, til, kelib chiqish, madaniyat umumiyligi, o‘z-o‘zini etnik anglash va o‘z etnik nomi (etnonimi) ga hamda o‘ziga xos turmush tarziga ega bo‘lgan kishilar guruhidir. Y.V. Bromley tasavvurida etnos tushunchasini bir vaqtni o‘zida keng va tor ma’noda tushunish mumkin. Tor ma’nodagi etnos tushunchasini u “etnikos” deb ataydi, keng ma’nodagi etnos tushunchasini esa “etnoijtimoiy tuzilma” deb atashni taklif qiladi.

Y.V. Bromley nazariyasiga ko‘ra, “etnikos” o‘ziga xos barqaror madaniyat, til birligi, psixika hamda etnik o‘z-o‘zini anglash va etnik nomga ega bo‘lgan kishilarning tarixan tarkib topgan guruhidir. Keng ma’nodagi etnosga yoki “etnoijtimoiy tuzilma”ga nafaqat hududiy-siyosiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy umumiylik ham kiradi. Masalan, o‘zbek xalqi misolida oladigan bo‘lsak, ushbu nazariyaga ko‘ra, butun yer sharida yashovchi o‘zbeklar etnikos bo‘lsa, O‘zbekistonda yashovchi o‘zbeklar etnoijtimoiy organizmdir.

Etnos tarixining muhim bosqichlaridan biri, uning shakllanish jarayoni, ya’ni etnogenezidir. Agar etnos shakllanishi nihoyasiga yetgan bo‘lsa, undan keyin, unga qo‘shilgan etnik komponentlar etnos tarkibini o‘zgartirib yubora olmaydi, balki uning tarkibida etnografik guruh sifatida uzoq vaqtlar yashab, ma’lum bir tarixiy voqelik ta’siridan so‘ng etnos tarkibiga singib ketadi.

Etnosning muhim alomatlaridan biri uning tilidir. Til ko‘pincha xalq etnogenezining yakuniy bosqichi hisoblanadi. Masalan, o‘zbek xalqining uzil-kesil shakllanishida til o‘zbek etnogenezining yakuniy omili bo‘ldi. Akademik K. Shoniyozov, o‘zbek etnogenezi va etnik tarixiga doir asarlarida o‘zbek xalqining shakllanishi IX-X asrlarda yuz berdi deb yozadi, ya’ni hozirgi O‘zbekiston hududlaridan sharqda Qoraxoniylar davlatining tarkib topishi bilan (IX-X asrlarda), o‘zbek elati xalq sifatida shakllandi, deydi. Ammo, u asrlarda Qoraxoniylarning davlat tili umum turk tili edi, uning tarkibidan hali qarluq va chigil til lahjalari asosida shakllangan eski o‘zbek tili ajrab chiqmagan edi. Qachonkim, XI asrning o‘rtalarida

Qoraxoniylar davlati ikkiga bo'lingach, uning g'arbiy viloyatlari doirasida, Movarounnahr va Xorazm, ularga yaqin tevarak-atrofda qarluq va chigil til lahjalarining o'lib borayotgan sug'diy, xorazmiy, boxtariy tillari hamda bu yerga kirib kelgan fors va arab tillari bilan qorishuvi asosida asta-sekin eski o'zbek tili rivojlanib, umum turk tilidan XII asrda ajrab chiqdi.

Shuni ham unitmaslik kerakki, turli etnoslar bir tilda so'zlashishlari ham mumkin. Masalan inglizlar, avstraliyaliklar bir tilda-ingliz tilida so'zlashadilar. Shuningdek, bu tilda AQSH aholisi, kanadaliklarning katta qismi, Yamayka oroli, Yangi Zelandiyaliklar, irlandlar, Markaziy Amerika aholisi so'zlashadilar. To'g'ri, ingliz tilining bunchalar keng yoyilishi kapitalizmning mustamlakachilik siyosatini samarasi bo'lib, ayni vaqtda ular emigrant mamlakatlar bo'lsalarda, amalda turli etnoslar hisoblanadilar. Demak, etnosning shakllanishida til hamma vaqt ham hal qiluvchi alomat bo'la olmasligi mumkin ekan. Etnosga xos alomatlar sirasiga moddiy va ma'naviy madaniyat, milliy etnik alomatlar: urf-odatlar, marosimlar, xalq san'ati, axloq-odab meyorlari, etnomadaniy qadriyatlar ham kiradi.

Etnos shakllanishining eng muhim alomatlaridan biri mazkur etnosga mansublikni idrok etish, ya'ni etnik o'zlikni anglash xissidir. Etnik o'zlikni anglash xissi mazkur xalqqa tegishli fuqarolar tomonidan o'zlarining kelib chiqish tarixi va tarixiy taqdirLARining umumiyLigi asosida shakllanadi. Fanda shakllangan mana shu qarashlar asosida etnos nazariyalari shakllandi, joylarda mahalliy sharoitlar hisobga olinib, ular yangidan-yangi materiallar, qarashlar asosida rivojlantirildi.

Fanda mavjud ilmiy qarashlar majmuasida milliy avtoxtonizm g'oyasi o'zining ilmiyligi va obyektivligi bilan tarix fanida o'z o'rnini egalladi. Ushbu konsepsiya asosida, ayniqsa, o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi muammolarini o'rganishda akademik K. Shoniyozovning xizmatlari alohida tahsinga sazovordir. U o'zining qariyb yarim asrlik ilmiy faoliyati davomida Markaziy Osiyo mintaqasida yashovchi o'zbek va boshqa qardosh xalqlar etnogenezi va etnik tarixini izchil o'rgandi, qator ilmiy maqolalar va bir necha yirik monografiyalar yaratdi. Uning "O'zbek qarluqlari" (1964 y.), "O'zbek xalqining etnik tarixiga oid" (1974 y.), "O'zbek xalqining moddiy madaniyatidan etnografik lavhalar" (1981 y.), "Qang' davlati va qang'lilar" (1990 y.),

“O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni” (2001 y.) kabi asarlari fundamental ilmiy asosga ega.

Afsuski, keyingi yillarda O‘rta Osiyo xalqlarining etnogenezi va etnik tarixini o‘rganishda yana ilmiy tafakkurga yot “paniranizm” g‘oyasi jonlanib, mintaqada milliy nizolarga olib keluvchi harakatlar qilinmoqda. “Paneronizm” g‘oyasi tarafdorlarining ta’kidlashicha, milliy avtohtonizm nazariyasi sobiq sovet davri ijtimoiy-gumanitar fanlarining siyosiy o‘yini edi, aslida O‘rta Osiyo mintaqasi eroniy tilli xalqlar vatani, o‘zbek turklari bu yurtlarni zo‘rlilik bilan bosib olib, uning tub joyli xalqi-tojiklarning tog‘u-toshlarga siqib chiqardi, mazmunida asarlar yozib, chop etmoqdalar.

Masalan, Tojikiston FAsi akademigi, tarixnavis R. Masov A.Y. Vishnevskiyning 1988 yilda Dushanbeda rotoprintda chop etilgan “Yeshyo raz k voprosu ob istorii natsionalno-territorialnogo razmejevaniya» risolasiga asoslanib, 1991 yilda «Istoriya topornogo razdeleniya», 1995 yilda esa «Tadjiki: istoriya pod grifom “sovershenno sekretno” nomlari ostida, 2003 yilda esa “Tadjiki: vitesneniye i assimilyatsiya» kabi paneronistik ruhda monografiyalar chop etdi.

Markaziy Osiyo sharoitida, ayniqsa, uning g‘arbiy qismi - Turkistonda yuz bergan murakkab etnogenetik jarayonlarni hisobga olmay, bunday chiqishlarga g‘oyaviy ozuqa beruvchi kuchlar ham fanda yo‘q emas. Masalan, AQShdagi Indiana universitetining professori Y. Bregel va uning ba’zi bir izdoshlari (A.Y. Vishnevskiy, N. Ne‘matov, Y. Yakubov, S. Polyakov, S.N. Petrova va boshqalar) chiqishlarida “Hinduovro‘pa” nazariyasi asosida paneronistik qarashlarga bo‘lgan hayrixohlik hamon ko‘zga tashlanadi .

Tojikiston Respublikasi rahbariyati nomidan «Tojiklar tarix oynasida: oriylardan Somoniylargacha» (“Tadjiki v zerkale istorii: ot ariysev do Samanidov») asarini chop etilishi, uning ketidan Tojikiston Respublikasining Prezidenti E. Raxmanov tomonidan 2006 yilni «Oriylar sivilizatsiyasi yili» (“Godom ariyskoy sivilizatsii”) deb e‘lon qilinishi paneronistik chiqishlarga yanada kengroq yo‘l ochdi.

Masalan, Tojikiston Respublikasi FA akademigi, taniqli arxeolog olim N. Ne‘matov o‘zining o‘ta eronparast hamfikrlaridan ham oshib tushdi, ya’ni “paneronizm” nazariyasining asosini tashkil etgan “oriylarning ilk vatani O‘rta Osiyo, uning tub joyli aholisi esa tojiklarning o‘zginasidir”, deb ilmiy jamoatchilikni

ishontirmoqchi bo‘lmoqda. U «Ariana xalqi mamlakati inqilobiy makrotsivilizatsiyasining 8 ming yilligi» (“Permanentnoy makrotsivilizatsii strani naroda Ariani 8000 let») maqolasida oriylarning kelib chiqish tarixini o‘zicha davrlashtiradi. Uningcha, oriylarning paydo bo‘lishi qadimgi tosh davrini yuqori paleolit bosqichiga to‘g‘ri keladi. Bu davrni u «oriy ibtidosi» (“ariyskoy arxaiki”) deb atab, aynan shu davrda tojik oriylari tarixi boshlangan, ya’ni “oriylar erasi boshlandi”, deydi. «Tojik oriylari tarixining ikkinchi bosqichi esa, mezolit va neolit davrining boshlariga (mil.avv. XII-VI ming yilliklar) to‘g‘ri keladi. Bu davrda o‘simliklar va hayvonot dunyosining ibtidoiy-intuitiv seleksiyalanishi yuz beradi, hayvonlarni xonakilashtirish, ibtidoiy dehqonchilik xo‘jaligining paydo bo‘lishi, oriylar seleksiyasi, ya’ni umum ovom orasidan oriylarning ajrab chiqishi sodir bo‘ladi. Bu davrning “Neolit inqilobi” deb atalmish bosqichida yangi tarixiy davr, sivilizatsiya ixtirolari, ya’ni yangidan-yangi xo‘jalik kashfiyotlari davri boshlanadi: tosh qurollarini silliqlash va teshish, kulolchilik, to‘qimachilik, loydan uy yasash va boshqalar kashf etiladi. Ibtidoiy urug‘ jamoalarining birlashtirishga, ularni o‘zlashtiruvchi xo‘jalikdan ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka o‘tishida bosh-qosh bo‘lgan oriy jamoalarining sivilizatsiyasi “neolit inqilobi” bilan yakunlanadi», deb yozadi.

Muhtaram akademik N. Ne‘matovning ta’biri bilan aytganda, miloddan avvalgi VI-IV ming yilliklarda insoniyat tarixida oriylarning “O‘rta Osiyo Oriyonasi” ya’ni “Qadimgi Oriyona” - oriy xalqlarining ilk vatani shakllanadi. Shundan boshlab, Oriyona sivilizatsiyasining ikkinchi davri boshlanadi, uning xronologik sanasi miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda sug‘orma dehqonchilik, aholining o‘troq turmush tarzi tarkib topadi, vohalarning, qadimgi shaharlar, ijtimoiy-boshqaruv markazlari vujudga keladi, boshqali o‘simliklar yangi navlarining seleksiyasi, tog‘ sanoati, misdan mehnat qurollari yasash paydo bo‘ladi. Bu davrning so‘nggi bosqichida oriylarning ilk va azaliy vatanidan Yevroosiyo mintaqalariga migratsiyasi (yoyilishi) boshlanadi. Oriylarning yangi guruhlar Shimoliy Hindistonga, Afg‘oniston va Eronga, Janubiy Kaspiy bo‘ylari, Janubiy Kavkaz va Kichik Osiyoga, Dardanel bo‘g‘ozi orqali Frakiya va Egay dengizining havzalariga yoyilishi kuzatiladi. Oriylar muammosining “yangi nazariyotchisi”

oriylarning kelib chiqishi va ularning ilk vatani haqida ilmiy manbalarga asoslangan ko‘plab ilmiy asarlar borligini hisobga olib fikr-mulohazalar qilmagan ko‘rinadi .

Oriylarning kelib chiqishini, umuman tosh davri bilan bog‘lashlikning hech bir ilmiy asosi yo‘q. Shuningdek, ularning kelib chiqishini qadimgi dehqonchilik mintaqalari bilan bog‘lashlik ham asossiz. Afsuski, milliy ehtirolarga o‘ta berilgan N. Ne‘matov g‘oyasi zaminida O‘rta Osiyo xalqlari qadimgi tarixini faqat tojiklar bilan bog‘lashlik yotadi. Uningcha, yer kurrasining yagona sivilizatsiya o‘chog‘i O‘rta Osiyoku, uning aholisi esa tojiklar bo‘lib, tojik xalqining ajdodlari dunyo bo‘ylab madaniyat va sivilizatsiya tarqatgan. Bunday chiqish XX asrning 30-yillaridagi gitlerchilar Germaniyasini eslatmaydimi?

Akademik N. Ne‘matovning “yangi konsepsiya”si aslida sobiq SHo‘rolar hokimiyatining dastlabki yillarida avj olgan “paniranizm”ning qo‘pol ko‘rinishi xolos. Bunda, O‘rta Osiyoda qadimgi dehqonchilik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi jarayonlarini “tojik oriylari”ning kelib chiqishi va rivojlanishi bilan sun‘iy ravishda bog‘lashga urinilgan. Afsuski, bunday ilmiy asossiz chiqishlar, fandagi mavjud murakkab ilmiy muammolarni yechimini topishga emas, balki faqat ularni yanada chigallashtirishga olib keldi.

Tarixiy jarayonni xolisona va obyektiv yoritish, tarixiy voqea va hodisalarni to‘g‘ri tahlil etish ilmiylikka asoslangan haqiqiy mezondir. Sizga mushohada uchun tavsiya etilayotgan turli ilmiy konsensiyalar va turlicha qarashlarning tub mohiyatini bayonidan so‘ng ta’kidlash joizki, tarix fanining asosiy obyekti-xalq, millatdir, uning yaratuvchilik faoliyatisiz tarixiy jarayon o‘zining mazmun va ma’nosini yo‘qotadi. Binobarin, tarix dolzarb va qiziqarli bo‘ladiki, qachonkim u xalq bilan, uning kelib chiqishini haqqoniy yorita olsa; tarix xalqning rivojlanish jarayonini asosiy bosqichlarini obyektiv kuzata olsa; jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida xalqning asl farzandlari (daholar, davlat arboblari, fan va madaniyatning ilg‘or vakillari)ning xizmatlarini to‘g‘ri baholay olsa. Tarixni u yoki bu muammosi yechimi yo‘lida ishlab chiqilgan ilmiy konsepsiyalar nafaqat tarixiy jarayonni to‘g‘ri yoritishga, balki muayyan mintaq xalqlari o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga, iqtisodiy va madaniy hamjihatlilikka xizmat qilmog‘i kerak.

2.O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi aks etgan ilmiy adabiyotlar tahlili.

O'zbek xalqining kelib chiqishi haqida turli xil talqin va tasavvurda juda ko'p maqolalar chop etilgan. Ammo, u haqda to'laqonli chuqur ilmiy tadqiqotlar va ular haqida yozilgan fundamental asarlar ko'p emas.

Bu asarlarda o'zbek xalqining kelib chiqishi haqida uch xil yondashuv mavjud. Ularning birinchisida o'zbek etnosi qadimdan shu zaminda yashab kelgan turkiy qabila va elatlardan tarkib topgan. Bu zaminning mahalliy sug'diy va xorazmiy, bohtariy hamda sak-massaget qabilalari ham qadimdan turkiy tilda so'zlashuvchi elatlar bo'lgan, degan ruhiyatda yozilgan asarlar. Ikkinchisi, o'zbeklar bu zaminga so'nggi o'rta asrlarda kirib kelgan Shayboniy o'zbeklaridan tarkib topgan, degan mazmunda yozilgan asarlar. Uchunchisi, XX asrning 40 yillari boshlarida akademik A.Y.Yaqubovskiy tomonidan ishlab chiqilgan milliy avtohtonizm konsepsiyasi asosida yozilgan asarlardir.

Birinchi qarash qalamkashlarining asarlari ko'proq so'nggi o'rta asrlar davrida yozilgan, tarixiy dalillar va diniy mifologik qarashlarning qorishuvida bitilgan asrlarga asoslanadi. Sobiq sovet hokimiyatining dastlabki yillarida ularga zidli o'laroq, ikkinchi qarash ruhiyatida yozilgan asarlar paydo bo'ldiki, bu qarash tarafdorlari O'rta Osiyoning tub joyli aholisi qadimdan eroniy tillarda so'zlashgan. Turkiy etnos vakillari esa, bu zaminga XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida Dashti Qipchoqdan Shayboniyxon bilan birga kirib kelgan. Shuning uchun o'zbeklar "kelgindi" bo'lib, mahalliy tub joyli xalq sug'diylar, bohtariy va xorazmiylar, margush va parfiyonaliklar ham tojiklarning ajdodidir, deyilar.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida ular o'rtasida kelib chiqishi mumkin ziddiyatlarni oldini olish g'oyaviy quroli sifatida yana bir qarash paydo bo'ldiki, u Markaziy Osiyo mafkura olamida "panislomizm" nomini oldi.

Sobiq sovet davri tarixshunosligida ularning birinchisiga salbiy ma'noda "panturkizm", ikkinchisiga esa "paneronizm" tamg'asi bosildi. "Panislomizm" g'oyasiga qarshi ateistik "urush" e'lon qilinib, olimlar oldiga SSSR tarkibiga kirgan har bir elat va xalqlarning kelib chiqishi haqida millatlararo tinchlik va o'zaro do'stlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat etuvchi ilmiy asosli konsepsiya ishlab chiqish topshirildi.

O'rta Osiyo xalqlarining, xususan o'zbek xalqining kelib chiqishi haqida ana shunday konsepsiyani ishlab chiqish sharqshunos-arxeologlar, etnografik-elshunoslar zimmasiga tushdi. Bu masalada birinchi bo'lib, o'zining chuqur ilmiy asosli g'oyasi bilan chiqqan taniqli sharqshunos-arxeolog olim A.Y. Yakubovskiy bo'lib, u S.P.Tolstov, L.V.Oshanin, Y.G'.G'ulomov kabi qator sharqshunos, arxeolog, etnograf va etnologlar bilan birgalikda milliy avtohtonizm konsepsiyasini ko'tarib chiqdilar. Bu konsepsiya g'oyalari asosida panturkistik, paneronistik va panislomistik qarashlarga qattiq zarba berildi.

A.Y.Yakubovskiy Dashti Qipchoqning 92 bo'li saxroi o'zbeklari Shayboniyxon boshliq O'rta Osiyoga kirib kelganlarida, bu zaminda qadimdan yashab kelayotgan turkiy aholini uchratadilar, deb paneronistlarning nohaqligini fosh etsa, bu turg'un turkiy aholi O'rta Osiyoning ikki azim daryolari (Amudaryo va Sirdaryo) oralig'ida eng qadimdan boshlab yashab kelayotgan eroniy tilli xalqlar bilan aralashib, qorishish natijasida Qoraxoniylar davriga kelganda bu qorishmadan yangi etnos, ya'ni o'zbek xalqi shakllandi, degan ilmiy konsepsiya ishlab chiqildi. Dashti Qipchoqdan bu zamanga ko'chib kelgan ko'chmanchi qabilalar esa, ularning kelishidan 5 asr oldin shakllangan yangi etnos tarkibiga qo'shilgan komponentlar bo'lib, tarix taqazosiga ko'ra, ular o'zbek xalqiga o'z nomini bergan xolos, degan xulosalari bilan panturkistlarni mintaqadagi etnosiyosiy vaziyatni ilmiy tahlil eta olmaslikda aybladi.

Biz yuqorida etnos va uning omillari, etnos haqida mavjud qarashlar haqida so'z yuritganda, bular to'g'risida kitobxonlarga keng ko'lamli ma'lumotlar berib o'tdik. Endilikda, ushbu bobda, ana shu qarashlar asosida yozilgan ayrim maqolalar va asarlar haqida kitobxonlarga tegishli ma'lumotlar berish ko'zda tutilgan.

Sobiq sovet davri tarixshunosligida o'tgan asrning 40 yillari boshlarida A.Y.Yakubovskiy tomonidan ishlab chiqilgan milliy avtohtonizm nazariyasining g'oyaviy yo'nalishi fundamental asarlarda, masalan, 1950 yilda ilk bor chop etilgan "O'zbekiston xalqlari tarixi" kitobining 1-jildiga A.Y.Yakubovskiyning so'zboshisida, 1955 yilda chop etilgan «O'zbekiston SSR tarixi» kitobida maxsus bandda o'z aksini topgan. Mana shu konsepsiya ruhida 1962 yilda chop etilgan "Jahon xalqlari" tarixining "O'rta Osiyo va Qozoqiston xalqlari"ni kelib chiqishiga bag'ishlangan seriyasi chop etildi. Aynan mana shu konsepsiya asosida 1967 yilda ko'p jildli

“O‘zbekiston SSR tarixi” kitobi nashr etildi . Ammo, 1974 yilda rus tilida nashr etilgan bir jildlik “O‘zbekiston tarixi»da “o‘zbek xalqining shakllangan vaqtini X asr bilan belgilandi.

Taniqli elshunos akademik K.Shoniyozovning nuqtai nazariga ko‘ra, o‘zbek xalqi elat bo‘lib oldinroq, ya’ni IX-X asrlarda shakllangan . Ammo, bu fikr o‘zbek xalqi hozirda egallab turgan hududlar bilan bog‘liq emas. Shu bois, u etnologiya fanining ilmiy metodologik talablariga to‘liq javob bermaydi. Chunki, o‘zbek elatining o‘zagi IX-X asrlarda hozirgi O‘zbekiston sarhadlaridan tashqarida, Yettisuv va Sharqiy Turkiston hududlarida tarkib topgan edi. Bu haqda keyinroq so‘z boradi.

B.G‘.G‘afurov 1949 yilda chop etilgan “Tojik xalqining tarixi” nomli asarida O‘zbek xalqining kelib chiqishi masalasiga maxsus to‘xtalib, “turkiy tilli qabila va elatlarning O‘rta Osiyo hududlariga kirib kelishi VI asrdan yanada kuchaydi. Bu jarayon turkiy tilli qabilalarning O‘rta Osiyo tub joyli aholisi bilan yaqinlashishiga olib keldi. Turklar sug‘diylar bilan birgalikda tashqi dushmanga qarshi kurashdilar.

Uzoq davom etgan asrlar ichra, birinchi navbatda, chorvador turklarning kambag‘al qatlami o‘troq hayotga o‘tib, dehqonchilik qila boshlaydilar. Ularning sug‘diylar va xorazmiylar, sak-massaget qabilalari bilan aralashishi kuchayadi, natijada turkiy tilda so‘zlashuvchi aholi mintaqada ko‘paydi. Mana shu asosda o‘zbek xalqi va O‘rta Osiyoning boshqa xalqlari kabi qadimgi ajdodlarning madaniy merosidan bahra olib shakllana boshladi.

O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni XI asrda yanada jadallashdi. Bu O‘rta Osiyoning shimolidan uning janubiy hududlariga turkiy qabilalarning katta to‘lqinda erkin kirib kelishi, shahar madaniyatining rivojlanishi bilan bog‘liq edi. Aynan mana shu davrda O‘rta Osiyoda, uning asosiy aholisi sifatida turk va tojik etnik birliklar keng yoyildi.

Somoniylar davrida O‘rta Osiyoning Farg‘ona, Xorazm, Choch va boshqa o‘troq dehqonchilik hududlarida turkiy tilli aholi yanada ko‘pchilikni tashkil etardi. Har qalay, Somoniylar davrida shaharlar va o‘troq dehqonchilik hududlarida tojiklar deyarli ko‘pchilikni tashkil etsada, ammo Qoraxoniylar davrida turk chorvadorlarining o‘troqlashish va mahalliy tub joyli aholining turkiylashish hisobiga O‘rta Osiyoda turkiy aholi ko‘pchilikni tashkil etdi. Bu davrda turk aslzodalari bilan

azaliy tojik feodal aristokratiyasi o'rtasida yaqinlashish jarayoni kechadi, mehnatkash xalq ommasi esa, ularning zulmiga qarshi kurashda, ayniqsa, ikki xalq (o'zbek va tojik xalqlari ajdodlari) o'rtasida o'zaro do'stlik va hamkorlik an'analari mustahkamlanib borgan".

B.G'.G'afurov qalamiga mansub mana shu o'zbek xalqining kelib chiqishiga doir ilmiy tezis, uning "Tojik xalqining tarixi" kitobini ikkinchi va uchinchi nashrlarida ham hech bir o'zgarishsiz takrorlanadi.

1963-1964 yillarda "Tojik xalqining tarixi"ni ko'p jildli nashri chop etildi. Uning II-tom 1-kitobida "Tojik xalqining shakllanishi" nomli bandining oxirida B.G'.G'afurovning milliy avtohtonizm nazariyasi asosida qurilgan o'zbek xalqining etnogenezi haqidagi konsepsiyasidan bir necha satrlar keltiriladi.

1972 yilda akademik B.G'.G'afurovning "Tadjiki" (drevneyshaya, drevnyaya i srednevekovaya istoriya) nomli asari Moskvada chop etildi. Asarda keltirilgan birlamchi yozma va moddiy madaniyat manbalarining qamroviga ko'ra, B.G'.G'afurovning ushbu asari fundamental xarakterga ega. Biroq, ularning tojiklar tarixi nomi ostida bayon etilishi ilmiy va metodologik jihatdan mutlaqo xato va g'arazgo'ylik xarakter kasb etar edi. Shuning uchun o'z davrida O'rta Osiyo olimlari orasida bu kitob noroziliklarga sabab bo'lgan.

Shunga qaramay, hatto ushbu yirik monografik asarda «O'zbek xalqining etnogenezi muammolari» nomi ostida alohida band ajratilgan. Ushbu bandda o'zbek etnogenezi masalalariga bir muncha kengroq to'xtalgan. Muallif o'zbek etnogenezi muammosi ilk bor sovet tarixshunosligida ko'tarilgani, ungacha rus va xorijiy adabiyotlarda o'zbek xalqining tarixi XV-XVI asrlarda "o'zbek" nomi ostida O'rta Osiyoga bostirib kelgan ko'chmanchi qabilalar bilan bog'lanib kelinganligini ta'kidlaydi. Bu masalaga yangicha yondashuv asosida aniqlik kiritgan olim A.Y.Yakubovskiy ekanligini aytib, u bosqinchi dasht o'zbeklarini Movarounnahrning tub joyli turkiy aholisiga aralashib, faqat unga keyinchalik "o'zbek" nomini berganligi haqidagi xulosasiga qo'shilganligini aytib o'tadi. B.G'.G'afurov o'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi haqida o'zining "Tojik xalqining tarixi" kitobini birinchi (1949), ikkinchi (1952) va uchinchi (1955) nashrlarida keltirilgan fikr-mulohazalarini to'liq takrorlaydi. "Bizning konsepsiyaga ko'ra, deydi B.G'afurov: "o'zbeklar va

tojiklar O'rta Osiyoning boshqa xalqlari qatorida bu zaminga tegishli barcha qadimgi davr tarixi va madaniyatining vorislaridir. O'zbek xalqining XI asrga kelib elat sifatida shakllanishida qadimgi eroniy tilli qabila va elatlarning roli katta, shuningdek, o'zbek xalqi nafaqat O'rta Osiyoning so'nggi 4 asrlik tarixida (XVI-XX asr boshlari - A.A.), balki ungacha bo'lgan barcha davrlar tarixini yaratishda teng huquqli qatnashchisi hisoblanadi". Yuqorida bayon etilgan akademik B.G'.G'afurov qarashlaridan ma'lumki, tojiklarning B.G'.G'afurovdek taniqli olimlari O'rta Osiyo xalqlarining, xususan, o'zbek xalqining kelib chiqishi masalasida to'g'ri qarashda bo'lganlar.

Shunday qilib, aytish mumkinki, O'rta Osiyo, xususan, o'zbek xalqining etnogenezi masalasida sobiq sovet davri rasmiy tarixshunosligida milliy avtohtonizm konsepsiyasi ruhiyatida ilmiy izlanishlar olib borildi, bu konsepsiya "panturkizm", "paneronizm" "panislomizm"ga qarshi sobiq tuzim mafkurasining kuchli siyosiy himoyasida bo'ldi.

Milliy avtohtonizm konsepsiyasi yo'nalishida yozilgan fundamental xarakterdagi asarlar sirasiga prof. M.G'.Vahobovning 1960 yilda Toshkentda chop etilgan "O'zbek sotsialistik millati" nomli kitobini ham kiritish mumkin.

Asarning "Muqaddima"sida muallif qisqa qilib o'z konsepsiyasini bayon etgan. Kitob nomidan kelib chiqqan holda, o'z oldiga, birinchi galda, asosiy vazifasi qilib, o'zbeklarni millat sifatida shakllanish jarayonining kuzatishni maqsad qilganini ta'kidlaydi.

Shuningdek, o'zbek millatining etnik tarkibi, etnik xususiyatlari: tili, etnomadaniyati, etnografik qiyofasi haqida kitobxonga tegishli ma'lumotlar bermasdan masalani hal qilib bo'lmasligini qayd qiladi. Shu bois, asar "Muqaddima"sida etnik tarixning uch bosqichga (etnogenez, etnik tarix va millat tarixi) bo'linishini e'tirof etadi.

Ammo, muallif sotsialistik jamiyatda SSSR xalqlarining milliy belgilari bartaraf bo'ladi, millat, elat va etnik guruh tushunchasi yo'qoladi, degan tezisni olg'a suradi. Bu markscha-lenincha ta'limotning milliy etnoslar haqidagi asosiy g'oyasi bo'lib, ushbu asar obyektiv etnik jarayonlarni ilmiy tahlili asosida emas, balki o'z zamonasining mafkurasi ruhida yozilgan tadqiqotligi bilan ajralib turadi.

Muallif etnogenez, etnik atamalariga hamohang atamalar tanlashda qiyinchiliklar bo'lganini ta'kidlab, etnik tarixning etnogenez bosqichiga urug'-qabila atamalari, millatgacha davr jamoasini el, elat atamasiga monand tushishini aytib, uni (elatni) feodal jamiyatining ijtimoiy mahsuli ekanini qayd qiladi. Millatning takomillashishi Sotsialistik tuzim sharoitida yuz berdi, degan xulosaga keladi.

Muallif millatning shakllanish davrini olimlar turlicha talqin etishlarini qayd qilib, birlari millat 1917 yil Oktabr g'alabasi bilan tarkib topdi desa, ikkinchilari 1922 yilda SSSR tashkil topishi bilan, uchinchilari 1929 yilda, ya'ni "buyuk burilish yili"da yuz berdi, deyдилar.

Ammo, bizning fikrimizcha, deydi muallif, "sotsialistik tuzum to'la g'alaba qozonishi bilan etnik guruhlar, sotsialistik elat sotsialistik millatga aylandi. Shu jumladan, o'zbeklar ham sotsialistik millat bo'lib uyushdi. Demak, 1935-1940 yillar mobaynidagi davrda o'zbeklarning sotsialistik millat bo'lib uyushishi tugallandi " degan xulosaga keladi.

Muallifning o'zbek etnogenezi masalasidagi qarashi (nuqtai nazari) panturkistik, paneronistik va panislomistik qarashlardan farqli o'laroq, ilmiy asosga ega, shuningdek, elat va uning ijtimoiy tarkibi, iqtisodiy va etnomadaniy rivojlanishi borasidagi fikr-mulohazalari chuqur etnografik daliliy manbalar tahlillari asosida qurilganligi bilan tarixiy haqiqatni o'zida aks ettiradi. O'zbek xalqining elat bosqichidan millat bosqichiga ko'tarilishi masalasi O'rta Osiyoda kapitalistik munosabatlar bilan bog'liq ekanligi haqidagi qarashlari ham asoslidir.

Ammo, muallifning ilmiy dunyoqarashi markscha-lenincha g'oyalar asosida shakllanganligi bois, millatni uyushishi asnosidagi qarashlari asarni fundamental ilmiy xarakteriga soya solgan. Etnomadaniy jarayonlar, millatga xos omillarning shakllanishi, milliy o'zlikni anglash, uning psixologik jihatlari haqidagi muallif qarashlari marksizm ruhiyati asosida qurilgan to'qimalardan iborat.

O'zbek xalqining kelib chiqishi va uning eng murakkab etnogenezi masalasida rasmiy tarixda bir to'xtamga kelinishiga qaramasdan, matbuotda bu masalada turlicha qarashlar va tahliliy talqinlar aks etgan monografiyalar chop etila boshladi. Ana shunday monografik asarlardan biri M.Ermatovning "Etnogenez i formirovaniye

predkov uzbekskogo naroda” nomli asari 1968 yilda “O‘zbekiston” nashriyotida 3 ming nushada chop etildi.

Asarda muallif o‘zbek etnosining asosi sug‘diy, xorazmiy, sak-massaget, dai-kang‘uy qabilalardan tarkib topgani haqida yozsada, ammo etnogenetik jarayonlar tafsilini faqat chorvador qabilalar asosida qurgan. Asar ikki bo‘limdan iborat.

Muallif kitobning ikki bo‘limdan iborat 1-bobida Kichik Avesto (Zent-Avesto), Ahomoni podsholarining qoyatosh kitobalari, yunon-rim va armyan yozma manbalari hamda qisman arxeologik yodgorliklarga asoslanib, o‘zbek xalqining etnogenezida sak-massaget, dai-kanguy, sug‘diy va xorazmiylarning etnik asosi va tili masalasida fikr yuritadi. Matn mazmuniga ko‘ra, u o‘z qarashlarini V.V.Grigoryevning 1871 yilda SPBda chop etilgan “O skifskom narode sakax” asari asosida bayon etgan. Shu bois, o‘zbek etnogenezining ilk bosqichlari chorvador qabilalar hayoti asosida qurilgan. Tarixiy voqealar bayonida mantiqiy bog‘lanish, tizimli tahliliy analiz va xulosalar ko‘zga tashlanmaydi. Arxeologik obyektlar asosan qadimgi Xorazm misolida olinib, ularning xronologiyasida chalkashliklar, qabila va etnik guruhlarining tili masalasida qarama-qarshiliklar uchraydi. Masalan, muallif S.P.Tolstovning arxeologik qidiruv vaqtida 400 ga yaqin yodgorliklar ochilgani, ulardan 14 tasida qazishmalar olib borilgani, ularning xronologiyasi mil. avv. IV-III ming yilliklardan to milodiy XIV asrgacha tegishli ekanligi haqidagi iborasini bir qismini yulib olib, antik davr yodgorliklari - Jonbas qal’a, Ayaz qal’a, Tuproq qal’alarning davriy sanasi mil. avv. IV-III ming yilliklar bilan belgilanadi deb, S.P.Tolstovga tuxmat qilgan. Bronza davri yodgorliklari Zomonbobo (Buxoro) va Tozabog‘yob (qadimgi Xorazm) yodgorliklari qatoriga antik davr yodgorligi Qovunchitepani (Toshkent viloyati) taqab, ularni o‘zbek xalqining o‘troq dehqonchilik madaniyati yodgorliklari sifatida izohlaydi . V.V.Grigoryevning saklar, massagetlar, xorazmiylar, sug‘diylarni eroniy tilli qabilalar qatoriga kiritishini asossiz deb tanqid qiladi . Muallif arab geografi Maqdisiyning xorazm xalqini kelib chiqishi haqida keltirgan xalq rivoyatini tarixiy haqiqat sifatida qabul qilib , quyidagi xulosaga keladi: «Bundan ma’lum bo‘ldiki, xorazmiylar qadimdan o‘z ona yurtlarida yashab kelgan. Ularga turk qizlari qo‘shilgach, xorazmliklar turli etnik qorishmalardan hosil bo‘lgan xalq bo‘lib shakllandi. Bu xalq, ya’ni Xorazmning tub joyli xalqi - turklar Beruniy keltirgan rivoyatga ko‘ra, turklardan

so'ng Xorazmga Siyovush bilan birga turk bo'lmagan odamlar, ya'ni bosqinchi forslar kirib kelgach, Xorazmda forsiylar paydo bo'ldi. Bu dalillar Xorazm xalqining ajdodlari sak-massaget va kanguylardan tarkib topganligi haqidagi bizning farazimizni to'liq tasdiqlaydi, deydi. Matn bayonidan ma'lumki, muallif M. Ermatov, o'z xulosalarida ilmiy dalillarga emas, balki ko'proq rivoyatlarga asoslanadi. Shuningdek, qadimiy eroniy tillar oilasini janubiy-g'arbiy (fors) va shimoliy-sharqiy (sug'diy, xorazmiy, bohtariy, parfiyoniy, sak) tillar guruhlariga bo'linishini farqiga bormay, antik davrning sharqiy eroniy tillariga nisbatan fors atamasini ishlatishda davom etadi. Muallif fors tilini O'rta Osiyoda somoniylar davridan boshlab keng yoyilishini, qadimiy turkiy va forsiy tillar mahalliy sug'diy tillarni IX asrdan e'tiboran muomaladan siqib chiqarganidan xabarsiz bo'lgan ko'rinadi.

M. Ermatov kitobining II-bobida yuechji-kushonlar qabilalari, ularning o'zbek xalqi etnogenezida tutgan o'rni masalalari yoritilgan. O'zbek xalqi etnogenezining ikkinchi bosqich davrini mil. avv. II-milodiy VI asrlar bilan belgilaydi. Bu davrda hozirgi O'zbekiston hududlari va uning tevarak-atrof viloyatlarida tub joyli aholi tarkibiga yuechji-eftalit va boshqa turkiy qabilalarning kelib qo'shilishi va ularni asta-sekin o'troq qishloq va shahar hayotiga moslashib borishi haqida to'g'ri so'z yuritadi. Bu sarhadlarda eron va yunon hukmronligi tugatilgach, bu zaminga turkiy jamoalarning kirib kelishi faollashganligini to'g'ri ta'kidlaydi. Biroq, deydi muallif, ularning tili masalasida bahsli jihatlar shunchalar ko'pki, ularning adog'i ko'rinmaydi.

Darhaqiqat, ilmiy adabiyotlarda ma'lum bir to'xtamga kelishdan qochilib, zamonamiz olimlari tomonidan bitilgan asarlarda ko'proq qadimgi ajdodlarning geografik joylashishi, urf - odatlari, kundalik turmush -tarzi haqida so'z yuritilar, murakkab etnogenetik jarayonlar, til masalalari esa, yo'l-yo'lakay og'izga olinib kelindi. G'arbdan kirib kelgan etnogenez masalalaridagi bunday yondashuv sovet tarixshunosligi va tarixiy lingvistikasining ham dasturiy amaliga aylangan edi.

Shuning uchun O'rta Osiyo turkiy xalqlari tarixshunosligida yaqingacha fundamental akademik tadqiqotlar yuzaga kelmadi. M.Ermatovning ushbu asari ham aynan ana shu ruhiyatda yozilgan bo'lib, uning ilmiy metodologik bo'shligi va tarixiy tizimsizligi hamda muammoning tub mohiyatini ocha bilmaganligi bois, nafaqat

hozirgi istiqloq yillarida, hatto sovet hokimiyati davrida ham jiddiy ilmiy tadqiqot sifatida jamoatchilik tomonidan qabul qilinmadi.

O'zbek xalqining shakllanish masalalariga B.X.Karmisheva ham o'z munosabatini bildirib, u o'zining "O'zbekiston va Tojikiston janubiy rayonlari etnik tarixining ocherklari" nomli asarida o'zbek elatining o'troq o'zagiga IX-X asrlarda asos solindi. Lekin, o'zbek elatining alohida etnos sifatida shakllanishi, qachonkim, Movarounnahr Qoraxoniylar davlati tarkibiga qo'shib olingach, XI-XII asrlarda yuz berdi, degan to'g'ri xulosaga keladi. "Endi, deydi muallif, turkiy tilli o'troq aholi Movarounnahr vohalarida alohida "orolchalar" sifatida emas, balki butun bir turkiy massiv bo'lib tarkib topdi. Ular orasida qarluqlar va uyg'urlar yetakchi rol o'ynadilar, o'zbek xalqining tili esa ularning tili asosida tarkib topdi". "O'zbeklarning uyushish jarayoni Qoraxoniylar davlati doirasida o'g'uzlarning Sirdaryo quyi havzalaridan O'rta Osiyoning ichki hududlariga, Irtish bo'ylaridan Orol dengizi janubiy sarhadlariga kirib kelishi, ayniqsa, tatar-mo'g'ul istilolari davrida turkiy tilli qabilalarning kelib o'rinishi davom etib, turkiy etnik qatlamni yanada qalinlashiga olib keldi". Ammo, B.X.Karmisheva o'zbek tilining alohida etnos tili sifatida shakllanish davrini ayrim turkologlar izidan borib, XIV-XV asrlar bilan belgilaydi.

O'zbek xalqining shakllanishi masalasida tilshunolar orasida ham tushunmovchiliklar talaygina. Masalan, G'.Abdurahmonov va SH.Shukurov birgalikda chop etgan "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi" nomli kitobda o'zbek xalqi va uning tilini shakllanishi XI-XV asrlarda amalga oshdi, deyilgan. Biroq, mualliflar ushbu kitobning boshqa bir joyida, o'zbek tilining shakllanish xususiyatlarini tahlil etish jarayonida, uning umumturk tilidan alohida elat tili sifatida ajralib chiqishi XIV-XV asrlarda yuz berdi. Shunga ko'ra, o'zbek xalqining XIV-XV asrlarda shakllanganligini qayd qilish mumkin", degan xulosaga keladilar. Akademik G'anijon Abdurahmonov istiqloq yillarida o'z qarashlarini qayta ko'rib chiqib, "o'zbek xalqining shakllanishi XI-XII asrlarga to'g'ri keladi" degan xulosaga kelgan. Akademik K.Shoniyozov ushbu risola bilan muxtasar tanishib chiqib, uning muallifi qo'pol xatoga ham yo'l qo'ygan, ya'ni qipchoqlarni bir yerda qirg'iz desa, ikkinchi yerda pecheneg deb tilga oladi. Sharqiy qarluqlarni esa uyg'urlar deb ataydi. Ma'lumki, bu etnonimlar ilk o'rta asrlarda alohida qabila birlashmalarining nomlari edi. Shu bilan

birga, G'.Abdurahmonovning o'zbek xalqini shakllanish davriy sanasi masalasida ham qat'iylik yo'q. Bir joyda o'zbek xalqi va uning tilini shakllanishi XI-XII asrlar deyilsa, ikkinchi joyda X-XII asrlar, uchinchi joyda esa X asrning ikkinchi yarmida shakllana boshladi deyilgan, deb tanqid qiladi.

O'zbek xalqining etnik tarixiga oid masalalar akademik B.Axmedovning ishlarida ham o'z aksini topgan. U o'z ilmiy asarlarida ko'proq etnik tarixga, Shayboniy o'zbeklarining tarixiga, o'zbek etnik nomining kelib chiqish tarixiga bag'ishlagan. Dashti Qipchoqning ko'chmanchi o'zbeklari XV asrning oxiri va XVI asr boshlarida O'rta Osiyoga kirib kelguniga qadar ham bu zaminda turkiy qavm va qabilalar yashaganligini to'g'ri ta'kidlaydi. B.Ahmedov "Qoraxoniylar davrida o'zbek xalqi to'la shakllanib, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanadi deb yozadi.

O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi bo'yicha keyingi yillarda o'tkazilgan arxeologik, antropologik, lingo-toponik tadqiqotlar va chop etilgan ko'p sonli maqolalar va monografiyalar milliy avtohtonizm nazariyasining ilmiy-metodologik yo'nalishida olib borildi hamda uning yechimiga qator aniqliklar kiritib borildi.

Ana shunday fundamental tadqiqotlardan biri akademik Karim Shoniyozovning 2001 yilda "Sharq" nashriyotida "O'zbek xalqining shakllanish jarayoni" nomli monografiyasi chop etildi. Ushbu asarda o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi bo'yicha turli qarashlar va yondashuvlar asosida yozilgan ilmiy maqolalar, risola va monografiyalarning qisqacha tahlili va muallifning qarashlari bayon etilgan. Muallif bu masalada o'z qarashlaridan kelib chiqib, ba'zi bir asar va ilmiy maqolalarni puxta o'rganmay, ularni noto'g'ri talqin va tahlil etgan. Masalan, ushbu satrlar muallifining 1986 yilda chop etilgan «O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixini o'rganishning ba'zi bir jihatlari» maqolasini tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlildan o'tkazishda maqolada ko'tarilmagan masala yuzasida "tanqid" qilib, A.Asqarov "o'zbek xalqining etnik jihatdan uyushishi milodiy eranining boshlaridan boshlandi, uning ikkinchi davri esa milodiy VI asrning ikkinchi yarmidan boshlangan deb, XIV-XV asrlarni esa bu jarayonning yangi, taraqqiy etgan davri deb ta'kidlaydi, deydi. Aslida, ushbu maqolaning K.Shoniyozov keltirgan betida (ya'ni 10-betda, undan keyingi 11-betda ham XIV-XV asrlar o'zbek etnogenezining yangi, taraqqiy etgan davri sifatida tilga olinmagan. Aksincha, "o'zbek etnogenezi ikkinchi bosqichining

yuqori cho‘qqisi G‘arbiy turk xoqonligining gullash davriga to‘g‘ri keladi”, deb yozilgan. “IX asrning 40 yillarida Movarounnahrning sharqida Qarluqlar davlatining tashkil topishi munosabati bilan o‘zbeklar etnogenezida uchinchi bosqich boshlandi” deyiladi . Matn bayoniga mantiqan yondashilsa, maqolada o‘zbek etnogenezining bosqichlari to‘g‘risida gap ketayotganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Biroq, tanqidchimiz muallifning (ruscha aslini keltiraman) “Если считать рубеж нашей эры начальным этапом формирования этнической общности узбекского народа, то второй этап в этногенезе узбеков, как показывают данные археологических и антропологических исследований с учетом письменных, начинается, на наш взгляд, со второй половины VIII в» .

XX asrning 80 yillarida o‘zbek etnogenezining boshlang‘ich nuqtasi antik davrida yuz berdi, degan tasavvur hukmron edi. Rasmiy tarixda antik davr mil. avv.IV-milodiy IV asrlar bilan belgilangan. O‘sha kezlarda men arxeologik va antropologik materiallar ilmiy tahlilidan kelib chiqib, o‘zbek etnogenezining boshlanishi milodiy era boshlaridan boshlandi, degan xulosaga kelgan edim. K.Shoniyozov esa bu masalada mening xulosamga go‘yo tuzatish kiritib, “bu sanani ancha oldinroq, ya’ni mil. avv. I ming yillikning oxirlaridan boshlash maqsadga muvofiq bo‘lar edi”, deydi. Hozirgi kunda o‘zbek etnogenezining boshlang‘ich nuqtasi, eski qarashlarni yangi moddiy madaniyat va yozma manbalar ilmiy tahlilidan kelib chiqib, so‘nggi bronza davridan boshlandi, degan xulosaga kelingan. K.Shoniyozovning bu “tanqidiy” qarashlari endilikda o‘z kuchini yo‘qotgan.

Alohida ta’kidlash joizki, akademik K.SH. Shoniyozovning “O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni”asari o‘z davri tarixshunosligida haqiqatda fundamental xarakterga ega. Asar tarixiy yozma manbalar, arxeologik, antropologik, numizmatik, etnografik va boshqa manbalar tahlili asosida yozilgan bo‘lib, unda o‘zbek xalqining asosiy negizini Movarounnahr va unga tutash hududlarda qadimdan yashab kelayotgan turkiyzabon aholi tashkil etganligi haqida fikr yuritiladi. O‘zbek elatining shakllanish jarayonida qatnashgan etnik komponentlar, ularning etnik tarixi, hududiy tarqalish geografiyasi to‘g‘risida to‘xtab o‘tiladi. Markaziy Osiyoda, xususan hozirgi O‘zbekiston hududida yashagan ilk ajdodlarimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti,

madaniyati, etnik tarkibi, qo'shni davlat va ularning xalqlari bilan aloqasi to'g'risida boy materiallar beradi.

Akademik K. Shoniyozovning ushbu asari ko'p yillik ilmiy ijodining yakuniy mahsuli sifatida akademik tadqiqot uslubida yaratilgan. Demak, ushbu asar tor doiradagi ilmiy ijod ahli va izlanuvchi mutaxassislar uchun o'ziga xos keng qamrovli manba sifatida yozilgan.

Asarda o'zbek xalqining turkiy etnik komponentlari, ularning etnik tarixiga ko'proq e'tibor qaratilib, ammo uning juda qadim-qadimlardan tub joyli o'zagi hisoblangan sug'diyzabon, xorazmzabon, boxtarzabon ildizi haqida bizgacha yetib kelgan moddiy va ma'naviy madaniyat izlari, arxeologik madaniyat obidalarining o'zbek etnogenezigacha xos jihatlari tahlil etilmagan. Binobarin, o'zbek xalqining shakllanishida, antropologik jismoniy qiyofasini tarkib topishida, o'troqlik turmush-tarzining shakllanishida, ilk shahar madaniyati, ilk davlatchilik asoslarini qurilishida, o'zbekona mentalitetning tarkib topishida mahalliy sug'diyzabon, bohtariy va xorazmiy etnik komponentlar o'zbek etnosining asosiy o'zagini tashkil etganlar. Shuningdek, uning turkiylik til ildizi bilan tengma-teng ishtiroq etganlar.

Asar "O'zbek xalqining shakllanish jarayoni" deb atalgani bois, unda xalq tarixining uchinchi bosqichi - o'zbek millatining shakllanishi va unga xos omil va belgilar haqida so'z bormaydi. Chunki, taniqli elshunos K. Shoniyozov etnogenez va etnik tarixga bag'ishlangan asarlarida etnos, etnik birlik, qabila, qabila ittifoqi, elat, xalq, etnografik guruh (subetnos) va etnik guruhlariga yaxshi ilmiy tushunchalar va ta'rif beradi, ularning mazmun va asl mohiyatini ochib beradi. Ammo, uning ilmiy ishlarida millat ta'rifi, uning shakllanishi bilan bog'liq masalalarga yetarli o'rin berilgan emas. K. Shoniyozov tushunchasiga ko'ra, "elat va millat atamalari fanda hali obdon takomillashganicha yo'q". K. Shoniyozovning bunday qarashlari bilan kelishish mumkin emas. Bu haqda keyinroq, tegishli boblarda so'z boradi.

O'zbek xalqining alohida etnik birlik bo'lib shakllangan sanasi masalasida (ushbu asarning II bobida ta'kidlaganimizdek) nafaqat bizning forsiy-tojikzabon qardoshlarimiz, balki rusiyzabon hamkasblarimiz orasida ham turlicha fikr yurituvchilar uchraydi. Masalan, Rossiyalik olim V.A. Nikonov o'zbek elatining shakllanish jarayoni XI asrdan to XVI asrlargacha davom etgan, deb yozadi. Etnograf

S.P. Polyakov esa bu masalada yana ham jiddiyroq xatoga yo‘l qo‘yadi. Uning yosh avlod uchun o‘quv qo‘llanmasi sifatida yozib chop etilgan “Etnografiya” kitobida o‘zbek xalqi turkman, qozoq, qirg‘iz va boshqa turkiy tilli xalqlar bilan bir vaqtda, ya’ni XVIII-XIX asrlarda elat bo‘lib shakllangan , deydi. O‘z xalqining kelib chiqish tarixiy ildizlari va etnogenetik jarayonlar tarixini ana shu asarlar ruhida tasavvur etuvchi X.Salimov o‘zining «O‘rta Osiyo xalqlari” nomli kitobida o‘zbek elati XVI asrda shakllangan, deydi. Uning yozishicha, 1500 yilda Temuriylar egallab turgan yerlarni bosib olgan turk-mo‘g‘ul qabilalarigina o‘zbek hisoblangan. X.Salimov shunchalar O‘rta Osiyo tarixidan xabarsiz ekanlarki, u hatto hozirgi O‘zbekiston hududlarida juda qadim zamonlardan turkiy tilli ajdodlarimiz yashab kelganliklarini tasavvur eta olmaydi. Uning qarashlari fundamental ilmga zid, R.Masov kabi paneronistlarning ozuqa beradi, xolos.

1988 yilda Moskva yaqinidagi Zvenigorodda O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlarining etnogenezi va etnik tarixiga bag‘ishlangan anjuman bo‘lib o‘tdi. Anjumanda Tojikiston FA ning akademigi B.A.Litvinskiy “Qadimda va o‘rta asrlarda O‘rta Osiyo va Qozokiston xalqlarining etnogenezi va etnik tarixining nazariy masalalari bo‘yicha katta doklad bilan chiqqan. U o‘z dokladida o‘zbek xalqi alohida etnik birlik (elat) sifatida XVI asrda shakllangan, degan da’vo bilan chiqadi . Ma’lumki, B.A.Litvinskiy o‘z davrida akademik B.G.Gafurovning “Tadjiki” kitobiga ma’sul muharrir bo‘lgan va Internetning “Sentr Aziya” saytida B.Gafurovning bu kitobi boshidan oxirigacha uning qo‘lidan o‘tganligi, u kitobning shakllanishida uning ilmiy xizmati katta bo‘lganini oshqora aytgan. B.G‘afurovning mazkur kitobida o‘zbek xalqining shakllanishi XI-XII asrlarda nihoyasiga yetgan , deb yozilgan.

O‘zbekistondan akademik K. Shoniyozov, prof. I.M. Jabborovlar anjuman ishida faol qatnashgan. Akademik B.G‘. G‘afurov hayotligida (B.G‘. G‘afurov 1987 yilda vafot etgan) o‘zbek xalqining shakllanish davriy sanasi masalasida u bilan bir fikrda bo‘lgan B.A. Litvinskiy oradan hech qancha vaqt o‘tmay, fikrini o‘zgartirib, o‘zbek xalqining kelib chiqish davriy sanasini XV-XVI asrlarda ko‘chmanchi Dashti Qipchoq o‘zbeklarining Movarounnahr hududlariga kirib kelishi bilan bog‘laydi. B.A. Litvinskiyning bu masaladagi ilmiy qarashi tufayli Tojikistonning sovet davri tarixining tarixshunosi R. Masov nomi bilan “Istoriya topornogo razdeleniya”(1991),

“Tadjiki:istoriya pod grifom “sovenshenno sekretno”(1995) va “Tadjiki: vitesneniye i assimilyatsiya» (2003) kabi o‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixiga qarshi qaratilgan paneronistik ruhda yozilgan qator monografiyalarni chop etilishiga olib keldi.

Ana shunday nashrlardan biri “Otkritoye obshestvo” Institutining granti asosida tayyorlangan «Etnicheskiy atlas Uzbekistana» ilmiy to‘plami edi. Ushbu to‘plamning tashabbuskori va uning g‘oyaviy yo‘nalishini belgilovchi va “Arxeologiya uzbekskoy identichnosti” bosh maqolasining muallifi yosh tadqiqotchi Alisher Ilhamov bo‘lib, maqolaning “Etnogenez” qismida “o‘zbek xalqining tarkib topishi asosida O‘rta Osiyoga XVI asr boshlarida ommaviy ravishda kirib kelgan Dashti Qipchoqning ko‘chmanchi o‘zbeklari yotadi. Ularga “chig‘atoylar” deb ataluvchi mahalliy turk qabilalari va o‘g‘uz turklari hamda “sartlar”, ya’ni urug‘-aymoqchilik an‘analarini yo‘qotgan turkiy tilli shahar aholisi hamda turkiylashgan tojiklar kelib qo‘shilgan” degan tezisni olg‘a suradi.

Ushbu matn bayonidan shu narsa ayon bo‘ladiki, A.Ilhamov o‘zbek xalqining kelib chiqishi asosiy o‘zagini Shayboniyxon bilan birga kelgan Dashti Qipchoqning ko‘chmanchi o‘zbeklari bilan bog‘laydi. Unga qadar bu zaminda yashab kelgan ulkan turkiy etnik qatlamni qadimiy eroniy tillarda so‘zlovchi sug‘diylar, xorazmiylar, boxtariy va chochliklar, fraganik va ustrushoniylar bilan uzoq asrlar davomida aralashib, qorishib ketishi oqibatida XI-XII asrlarda alohida yangi etnosni shakllantirgan asosiy turkiy o‘zakni ikkinchi darajali (primknuvshiy) etnik komponentlar sifatida talqin etadi.

Maqolaning “Dashti Qipchoq o‘zbeklari” qismida “o‘zbek” etnonimi Dashti Qipchoq o‘zbeklari nomidan kelib chiqqanligini ta’kidlab, Dashti Qipchoq o‘zbeklari tarkibida chig‘atoy, jaloyir, barlos kabi mo‘g‘ul qabilari ham bo‘lgan. Ular o‘g‘uz, uyg‘ur, qarluq, qipchoq qabilalari ta’sirida asta-sekin turkiylashgan , deydi.

Amir Temir 1370 yilda Balxda Movarounnahr hukmdori Xusaynni yengib, amirlari va Termiz shayxlari, uni elning xoni etib saylash maqsadida, o‘sha davr udumlariga ko‘ra, oq kigizga o‘tkazib ko‘tarishni taklif qilganlarida, Temirbek bunga ko‘nmaydi. Aksincha, u o‘zini chingiziylardan emasligini ta’kidlab, bizning barlos turklari saltanatda amirlar bo‘lganlar, shu bois, men xon bo‘lishga haqqim yo‘q deb, qo‘l ostidagi mo‘g‘ul amirlaridan bo‘lgan Turalmishxonni oq kigizga o‘tirishga buyruq

beradi va uni o'z davlatining xoni deb e'lon qiladi. Bu dalilni o'zi ham barloslarni mo'g'ul emas, haqiqatda turk qabilasi ekanligidan guvohlik beradi. Xalq udumlarining nozik tomonlarini tushinib yetmagan V.V.Bartold va M.YE.Massonlar ham o'z davrida barlos urug'ini mo'g'ul deb atashgan edi.

Maqolaning "chig'atoy turklari" qismida Chig'atoy ulusiga tegishli Movarounnahr aholisi forsiy va turkiy etnik birliklardan iborat edi. Bu etnik birliklar o'zaro etnomadaniy assimilyatsiya jarayonlarini boshidan kechirsada, ularning turk va turk-mo'g'ul qatlamlari to XIX asrning oxirlarigacha o'zlarining urug'-aymoqchilik xususiyatlarini, qisman yarim ko'chmanchilik turmush-tarzini saqlab qolgan edilar. Bunday qabilalarga qarluqlar, jaloyirlar, barlos, qovchin, orlot, turk, musabozori, kaltatoy, mo'g'ul va boshqalar kiradi degan tarixga zid mulohazalar yuritadi. Uning fikricha, turk nomi ostida yuritilib kelingan barlos, kaltatoy, musabozori, turk va boshqa turkiy tilli qabilalar hatto, 1924 yilgacha mustaqil milliy xalq bo'lib uyushmagan edilar, degan noilmiy g'oyasi bilan kitobxonni chalg'itishga urinib ko'radi. Maqola mazmuniga ko'ra, o'zbek xalqi turkiy tilli ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi qabilalar konfederatsiyasidan iborat. U to 1924 yilgacha yaxlit xalq bo'lib uyushmagan. Bunday o'zbilarmon o'zbeklar o'z xalqi va millatining kelib chiqish tarixiy ildizlarini tushinib yetmay, balandparvoz iboralarda o'zbek xalqining asosiy o'zagi XVI asr boshlarida O'rta Osiyoga kirib kelgan ko'chmanchi Shayboniy o'zbeklari edi, deb turganda, eronparast Rahim Masovlar nima qilsin !!!

Maqolaning "sartlar"ga bag'ishlangan qismida sartlar Dashti Qipchoq o'zbeklari bilan bir qatorda hozirgi zamon o'zbek millatining asosiy komponentini tashkil etgan. Ammo, ularning etnik kelib chiqishi masalasida uch xil qarashlar mavjud. Uning birinchisi (G.Vamberi, V.V.Radlov, V.V.Bartold, Y.Bregel va boshqalar) sharqshunoslar bo'lib, srtlarni etnik mavjudligini tan oladilar. Bular orasida ayniqsa, V.V.Bartold o'z nuqtai nazarini aniq aytadi, ya'ni sartlar tojiklarning bevosita ajdodlaridir deydi.

Ikkinchi guruh tadqiqotchilarining (V.Nalivkin, I. Magidovich va boshqalar) ilmiy qarashlariga ko'ra, sartlar alohida etnik atama emas, balki eroniy va turkiy etnik birliklarning o'troq qatlami, shaharlarda savdo-sotiq va hunarmandchilik, qishloqlarda sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi qatlamidir.

Uchinchi guruh tadqiqotchilari (Sherali Lapin, Mahmudxo‘ja Behbudi, umuman jadidlar) qarashlariga ko‘ra, Turkistonning o‘troq aholisiga nisbatan “sart” atamasini ishlatish xatodir. Chunki, bu atama Turkistonning o‘troq aholisiga nisbatan ilk bor rus sharqshunoslari va ko‘chmanchi qirg‘izlar tomonidan (“sari it” deb, kamsitish ma’nosida) ishlatilgan. Sherali Lapinning fikricha, sart etnik kelib chiqishidan qat’iy nazar, O‘rta Osiyoning mahalliy o‘troq aholisi bo‘lib, uning o‘rniga “chala o‘zbek”, “chala tojik” atamalarini ishlatish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bu qorishma til eroniylashgan turk tilining ko‘rinishi, ya’ni eski o‘zbek tili edi, deydi. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zbek xalqiga nisbatan “sart” atamasini ishlatishga qat’iy qarshi chiqadi. Bu atama deydi Behbudiy, alohida etnik asosga ega emas, uni qozoq, qirg‘iz, tatar va ruslar tomonidan Turkistonning o‘troq aholisiga nisbatan qo‘llanilgan. Turkistonda faqat turklar (o‘zbeklar, qozoqlar, qirg‘izlar, turkmanlar, qoraqalpoqlar) yashaydi. “Sart” o‘rniga “turkistonli”, “Turkiston musulmonlari” deb atash kerak deydi.

Aslini olganda, O‘rta Osiyoda mustamlakachilik va milliy uyg‘onish davrining jadidlari rus sharqshunoslari va ko‘chmanchi turk-mo‘g‘ul qabilalari tomonidan Turkistonning o‘troqlashgan, ijtimoiy va iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy jihatdan yuksak turg‘un, muqim turk sartlariga nisbatan “sari-it” iborasining ishlatilishini haqorat deb bilganlar. Chunki, XI asrda etnik kelib chiqishi va tilidan qat’iy nazar, mo‘g‘ullar tomonidan “sart” atamasi ostida Turkiston aholisining savdo bilan shug‘ullanuvchi savdo ahli tushinilgan. XII-XIII asrlarga kelganda ko‘chmanchi turk-mo‘g‘ul qabilalari nafaqat Turkistonni savdo ahlini, balki ularga qo‘shib, shahar hunarmandlari va qishloq dehqonlarini ham sart deb atay boshladilar. O‘sha kezlarda ularning qaysi tilda so‘zlashlariga e’tibor berilmagan.

XIV-XV asrlar davomida sartlarning turkiy tilda so‘zlashuvchi qatlamining nufuzi keng ko‘lamda ortib, endi ular uzoq o‘tmishdagi urug‘-aymoqchilik va qabilaviy bo‘linishni mutlaqo unitgan edilar. Ular Turkistonning faqat turkiy tilda so‘zlashuvchi shahar va qishloq aholisiga aylangan edi. Ularning tarkibiga asrlar davomida eroniy va arabiy tilda so‘zlashuvchi etnik guruhlar singib, ular o‘zlarini turk xalqi yoki muqim turar-joy nomlari bilan (shoshiy, urganjiy, buxoriy, andijoniy, naxshobiy va boshqalar) atar edilar.

Dashti Qipchoqdan bu zaminga XVI asr boshlarida kirib kelgan 92 boʻvli Shayboniy oʻzbeklari mahalliy aholiga nisbatan haqoratlovchi “sari-it” iborasini ishlatishlari milliy gʻururi va insoniy tuygʻusi baland mahalliy turkistonliklarga, ayniqsa, jadidlarga ogʻir botganligini tushunsa boʻladi. Millat mentalitetining nozik jihatlarini tushinishdan uzoq boʻlgan V.V.Bartold va uning izdoshlari esa, hozirgacha ham oʻzga xalqlar milliy tuygʻusidan uzoqdirlar.

Y.Bregel bu masalada V.V.Bartold izidan borib, oʻz qarashlarini manbalar asosida isbotlash uchun Abulgʻozi Bahodirxonning “Sajara-i turk” asariga iqtibos qilib, ushbu asarda “XVII asr oxirida Xorazmda oʻzbek va turkmanlar bilan bir qatorda sartlar aholining alohida etnik guruhi” sifatida tilga olinadi deb yozadi. A.Ilhamov esa, kelib chiqishi jihatidan millati oʻzbek boʻla turib, amalda Bartold-Bregellar va Masov-Sagdullayevlar izidan boradi.

1924 yilda Oʻrta Osiyoda milliy-hududiy davlat chegaralash siyosati oʻtkazilgan vaqtda turkiy tilli sartlar Movarounnahr aholining asosiy oʻzagini tashkil etsada, yangi tashkil topgan Respublikaga Oʻzbekiston nomi berilgani bois, sart nomi rasmiy hujjatlarda unitildi. Chunki, u alohida etnik birlik emas edi. Ammo, xorijiy “jonkuyarlarimiz” esa, masalan, Amerikalik etnoantropolog Jon Shoberlayn mustaqillik yillarida Oʻzbekistonda bir necha bor boʻlib, ziyolilar orasida uchrab turadigan eronparastlar bilan uchrashib, “1924 yilgacha Oʻrta Osiyoning 1,7 millionga yaqin srtlari bir kunda tarix sahnasidan oʻchirildi”, deb taajjublanadi.

Oʻzbek xalqining kelib chiqishi haqida yuqorida keltirilgan turli xil qarashlardan maʼlumki, oʻzbek xalqining alohida etnik birlik (xalq) boʻlib shakllangan vaqti masalasida hozirgacha bir aniq ilmiy asosli toʻxtamga kelingan emas. Ammo, mustaqil Oʻzbekistonning fundamental fan vakillari unitmasliklari kerakki, oʻzbek xalqining kelib chiqish tarixini ilmiy asosda, chuqurroq bilishga haqli yosh avlod ham bor. Vatanimiz va uning ilm-fan va taʼlimning kelajagi ularning zimmasiga tushadi.

Ularga oʻzbek xalqining kelib chiqishi va uning xalq, millat boʻlib shakllanish tarixiy jarayonlari haqida ilmiy asosli tushuncha berish, ularni shu masala bilan bogʻliq konsepsiyalar va ularning tub mohiyati bilan hamda etnogenez va etnik tarixning nazariy va ilmiy-metodologik asoslari bilan tanishtirish, etnogenez va etnik tarix haqidagi tushunchalar: etnik alomatlar va belgilar, oʻzbek xalqi etnogenetik

jarayonining murakkab kechish sabablari va ular o'rtasidagi tarixiy va xronologik tafovutlar haqida yoshlarga obyektiv ma'lumotlar berishdek vazifa turibdi. Chunki, O'rta Osiyo xalqlarining kelib chiqishi masalasida, hozirgacha fanda davom etib kelayotgan turlicha qarashlar va ba'zida uchrab turadigan g'ayri ilmiy tasavvurlar, o'zbek xalqining tarixi hozirda egallab turgan hududlar bilan azaldan bog'liq ekanligiga soya solmoqda. Ayniqsa, Yuriy Bregel, Rahim Masov, Sergey Polyakov, M.Ermatov, O'rol Nosirov, Ilhom Rashidov kabilarning qarashlari fan yutuqlariga mutlaqo ziddir. Ularning qarashlari yosh avlodni milliy iftixor va tarixiy baynalminallik ruhida tarbiyalashga emas, balki ko'p millatli mintqa aholisi o'rtasida milliy nizolarni keltirib chiqarishga olib keladi. Shuning uchun har bir yosh avlod, o'z xalqi va vataniga sodiq mutaxassis, o'zini, ota-bobolari va ajdodlarining kelib chiqishini, uzoq o'tmishda uning ajdodi kimlar edi, shu zaminda ikki til sohiblari (turkiy va sug'diy) etnoslar yonma-yon yashab, uzoq davom etgan iqtisodiy va etnomadaniy aloqalar natijasida bir-birlari bilan aralashib, qorishib ketgan, turli tarixiy taraqqiyot bosqichlarini birga bosib o'tgan, tagli-tugli o'troq xalq madaniy merosining sohiblarimi yoki tarixni buzib ko'rsatuvchi ba'zi bировlar aytganidek, ko'chmanchilar bo'lganmi? Mana shu muammo yechimini topib, keng kitobxonlar ommasiga to'g'ri ilmiy tasavvurlar berish biz keksa avlodning vazifasi, Ona-Vatan, uning mehnatkash xalqi oldidagi burchi, qolaversa, qarzi emasmi? Ushbu monografik tadqiqotning maqsad va vazifalarining mazmun va tub mohiyati ham aynan ana shu muammolarning ilmiy yechimiga qaratilgan.

Sobiq SSSR parchalanib, uning o'rnida tashkil topgan mustaqil milliy respublikalarda, jumladan, O'zbekistonda ham istiqlool tufayli erkin ijod qilishga keng imkoniyatlar ochilgach, turli soha ilm ahli orasida o'tmish tarixga qiziqish, milliy g'ururi qaynab, tarixning turli yo'nalishlari bo'yicha erkin fikr yuritish jonlanib ketdi.

Ayniqsa, bugungi kunda o'zbek xalqining kelib chiqishi va uni xalq, millat sifatida shakllanishini, ya'ni o'zbek etnogenezi va etnik tarixini o'rganishga bo'lgan qiziqish ortdi. Matbuotda, ilmiy-ommabop nashrlarda, ilmiy anjumanlarda o'zbek xalqining shakllanish jarayoni, etnik tarixiga oid qizg'in baxs-munozaralar davom etmoqda.

Bu borada tarix, arxeologiya, etnografiya, antropologiya, numizmatika, toponimika, tarixiy tilshunoslik kabi ijtimoiy fan sohalarida keng ko‘lamli ilmiy izlanishlar olib borilib, mutaxassislar ma’lum bir to‘xtamlarga kelishmoqda. Ammo, bu bilan o‘zbek xalqining kelib chiqishi bilan bog‘liq muammolar uzil-kesil yechimi topildi, degan so‘z emas. Bu sohada xali tadqiq etilishi lozim bo‘lgan ilmiy muammolar talaygina va ularga qiziquvchilar safi ham tobora ortib bormoqda.

Afsuski, chop etilayotgan ba’zi bir tadqiqotlarda qadimdan shu zaminda yashab kelayotgan xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro bir-biriga uzviy bog‘liqlik, iqtisodiy va ijtimoiy, siyosiy va etnomadaniy aloqalar hamda turli darajadagi etnik qorishuvlar tufayli milliy etnoslarning shakllanishi rivojlanishning asosiy omillaridan ekanligi ikkinchi darajaga tushib qolmoqda.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixining u yoki bu yo‘nalishi bo‘yicha internet saytlarida, ilmiy jurnallar sahifalarida, hatto monografik kitob tarzida milliy nuqtai nazarlar chuqur ilmiy tahlillarsiz keng kitobxonlar ommasiga taqdim etila boshlandi. Istiqlool bergan ijodiy erkinlikdan ilhomlangan va o‘z bazaviy mutaxassisligi tarixdan uzoq bo‘lgan ijodiy ziyolilar orasida o‘tmish tarixga bir yoqlamali yondashuvlar asosida millat tarixini yozish an’anaga aylanib, ularning “ijod” mahsuli tegishli ilmiy nazoratsiz chop etilishi odat tusini olmoqda.

Afsuski, keyingi yillarda birlamchi manbalar asosidagi tadqiqotchilikka xos ilmiy odob (etika) o‘rnini milliy ehtiroslar egallab bormoqda. Natijada, jahon ilmiy jamoatchiligi e’tirof etgan obyektiv tarix, real geosiyosiy vaziyat hisobga olinmay, ilmga zid qarashlarni fanda paydo bo‘lib qolishi tufayli, mustaqil O‘zbekistonimiz tarix fani oldida o‘ta mas’uliyatli yangidan-yangi muammolar tug‘ilmoqda.

Ana shunday muammolarni tug‘ilishiga asos beruvchi erkin ijod ahli orasida real tarixiy haqiqatdan uzoqlashib, “qosh qo‘yaman deb, ko‘z chiqarib qo‘yayotganlar” ham yo‘q emas. O‘rol Nosirovning 2011 yilda chop etilgan “O‘zbeklar shajarasi” nomli kitobi ana shunday “asar”lardan hisoblanadi .

Muallif ma’naviyat va ma’rifat sohasining mutaxassisi sifatida mintaqada ma’naviy-axloqiy muhitga xizmat etish bilan bog‘liq amaliy ishlar bilan shug‘ullanish o‘rniga, o‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixiga oid o‘zining noilmiy mulohazalarini ilgari surish hamda turkiy etnosni birlamchi jahon sivilizatsiya

markazlarining asoschilari sifatida ko'rsatish maqsadida, turli adabiyotlar va manbalarga noxolis suyanib, o'z fantaziyasini asoslashga harakat qilgan. Shuning uchun kitobda keltirilgan ma'lumotlarning mutloq aksariyati ilmiy-tahlil qilinmagan, balki ehtiroslar negiziga qurilgan, qo'shni mamlakatlardagi siyosatchi-tarixchilar kabi o'z tarixini sun'iy qadimiylashtirishga urinib, paneronistik chiqishlarni yanada avj olishiga xizmat qilgan.

Avvalombor, kitobni «O'zbeklar shajarasi (Etnik tarixga xolis nazar)» deb nomlanishi uning tub mazmuniga mos kelmaydi. Chunki, shajara orqali butun bir xalqning etnogenezi va etnik tarixini yoritib bo'lmaydi.

Kitob annotatsiyasida masalaga muallif yondashuvining ilmga zid, hatto tarix havasmandlari ham qabul qilishi qiyin bo'lgan farazlarni tarixiy haqiqat sifatida talqin qilinishi, jumladan, o'zbek xalqining azaliy ajdodlari faqat skiflardan iborat bo'lgani, o'zbek xalqi odamzot paydo bo'lganidan boshlab hozirgi O'zbekiston hududida o'troq va yarim o'troq yashab kelgani, o'zbeklar mil. avv. VI-V ming yilliklarda Eron orqali Kichik va Old Osiyoga borib madaniyatlar yaratgani, mil. avv. II-I ming yilliklarda Sirdaryo va Amudaryo oralig'ida, ya'ni hozirgi O'zbekiston hududiy doirasida Skifiya davlatini barpo etgani haqida yozadi. Bu bilan muallif o'zining kishilik tarixining oddiy masalalarini tushinishdan juda uzoq ekanligini namoyish etib, o'z xayoliy qarashlari bilan kitobxonni chalg'itishga uringan.

O'. Nosirovning fikricha, subarlar kelib chiqishi jihatidan turklar bo'lib, ular mil. avv. VI ming yillikda Eron orqali Mesopotamiyaga borib, u joyda jahon tarixida mashhur bo'lgan "Ubayd", "Uruk" madaniyatlarini yaratgan. Muallif hozirgacha sobiq Sovet davri mafkuraviy tasavvurida bo'lib, o'z vatanining o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi bilan shug'ullanuvchi tarixchilarining mustaqillik yillarida chop etilgan ilmiy maqola va o'quv qo'llanmalarida olg'a surilgan g'oyaviy qarashlardan xabarsiz ko'rinadi. Uning tanlagan usuli etnogenetik jarayonlarning tub mohiyatini tushinib olishga intilish emas, balki tarixiy xolislik asosida yozilgan ilmiy asarlardan ayrim jumla va iboralarni yulib olib, ulardan o'z qarashlariga mos iboralar yasab, chalkash xulosalar chiqarishga qaratilgan.

Afsuski, akademiklarimiz K. Shoniyo'zovning "Qang' davlati va qang'lilar" va "O'zbek xalqining shakllanish jarayoni" (T.,2001), A. Asqarov va boshqalarning

O‘zbekiston tarixi moddiy madaniyat va yozma manbalarda” (T., 2005), A. Asqarovning “O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi” (T., 2007), B. Axmedovning “O‘zbek ulusi” (T., 1996), E.V. Rtveladze va boshqalarning “O‘zbek davlatchiligi tarixidan ocherklar” (T.2001y.), “Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi, davlatchiligi va madaniyati” (rus va ingliz tillarida. T., 2009.) hamda “Istoricheskoye proshloye Uzbekistana” (T., 2009), A.Xodjayevning “Iz istorii drevnix tyurkov (T., 2010), I. Jabborovning “Uzbeki: (Etnokulturniye traditsii, bit i obraz jizni)” (T., 2007) va “O‘zbeklar: etnomadaniy an‘analar, turmush tarzi va madaniyati” (T., 2008) kabi qator yirik monografiyalari o‘zbek xalqining kelib chiqishi va uning davlatchilik tarixiga bag‘ishlanib, chop etilganligidan ham kitob muallifi bexabarga o‘xshaydi.

-“Bizning izlanishlarimizga ko‘ra, – deydi O‘. Nosirov, - hozirgi O‘zbekiston hududida mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi – mil. avv. VII asr oralig‘ida qudratli Skifiya davlati mavjud bo‘lganligi aniqlandi . Aslida, o‘zbeklar tarixi juda qadimiy, ular “mil. avv. VI-V ming yilliklarda Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idan Eron orqali Mesopotamiyaga borib botqoqliklarni quritib, ekinzorlarga aylantirgan subarlarning (suvarlarning) kekxa avlodi “92 boqli” o‘zbek urug‘lari qatorida qang‘li, “suvron”, “qang‘ar” etnonimlari saqlanib kelmoqda. Bu xalq ... qadimdan turkiy tilli xalq bo‘lgani, uzoq o‘tmishda Dashti Qipchoqda emas, balki ... hozirgi O‘zbekiston hududida yashab kelgani... tarixiy manbalarda saqlanib qolgan” .

Kitobning boshqa boblarida ham muallif subarlar haqida ko‘p yozadi. U subarlarni o‘zbek xalqining ajdodi ekanligini tasdiqlash uchun ilmiy asosga ega bo‘lmagan fikrlarni qalashtirib, aralashtirib tashlaydi. Ajablanarlisi shundaki, muallif tomonidan kitobning 322-323 betlari oralig‘ida o‘zbek urug‘larining nomlarini “Majmuai at-tavorix”, “Nasabnomai o‘zbek”, Tuxfat at-tavorix”, Sharqshunoslik institutidagi qo‘lyozmada, Zaki Validiy To‘g‘on, N.V. Xanikov ro‘yxatlaridan olib keltiradi. Ammo, bu ro‘yxatlarda subar urug‘i nomi uchramaydi. ta’kidlash joizki, ushbu nasabnomalarning aksariyati xonliklar davrida yaratilgan. Qolaversa, muallif o‘zi keltirgan ro‘yxatda uchramaydigan ushbu urug‘ subar nomini qayerdan olganligi o‘quvchida shubha uyg‘otishi tabiiy. Muallif tarixchi – olimlarni tanqid qilgani kabi “akademik ixtiro” yaratib, yangi o‘zbek urug‘i nomini kashf qilgan ko‘rinadi. Agarda bu etnonim “92 boqli” o‘zbek urug‘ining qaysidir farazida etnonim sifatida bo‘lsa ham,

uning Mesopotamiyadagi subarlar bilan qanday aloqasi bo'lishi mumkin. Bu fikrni tarixiy haqiqat deb olsak, unda 92 bo'li emas, balki 93 bo'li o'zbek urug'i atamasini qo'llash lozim. Ko'rinib turibdiki, bu qiyosiy tahlil hech qanday ilmiy mezonlarga to'g'ri kelmaydi.

Shunday qilib, o'zbek xalqining kelib chiqishi haqida yozilgan asarlar tahliliy va tankidiy obzoridan kelib chiqadigan yakuniy xulosalar quyidagilardan iborat: 1). Etnogenez va etnik tarix, tarix fanining bosh masalasidir. U yoki bu xalqning kelib chiqish tarixini o'rganmay turib, uning iqtisodiy xo'jalik tarixini, madaniyati, davlatchiligi, siyosiy tarixini va ma'naviy dunyosini o'rganish mumkin emas. Fan olamida uni o'rganish ilmiy metodologiyasi, o'ziga xos uslubiy yondashuv prinsiplari mavjud. Masalaning muammoviy jihatlari tadqiqotchidan o'ta xolislikni, materiallar kompleks tahliliga obyektiv yondashishni va chuqur ilmiy mulohazaviy tafakkurni talab etadi. Masalaning yana bir muammoviy jihati borki, u ham bo'lsa masala yechimini topishda ilmiy tajriba, qomusiy bilimdonlik va mintaqaga xos etnosiyosiy vaziatni hisobga ola bilishlik, ilmiy izlanishlarda milliy ehtirolarga berilmaslikni talab etadi. Xalqlarning etnogenezi va etnik tarixini o'rganishda Sovet davri tarixshunosligida qator salbiy holatlarning mavjud bo'lishiga qaramay, milliy avtohtonizm nazariyasi ruhiyatida yozilgan asarlar ilmiy fundamental xarakter kasb etdi.

2). Keyingi yillarda istiqlol bergan qarashlar xilma-xilligiga erkinliklar berilishi tufayli har bir respublika ijod ahli orasida o'tmish tarixga ommaviy qiziqish, o'z millatining mintqa tarixi va madaniy merosini yaratishda tutgan o'rnini aniqlashda muammoga noilmiy yondashish kuchaydi. Natijada, etnosning shakllanishi bilan bog'liq masalalarda ilmiy professionalizmdan yiroq asarlar chop etila boshladi. Ilmiy xolislik, obyektivizm ilmiy nazoratdan chiqib ketdi. Oqibat natijada milliy ehtirolarga to'la, tarixiy haqiqatga zid asarlarning xususiy nashriyotlarda chop etilishi tabiiy holga aylandi. Yuqorida tanqidiy munosabat bildirilgan asarlarning aksariyat ko'pchiligi ana shunday asarlar sirasiga kiradi.

3) Fanda ijodiy erkinlik yaxshi, u siz fan rivojlanmaydi. Ammo, kim nimani istasa, ilmiy asossiz yozaverish ham bo'lmaydi. Har bir ilmiy asar, milliy nizolarga emas, amaliy hayotda tinchlik va barqarorlikka xizmat etishi kerak. Bu akademik ilm-

fanning ijtimoiy va gumanitar yo‘nalishining nazariy va metodologik asosini tashkil etadi. Xalq donolari bejis aytmagan, “chumchuq so‘ysa ham qassob so‘ysin” deb. Oqibat natijada masala tub mohiyatini tushunmay murakkab muammoga qo‘l urish millat sha’niga soya soladi.

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-AMALIY MASHG'ULOT: MARKAZIY OSIYO HUDUDI, AHOLISI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR.

Markaziy Osiyo — bu Osiyo qit'asidagi sub-mintaqa bo'lib, janubi-g'arbda Kaspiy dengizi va shimoli-g'arbda Sharqiy Yevropadan sharqda Xitoy va Mo'g'ulistonga qadar, janubda Afg'oniston va Erondan shimolda Rossiyaga qadar cho'zilgan. Mintaqa o'z ichiga sobiq sovet davlatlari bo'lmish Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekistonni oladi. Ushbu besh respublika nomidagi o'xshashliklar tufayli mintaqadan tashqarida (asosan G'arbda) mintaqa davlatlari umumiy tarzda '-stan' davlatlari deb ham yuritiladi.

Islomdan oldingi davrda va Islom dini mintaqaga kirib kelishi davrida (tahminan milodiy 1000-yil yoki undan oldin) Markaziy Osiyoda asosan eroniy tilda so'zlashuvchi va madaniyatga ega bo'lgan xalqlar istiqomat qilgan. Hududda baqtriyaliklar, so'g'dlar, xorazmliklar va yarim-ko'chmanchi skiflar hamda dahlar yashagan. Turkiy xalqlarning ko'chib kelishi bilan Markaziy Osiyo asta-sekin o'zbeklar, qozoqlar, tatarlar, turkmanlar, qirg'izlar va uyg'urlar kabi turkiy xalqlarning vataniga aylandi. Tojikistonni istisno qilganda, hududda amal qilgan Eroniy tillar o'rniga Turkiy tillar kirib keldi. Tarixan Markaziy Osiyo Buyuk Ipak yo'li bilan aloqador bo'lib, Yevropa va Uzoq Sharq orasida odamlar, tovarlar va g'oyalar almashinuvi uchun chorraha vazifasini bajargan. Markaziy Osiyoning ko'pchilik davlatlari bugungi kunda ham dunyo iqtisodining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.



XIX asr oxirlaridan XX asr oxirigacha Markaziy Osiyo ruslar tomonidan mustamlakaga aylantirilgan. Hudud dastlab Rossiya imperiyasi, keyinchalik Sovet Ittifoqi tarkibiga kiritilgan bo'lib, bu ruslar va boshqa slavyan xalqlarining hududga ko'chib kelishiga sabab bo'ldi. Bugungi kunda Markaziy Osiyoda kelib chiqishi Yevropalik bo'lgan ko'p sonli xalqlar mavjud bo'lib, ulardan asosiy qismi Qozog'istonda istiqomat qiladi. Hududda 7 million ruslar, 500,000 ukrainlar va tahminan 170,000 nemislar yashaydi. Stalin davridagi majburiy ko'chirishlari sababli hudduda bugungi kunda 300,000 dan ortiq koreyslar ham Markaziy Osiyo turli millatlar, tillar, dinlar va qabilalar yashaydigan mamlakatdir. Markaziy Osiyoni tashkil etuvchi davlatlar beshta sobiq Sovet respublikalari: Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston va O'zbekiston bo'lib, ularning umumiy aholisi 72 millionga yaqin. Afg'oniston har doim ham mintaqaning bir qismi hisoblanavermaydi, lekin u bo'lganda, Markaziy Osiyoda jami 122 millionga yaqin aholi istiqomat qiladi (2016); Mo'g'uliston ham geografik jihatdan Sharqiy Osiyo bo'lsa-da, Markaziy Osiyo madaniy aloqalari va an'analari tufayli ba'zan Markaziy Osiyoning bir qismi deb ham hisoblanadi. Markaziy osiyoliklarning aksariyati so'nggi 1500-yil ichida hududning dinlarga mansubdir, masalan, Sunniylik, Shia Islomi, Ismoilii Islomi, Tangrilik va Suriyalik Nasroniylik.

Hozirgi Markaziy Osiyo aholisining avlodi hind-eron va turkiy ekspansiyalardan kelib chiqqan. Aksariyat zamonaviy aholilar ajdodlari etnik chegaralarga mos kelgan hind-eron yoki turkiylardan kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Temir davri Pazirik madaniyati dafnlari qoldiqlari bo'yicha arxeogenetik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, miloddan avvalgi 7-asrda hind-eron (skif) ekspansiyasi tugaganidan so'ng. Sharqiy Yevroosiyo G'arbiy dashtlarga asta-sekin sharqdan g'arbga ko'chib kela boshlagan.

Turkiy ekspansiya turkiy tillarni „Shimoliy-Sharqiy Osiyo“ ajdodlari bilan birga g'arbga, butun O'rta Osiyoga, shuningdek, Yevropaning ba'zi qismlariga tarqalgan.

Bronza davri O'rta Osiyoda, asosan, G'arbiy Yevroosiyo eroniyzabon xalqlari, shuningdek, uzoq sharqdan kelgan Sharqiy Osiyo Paleo-Sibir xalqlarining ozchilik qismi yashagan. Temir davridan boshlab Sharqiy Osiyo va Sharqiy Sibirdan sezilarli darajada migratsiyalangan, bu asosan turkiy xalqlarning hozirgi Mo'g'ulistonga to'g'ri keladigan mintaqadan kengayishi, Markaziy Osiyoni asosan G'arbiy Yevroosiyo kelib chiqishi bo'lgan mintaqadan mintaqaga aylantirilishi bilan bog'liq. asosan Sharqiy Osiyodan kelib chiqqan.

Amaliy mashg'uloti uchun savollar:

1. Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy geografik joylashuvining tasnifi masalasi
2. Milliy hududiy chegaralanishning mintaqa aholisining tarixiy taqdiriga ta'siri
3. Markaziy Osiyo xalqlari kuzatilayotgan etnodemografik jarayonlar.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. –T. 2015.
2. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. –T. 2008.
3. Shoniyo'zov K.Sh. O'zbek elatining shakllanish jarayoni. -T., „Sharq“.2001.

2-AMALIY MASHG‘ULOT: MARKAZIY OSIYO ETNOSLARI.

Tarixiy yozma manbalar, arxeologiya, etnografiya, antropologiya, lingvistika, toponimika, epigrafika, numizmatika kabi fanlar bilan o‘zaro aloqada va uzviy bog‘liq bo‘lib, ularsiz o‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixini mukammal ilmiy o‘rganib bo‘lmaydi.

Dastlab, sobiq sovet hokimiyati tarkibida milliy respublikalarni tashkil etish jarayoni ketayotgan kezlarda, o‘zbek xalqining kelib chiqishi masalasi faqat turk etnosi bilan bog‘lab o‘rganilib, fanda “panturkizm” atamasi paydo bo‘ldi. Bu ta’limot zaminida “O‘rta Osiyo aholisi azaldan turklar bo‘lib, buyuk Turon, so‘ng Turkiston bo‘lib ketgan”, degan g‘oya yotardi. Ular o‘zbek xalqining turk ildizini turkiy bo‘lmagan etnoslar bilan aralashish natijasida tashkil topganligini inobatga olmaydilar. Hatto, qalam sohiblari orasida shundaylar ham bor ediki (hozir ham ular uchrab turadi), ular o‘zbek xalqining kelib chiqishini Nuh payg‘ambarning o‘g‘li Yofasdan, Yofasning o‘g‘li Tur yoki Turkdan boshlaydilar .

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida sobiq sho‘rolar davlatining ichki siyosati, nima qilib bo‘lsa ham o‘lka xalqlarini Markaziy hokimiyatga nisbatan munosabatini yaxshilashga, o‘lka xalqlarini o‘z tomoniga ag‘darib olishga, buning uchun esa birinchi navbatda milliy masalaga e’tibor berishlikni zarur, deb hisobladi.

O‘rta Osiyo turk avtonomiyasining nazariy va mafkuraviy asosini “turk milliy vatanparvarlik” (“tyurkskiy natsionalnyy patriotizm) g‘oyasi tashkil etardi. Bu g‘oya XX asrning 20 - yillarida Turkiston jadidlarining siyosiy rahbarlari orasida juda keng mavqeiga ega edi. Ammo, sobiq sovet davri siyosiy adabiyotlarida turk milliy vatanparvarlari peshonasiga salbiy ma’noda “panturkist” tamg‘asi bosildi.

Tadqiqotchilar etnik jarayonlarni ikkiga ya’ni bo‘linib ketishga va birlashishga moyil jarayolarga bo‘ladilar. Bo‘linib ketishga moyil jarayonlar ko‘proq ko‘chmanchi chorvador qabilalar hayotida ko‘zga tashlanadi. Masalan, bir qabila ittifoqi yoki elatni ma’lum bir tarixiy sabablarga ko‘ra, bo‘linish jarayonlarini “xunn”, “qang‘ar”, “turk”, “ko‘chmanchi dashti qipchoq o‘zbeklari” misolida ko‘rish mumkin, ya’ni o‘z davrida elat bo‘lib shakllangan bu ijtimoiy–siyosiy uyushmalar etnik jarayonlarning bo‘linish tamoyiliga ko‘ra, o‘zlarining dastlabki etnos xolatlarini yo‘qotadilar. Etnik jarayonlarning birlashish tamoyiliga ko‘ra esa, keyinchalik parchalangan bu elat

urug'larining ishtirokida yangi etnik birliklar vujudga keladi. Masalan, o'zbek, qirg'iz, qozoq, turkman, qoraqalpoq, uyg'ur va boshqalar.

Etnos tarixining muhim bosqichlaridan biri, uning shakllanish jarayoni, ya'ni etnogenezidir. Agar etnos shakllanishi nihoyasiga yetgan bo'lsa, undan keyin, unga qo'shilgan etnik komponentlar etnos tarkibini o'zgartirib yubora olmaydi, balki uning tarkibida etnografik guruh sifatida uzoq vaqtlar yashab, ma'lum bir tarixiy voqelik ta'siridan so'ng etnos tarkibiga singib ketadi.

Etnosning muhim alomatlaridan biri uning tilidir. Til ko'pincha xalq etnogenezining yakuniy bosqichi hisoblanadi. Masalan, o'zbek xalqining uzil-kesil shakllanishida til o'zbek etnogenezining yakuniy omili bo'ldi. Akademik K. Shoniyozov, o'zbek etnogenezi va etnik tarixiga doir asarlarida o'zbek xalqining shakllanishi IX-X asrlarda yuz berdi deb yozadi, ya'ni hozirgi O'zbekiston hududlaridan sharqda Qoraxoniylar davlatining tarkib topishi bilan (IX-X asrlarda), o'zbek elati xalq sifatida shakllandi, deydi. Ammo, u asrlarda Qoraxoniylarning davlat tili umum turk tili edi, uning tarkibidan hali qarluq va chigil til lahjalari asosida shakllangan eski o'zbek tili ajrab chiqmagan edi. Qachonkim, XI asrning o'rtalarida Qoraxoniylar davlati ikkiga bo'lingach, uning g'arbiy viloyatlari doirasida, Movarounnahr va Xorazm, ularga yaqin tevarak-atrofda qarluq va chigil til lahjalarining o'lib borayotgan sug'diy, xorazmiy, boxtariy tillari hamda bu yerga kirib kelgan fors va arab tillari bilan qorishuvi asosida asta-sekin eski o'zbek tili rivojlanib, umum turk tilidan XII asrda ajrab chiqdi.

Markaziy Osiyodagi kam sonli etnik guruhlar. O'rta Osiyo arablari (arablar) — O'rta Osiyo mamlakatlaridagi kam sonli arab xalqlarining umumiy nomi. Arab o'ziga xosligini saqlab qolgan guruhlardan bo'lib, garchi umumiy tendentsiyasi salbiy bo'lishi1930-yillarda Markaziy Osiyo respublikalari hududiy chegaralanganidan keyin ko'plab etnik guruhlar bilan asta-sekin assimilyatsiya qilish bilan izohlanadi. SSSR parchalanganidan keyingi birinchi o'n yillikda arablar milliyligini saqlab qolishga qiziqish yana kuchaydi. Bu, ayniqsa, soni jihatdan bir necha baravar ko'p bo'lgan Tojikiston arablarida yaqqol namoyon bo'ldi. Biroq, 2000-yillarda etnik o'zini o'zi anglash yana so'na boshladi. O'rta Osiyoda ildiz otgan arab guruhlarining umumiy soni 10 ming kishidan oshmaydi, shu jumladan

Tojikistonda 4 ming (2010-yil, aholini ro'yxatga olish) va O'zbekistonda 2,5 ming kishini (1989-yil aholi ro'yxati) tashkil etgan. Turkmanistonda arablarning an'anaviy turar joyi Chardjou va Deynau shaharlari yaqini bo'lgan.

Amaliy mashg'uloti uchun savollar:

1. Markasiy Osiyoda etnos (xalq)larni shakllanishiga doir fandagi mavjud konsepsiyalarni sanab bering?
2. Markasiy Osiyo xalqlari shakllanish jarayoniga doir fandagi o'zbek va xorijlik olimlarning qarashlari?
3. Markasiy Osiyo xalqlari kelib chiqish tarixi aks etgan xorijiy va maxalliy adabiyotlar tahlili haqida nimalar bilasiz?
4. Markasiy Osiyo xalqlarida kam sonli etnik guruhlar: lo'lilar, uyg'urlar, koreyslar va b.sh. haqida.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. –T. 2015.
 2. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. –T. 2008.
 3. Shoniyoov K.Sh. O'zbek elatining shakllanish jarayoni. -T., “Sharq”.2001.
 4. Jabborov I.M. O'zbek xalqi etnografiyasi. -T., “O'qituvchi” 1994.
- Jabborov I.M. O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. –T. 2008.

3-AMALIY MASHG‘ULOT: MARKAZIY OSIYO ETNOLOGIYASINING ASOSIY TUSHUNCHALARI.

Kichik bir lirik chekinishdan so‘ng, muammoning ilmiy yechimi yo‘lida olib borilgan izlanishlarga qaytadigan bo‘lsak, yuqorida eslatilgan akademik A.Yu. Yakubovskiyning risolasi ruhiyati asosida 1942 yilda Toshkentda O‘rta Osiyo xalqlarining etnogenezi masalalari bo‘yicha maxsus ilmiy sessiya o‘tkazildi. Sessiyada taniqli olimlar: A.D. Udalsev “Etnogenetik tadqiqotlarning nazariy asoslari”, S.P. Tolstov “O‘rta Osiyo etnogenezining asosiy muammolari” hamda “Aral etnogenetik jarayonlar maydoni”, L.V.Oshanin “Antropologiya ma’lumotlari O‘rta Osiyo xalqlari etnogenezi haqida”, K.V.Trever “Miloddan avvalgi VI-V asrlarda O‘rta Osiyo aholisining etnik tarkibi”, I.I.Umnyakov “Toharlar muammosi”, A.N.Bernshtam “O‘rta Osiyo etnogenezida qadimgi turkiy elementlar”, N.A.Kislyakov “Tojiklarning yuzaga kelishi masalasi haqida”, V.V.Ginzburg “Antropologiya ma’lumotlari tojiklar etnogenezi haqida”, A.Yu. Yakubovskiy “Turkman xalqining VIII-X asrlardagi etnogenezi tarixidan” mavzularda ma’ruzalar qilishib, O‘rta Osiyo xalqlari etnogenezi va etnik tarixining asosiy yo‘nalishi va ilmiy-metodologik asoslari belgilab olindi.

Mana shu konseptual yo‘nalishda ko‘p millatli O‘rta Osiyo xalqlari etnik tarixi bo‘yicha kompleks tadqiqotlar olib borish yo‘lga qo‘yilib, ularning natijalari asosida 1962 yilda ko‘p jildli “Jahon xalqlari” tarixining “O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlari”ga bag‘ishlangan qismi chop etildi. Ushbu ilmiy va metodologik asarning “O‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi” bo‘limida, “tarixning ilk bosqichlaridanoq sug‘orma dehqonchilik bilan qadimdan shug‘ullanib kelgan eroniy tilli mahalliy aholining ma’lum qismi Zarafshon, Farg‘ona, Choch va Movarounnahrning vohalari va dasht-sahrolariga hamda qadimgi Xorazmga kirib kelgan turkiy qabilalar bilan bir necha asrlar davomida aralashib yashashlari natijasida til jihatidan turkiylashgan yangi etnos shakllanadi.

Millatning shakllanishi xalqning tarkib topishi kabi uzoq davom etadigan tarixiy va etnomadaniy jarayon bo‘lib, millat etnik tarixning eng yuksak yuqori cho‘qqisi, kamolot bosqichiki, bu bosqichga ko‘tarilgan xalqning davlati millat nomi bilan yuritiladi, u suveren davlat sifatida o‘zining ichki va tashqi siyosatini mustaqil yuritadi,

umum millat tili davlat tili maqomini oladi, uning davlat chegaralari qat'iy, dahlsiz bo'lib, jahon hamjamiyati tomonidan tan olinadi, millatning o'zlikni anglash darajasi yuksak, milliy g'urur, vatanga fidoyilik, ona zamin va xalqiga sodiqlik millat fuqarolarining hayot mazmuniga, kundalik turmush tarziga aylanadi, millatga xos milliy mentalitet uzil-kesil shakllanadi, davlat jamiyat tomonidan boshqariladi, ya'ni davlat millatning xohish-irodasini bajaruvchi jonli mexanizmga aylanadi.

Xalqlarning kelib chiqish tarixini o'rganishda ijtimoiy-gumanitar fanlarida "etnik birlik" va "etnos" atamalari ishlatiladi. "Etnik birlik" ma'lum bir ijtimoiy tuzimda, tabiiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida vujudga kelgan ijtimoiy va etnik uyushmadir. Uning sinonimi "etnos" bo'lib, u yunoncha "xalq" demakdir. Ammo, "etnik birlik" (ruschada etnicheskaya obshnost) "xalq" atamasiga nisbatan ma'no jihatidan aniq tushunchadir²⁷. Etnos atamasi, ya'ni xalq juda keng va tor ma'noda ishlatiladi. Masalan, keng ma'noda: Rossiya xalqi, O'zbekiston xalqi, dunyo xalqi; tor ma'noda: o'zbek xalqi, qirg'iz xalqi, tojik xalqi. Kichik bir guruh kishilariga nisbatan ham "xalq" iborasi qo'llaniladi.

Fanda etnik birlikning uch bosqichi, ya'ni uch turi mavjud: qabila, elat (xalq) va millat. Ketma-ket almashib kelgan bu atamalar turli davrlarda vujudga kelgan, ular o'z davrlariga xos xususiyatlari bilan bir-birlaridan farq qiladilar. "Elat" atamasi turkiy va forsiy tilli aholi o'rtasida qabila, qabila ittifoqi, davlat yoki ma'lum hudud fuqarolariga nisbatan "xalq" atamasi o'rnida ishlatilib kelingan. Shuning uchun "elat" turkiy va forsiy til muhiti hukmron doirada yaratilgan og'zaki va yozma manbalarda uchraydi. "Xalq" atamasini "el", "elat" o'rnida, allaqachon o'troq hayot kundalik turmush tarziga aylangan etnik birliklar uyushmasiga nisbatan ishlatilib kelinmoqda.

Qabila-ibtidoiy jamoa tuzimining so'nggi bosqichiga xos etnik birlik. Qabila urug'larga bo'linish xususiyatlari bilan keyingi bosqichdagi etnik birlikdan (elatdan) farq qiladi. Qabilaning o'ziga xos tili (lahjasi), hududi, qabila nomining (etnonimining) bo'lishi va o'ziga xos qabila an'analarini, uning a'zolari tomonidan bilishi bilan boshqa qabilalardan ajralib turadi. Qabila urug' jamoalari sardorlaridan

²⁷ Чебоксаров Н.Н. Проблемы происхождения древних и современных народов. Труды VII Международного конгресса антропологических и этнографических наук. Том V, Москва. 1970. стр.746.

tashkil topgan “oqsoqollar kengashi” tomonidan boshqarilgan, qabila jamoasiga tegishli barcha ishlar demokratik prinsiplar asosida ko‘rib, hal etilgan.

Tarixiy jarayonni xolisona va ob‘ektiv yoritish, tarixiy voqea va hodisalarni to‘g‘ri tahlil etish ilmiylikka asoslangan haqiqiy mezondir. Sizga mushohada uchun tavsiya etilayotgan turli ilmiy konsensiyalar va turlicha qarashlarning tub mohiyatini bayonidan so‘ng ta’kidlash joizki, tarix fanining asosiy ob‘ekti-xalq, millatdir, uning yaratuvchilik faoliyatisiz tarixiy jarayon o‘zining mazmun va ma’nosini yo‘qotadi.

Amaliy mashg‘uloti uchun savollar:

1. Aftoxtonizm tushunchasiga izohlang va Markaziy Osiyo xalqlari misolida ochib bering
2. Markaziy Osiyo etnologiyasining asosiy tushunchalari haqida ma’lumot bering
3. Etnos nazariyalarini Markaziy Osiyo xalqlari misolida yoritib bering
4. O‘zbekistonda etnologiya fani: yutuqlar, muammolar va rivojlanish istiqbollari

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarov A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. –T. 2015.
 2. Asqarov A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. –T. 2008.
 3. Ahmedov B.A. O‘zbek ulusi. -T., “Nur” nashriyoti. 1992.
- Shoniyoov.K.Sh. Qarluqlar va qarluqlar davlati. “Sharq”. -T. 1999.

4-AMALIY MASHG'ULOT: TARIXSHUNOSLIK TAXLILI.

Tadqiqotchilar etnik jarayonlarni ikkiga ya'ni bo'linib ketishga va birlashishga moyil jarayolarga bo'ladilar. Bo'linib ketishga moyil jarayonlar ko'proq ko'chmanchi chorvador qabilalar hayotida ko'zga tashlanadi. Masalan, bir qabila ittifoqi yoki elatni ma'lum bir tarixiy sabablarga ko'ra, bo'linish jarayonlarini "xunn", "qang'ar", "turk", "ko'chmanchi dashti qipchoq o'zbeklari" misolida ko'rish mumkin, ya'ni o'z davrida elat bo'lib shakllangan bu ijtimoiy–siyosiy uyushmalar etnik jarayonlarning bo'linish tamoyiliga ko'ra, o'zlarining dastlabki etnos xolatlarini yo'qotadilar. Etnik jarayonlarning birlashish tamoyiliga ko'ra esa, keyinchalik parchalangan bu elat urug'larining ishtirokida yangi etnik birliklar vujudga keladi. Masalan, o'zbek, qirg'iz, qozoq, turkman, qoraqalpoq, uyg'ur va boshqalar.

O'zbek xalqi etnogenetik jarayonlarining jadal kechgan vaqt miloddan avvalgi III – milodiy V asrlar davomida Qang' davlati doirasida yuz berdi. Bu davrda turli tilli etnik guruhlarining bir-birlariga yaqinlashish, qo'shilish jarayonlari jadal kechdi. Etnik guruhlarining tashqi qiyofasi, tili, moddiy va ma'naviy madaniyatida yaqinlashish, fe'l-atvorida umumiylik hosil bo'ldi. Miloddan avvalgi II-milodiy I-II asrlarda Tangritog' shimoliy-sharqiy hududlaridan usunlarning katta guruhi, Xitoyning shimoliy-g'arbiy mintaqalaridan va janubiy Sibirda yashagan xu, di, dinlin, tele, xun va boshqa turkiy tilli ko'chmanchi etnoslarning katta guruhi Qang' davlati hududiga kelib o'rnishadilar. Mana shu davrda yuz bergan etnogenetik jarayonlar, ya'ni Movarounnahr va unga tutash mintaqalarda ularning sug'diylar, xorazmiylar, bohtariy va Farg'ona va Chochning o'troq aholisi bilan qorishuvi natijasida turkiy tilli qang'ar elati shakllanadi. Bu etnos o'zbek elatining shakllanishiga asos solgan eng qadimgi yirik turkiy qatlamni tashkil etgan.

O'zbek xalqining kelib chiqishi haqida turli xil talqin va tasavvurda juda ko'p maqolalar chop etilgan. Ammo, u haqda to'laqonli chuqur ilmiy tadqiqotlar va ular haqida yozilgan fundamental asarlar ko'p emas.

Bu asarlarda o'zbek xalqining kelib chiqishi haqida uch xil yondashuv mavjud. Ularning birinchisida o'zbek etnosi qadimdan shu zaminda yashab kelgan turkiy qabila va elatlardan tarkib topgan. Bu zaminning mahalliy sug'diy va xorazmiy, bohtariy hamda sak-massaget qabilalari ham qadimdan turkiy tilda so'zlashuvchi elatlar bo'lgan, degan ruhiyatda yozilgan asarlar. Ikkinchisi, o'zbeklar bu zaminga so'nggi o'rta asrlarda kirib kelgan Shayboniy o'zbeklaridan tarkib topgan, degan mazmunda yozilgan asarlar. Uchunchisi, XX asrning 40 yillari boshlarida akademik

A.Y.Yaqubovskiy tomonidan ishlab chiqilgan milliy avtoxtonizm konsepsiyasi asosida yozilgan asarlardir.

Birinchi qarash qalamkashlarining asarlari ko‘proq so‘nggi o‘rta asrlar davrida yozilgan, tarixiy dalillar va diniy mifologik qarashlarning qorishuvida bitilgan asrlarga asoslanadi. Sobiq sovet hokimiyatining dastlabki yillarida ularga zidli o‘laroq, ikkinchi qarash ruhiyatida yozilgan asarlar paydo bo‘ldiki, bu qarash tarafdorlari O‘rta Osiyoning tub joyli aholisi qadimdan eroniy tillarda so‘zlashgan. Turkiy etnos vakillari esa, bu zaminga XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida Dashti Qipchoqdan Shayboniyxon bilan birga kirib kelgan. Shuning uchun o‘zbeklar “kelgindi” bo‘lib, mahalliy tub joyli xalq sug‘diylar, bohtariy va xorazmiylar, margush va parfiyonaliklar ham tojiklarning ajdodidir, deydilar.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida ular o‘rtasida kelib chiqishi mumkin ziddiyatlarni oldini olish g‘oyaviy quroli sifatida yana bir qarash paydo bo‘ldiki, u Markaziy Osiyo mafkura olamida “panislomizm” nomini oldi.

Sobiq sovet davri tarixshunosligida ularning birinchisiga salbiy ma’noda “panturkizm”, ikkinchisiga esa “paneronizm” tamg‘asi bosildi. “Panislomizm” g‘oyasiga qarshi ateistik “urush” e‘lon qilinib, olimlar oldiga SSSR tarkibiga kirgan har bir elat va xalqlarning kelib chiqishi haqida millatlararo tinchlik va o‘zaro do‘stlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat etuvchi ilmiy asosli konsepsiya ishlab chiqish topshirildi.

Shunday qilib, o‘zbek xalqining kelib chiqishi haqida yozilgan asarlar tahliliy va tankidiy obzoridan kelib chiqadigan yakuniy xulosalar quyidagilardan iborat:

1). Etnogenez va etnik tarix, tarix fanining bosh masalasidir. U yoki bu xalqning kelib chiqish tarixini o‘rganmay turib, uning iqtisodiy xo‘jalik tarixini, madaniyati, davlatchiligi, siyosiy tarixini va ma’naviy dunyosini o‘rganish mumkin emas. Fan olamida uni o‘rganish ilmiy metodologiyasi, o‘ziga xos uslubiy yondashuv prinsiplari mavjud. Masalaning muammoviy jihatlari tadqiqotchidan o‘ta xolislikni, materiallar kompleks tahliliga obyektiv yondashishni va chuqur ilmiy mulohazaviy tafakkurni talab etadi. Masalaning yana bir muammoviy jihati borki, u ham bo‘lsa masala yechimini topishda ilmiy tajriba, qomusiy bilimdonlik va mintaqaga xos etnosiyosiy vaziatni hisobga ola bilishlik, ilmiy izlanishlarda milliy ehtirolarga berilmaslikni talab

etadi. Xalqlarning etnogenezi va etnik tarixini o'rganishda Sovet davri tarixshunosligida qator salbiy holatlarning mavjud bo'lishiga qaramay, milliy avtohtonizm nazariyasi ruhiyatida yozilgan asarlar ilmiy fundamental xarakter kasb etdi.

2). Keyingi yillarda istiqlol bergan qarashlar xilma-xilligiga erkinliklar berilishi tufayli har bir respublika ijod ahli orasida o'tmish tarixga ommaviy qiziqish, o'z millatining mintaqa tarixi va madaniy merosini yaratishda tutgan o'rnini aniqlashda muammoga noilmiy yondashish kuchaydi. Natijada, etnosning shakllanishi bilan bog'liq masalalarda ilmiy professionalizmdan yiroq asarlar chop etila boshladi. Ilmiy xolislik, obyektivizm ilmiy nazoratdan chiqib ketdi. Oqibat natijada milliy ehtirolarga to'la, tarixiy haqiqatga zid asarlarning xususiy nashriyotlarda chop etilishi tabiiy holga aylandi. Yuqorida tanqidiy munosabat bildirilgan asarlarning aksariyat ko'pchiligi ana shunday asarlar sirasiga kiradi.

3) Fanda ijodiy erkinlik yaxshi, u siz fan rivojlanmaydi. Ammo, kim nimani istasa, ilmiy asossiz yozaverish ham bo'lmaydi. Har bir ilmiy asar, milliy nizolarga emas, amaliy hayotda tinchlik va barqarorlikka xizmat etishi kerak. Bu akademik ilm-fanning ijtimoiy va gumanitar yo'nalishining nazariy va metodologik asosini tashkil etadi. Xalq donolari bejis aytmagan, "chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin" deb. Oqibat natijada masala tub mohiyatini tushunmay murakkab muammoga qo'l urish millat sha'niga soya soladi.

V.GLOSSARIY

№	Atama	Izoh
1	Etnos	Ma'lum hududda shakllangan, umumiy tarix, til, madaniyat va o'ziga xos xususiyatlarga ega aholi guruhi
2	Etnik guruh	Kattaroq etnos ichida ajralib chiqqan yoki alohida yashovchi kichik etnik jamoa
3	Etnik identiklik	Shaxsning o'zini ma'lum etnos vakili sifatida anglash jarayoni
4	Etnonim	Muayyan etnosni ifodalovchi nom, ya'ni xalqning o'ziga yoki boshqalarga nisbatan qo'llaniladigan nomi
5	Etnogenez	Etnoslarning kelib chiqishi va shakllanish jarayoni
6	Diaspora	Tarixiy vatandano tashqarida, boshqa mamlakatlarda yashovchi etnik guruh
7	Avtoton	O'z hududida qadimdan yashab kelayotgan mahalliy xalq yoki etnos
8	Etnografik makon	Ma'lum bir etnos yashaydigan hudud
9	Etnik chegara	Muayyan etnos yashaydigan hududning geografik yoki ma'naviy chegaralari
10	Madaniy kiyofa	Etnosga xos urf-odat, an'ana, turmush tarzi, kiyim-kechak va boshqa madaniy xususiyatlari
11	Geneologiya	Etnik yoki oilaviy nasabnomasini o'rganish
12	Tarixiy-etnografik viloyat	Etnik yoki tarixiy xususiyatlarga ega bo'lgan geografik-hududiy birlik
13	Xo'jalik-madaniy tip	Etnos xo'jaligi, ishlab chiqarish va hayot tarzi asosida mavjud bo'lgan madaniy shakl
14	Marosim	Diniy, ijtimoiy yoki oilaviy tadbirlar majmuasi bo'lib, etnos hayotida muhim ahamiyatga ega urf-odatlar
15	Milliy qadriyat	Har bir xalqqa xos, tarixiy va ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar
16	Urf-odat	An'anaviy turmush tarzida shakllangan barqaror odatlar va urf-qoidalar
17	Klassifikasiya	Etnos yoki madaniyatlarni ilmiy asosda guruhlash, tasniflash jarayoni

№	Atama	Izoh
18	Gender	Jamiyat va madaniyatda erkak va ayollarga xos ijtimoiy rollarni o'rganish
19	Etnik hudud	Maxsus etnik jamoa yoki guruhlar asosiy qismi yashaydigan hudud
20	Moddiy va ma'naviy madaniyat	Etnos hayotida mavjud bo'lgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar yig'indisi

VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5729-son Farmoni.
6. Ўзбекистон Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 797-sonli Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847- sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-sonli Farmoni.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Oliy ta’limning meyoriy - huquqiy xujjatlari to‘plami. -T., 2013.
2. O‘rinov V. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. O‘quv qo‘llanma. Nyu Bransvik Universiteti, 2020.
3. The European Higher Education Area. - Joint Declaration of the Ministers of Education. - Bologna, 1999, 19 June.
4. Shaping our Own Future in the European Higher Education Area // Convention of European Higher Education Institutions. - Salamanca, 2001, 29-30 march.
5. Virtualnaya realnost kak novaya issledovatel’skaya i obrazovatel’naya sreda. Serfuz D.n. i dr. // JURNAL Nauchno-analiticheskiy jurnal «Vestnik Sankt-Peterburgskogo universiteta Gosudarstvennoy protivopojarnoy sluzhbi MCHS Rossii», 2015. – s.185-197.
6. Ibraymov A.YE. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. Metodik qo‘llanma. – T.: “Lesson press”, 2020. -112 b.
7. Ignatova N. Y. Obrazovaniye v sifrovuyu epoxu: monografiya. M-vo obrazovaniya i nauki RF. – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s. http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf
8. Kiryakova A.V, Olxovaya T.A., Mixaylova N.V., Zaporozko V.V. Internet-texnologii na baze LMS Moodle v kompetentnostno-oriyentirovannom obrazovanii: uchebno-metodicheskoye posobiye / A.V. Kiryakova, T.A. Olxovaya, N.V. Mixaylova, V.V. Zaporozko; Orenburgskiy gos. un-t. – Orenburg: OGU, 2011. – 116 s. http://www.osu.ru/docs/fpkp/kiryakova_internet_technologies.pdf
9. Kononyuk A.YE. Oblachniye vichisleniya. – Kiyev, 2018. – 621 s.
10. Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida. https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3._UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf
11. Emelyanova O. A. Ta’limda bulutli texnologiyalardan foydalanish // Yosh olim. - 2014. - № 3. - S. 907-909.
12. Moodle LMS tizimida masofaviy kurslar yaratish. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: Toshkent farmatsevtika instituti, 2017.
13. Tendensi i razvitiya vsshego obrazovaniya v mire i v Rosii. Analiticheskiy doklad-daydjest. - M., 2021.- 198 s.
14. A.S. Zikriyoyev. Dunyo universitetlari reytingidagi tadqiqotchi olimlar orasida o‘zingizni kashf qiling. -T.: Navro‘z,2020. ISBN.9789943659285
15. Sherzod Mustafakulov, Aziz Zikriyoev, Dilnoza Allanazarova, Tokhir Khasanov, Sokhibmalik Khomidov. Explore Yourself Among World – Class Researchers. Grand OLEditor, Tashkent 2019, ISBN: 8175 25766-0.

16. Ackoff, Russell L., Scientific Method, New York: John Wiley & Sons, 1962.
17. Barzun, Jacques & Graff. F. (1990). The Modern Researcher, Harcourt, Brace Publication: New York.
18. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
19. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.
20. Pecherkina, A. A. Razvitiye professionalnoy kompetentnosti pedagoga: teoriya i praktika [Tekst] : monografiya / A. A. Pecherkina, E. E. Simanyuk, YE. L. Umnikova : Ural. gos. ped. un-t. – Yekaterinburg : [b.i.], 2011. – 233 s.
21. O.S. Frolova. Formirovaniye innovatsionnoy kompetensii pedagoga v protsesse vnutrishkolnogo povisheniya kvalifikatsii. Diss.k.p.n. Voronej 2018.
22. Kompetensii pedagoga XXI veka [Elektronniy resurs]: sb. materialov resp. konferensii (Minsk, 25 noyab. 2021 g.) / M-vo obrazovaniya Resp. Belarus, GUO «Akad. poslediplom. obrazovaniya», OO «Belorus. ped. o-vo». – Minsk: APO, 2021.
23. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2017, 60 b.
24. Ishmuhamedov R, Mirsoliyeva M, Akramov A. Rahbarning innovatsion faoliyati. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2019.- 68 b.
25. Kodjaspirova G.M. Pedagogika v sxemax, tablitsax i opornix konspektax./ -M.:Ayriss-press, 2016.
26. Natanzon E. Sh. Priyemi pedagogicheskogo vozdeystviya. - M, 2012. - 202 s.
27. Sergeev I.S. Osnovi pedagogicheskoy deyatel'nosti: Uchebnoye posobiye. – SPb.: Piter, 2014.
28. Ashirov A.A. Etnologiya. O'quv qo'llanma. –T., 2014. 340 b.
29. Etnologiya. (Pod red. Miskovoy YE.V, Mexedova N.A, Pimenova V.V)- M., Izd-vo «Kultura» 2005.
30. Jabborov Iso. Jahon etnologiyasi asoslari. Toshkent. “Yangi asr avlodi”, 2005.
31. Jabborov Iso. Jahon xalqlari etnografiyasi. Darslik. Toshkent.1985
32. Etnologiya. Pod. red. YE. V. Miskovoy, N.L. Pikedeva. Pimenova V.V. M. 2005.
33. Lurye SV. Istoricheskaya etnologiya. M. 1998.
34. Etnografiya. Pod. Red. Y. V. Bromleya, G. YE. Markova M. 1982.
35. Jabbarov I. Iz istorii izucheniya etnografii uzbekskogo naroda.— Tashkent, 1959;
36. Jabborov Iso. O'zbek xalqi etnografiyasi. –Toshkent, 1994
37. Jabborov Iso. Antik madaniyat va ma'naviyat xazinasi. –T., 1999
38. Jabborov Iso. O'zbeklar. Turmush tarzi va madaniyati. –Toshkent, 2003
39. Doniyorov A.X Mustaqil O'zbekiston etnografiyasi, tarixshunosligining ayrim masalalari. –T., 2003.

40. Doniyorov A.X O‘zbekiston etnografiyasi tarixidan ayrim lavhalar (XX asrning 20 80 yillari). –T., 2003.
41. Doniyorov A.X O‘zbekiston etnografiyasi tarixshunosligi ocherki (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr 30 yillari). – T., 2005.
42. Doniyorov A.X., Bo‘riyev O., Ashirov A.A. Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi, etnogenezi va etnik tarixi. – T., 2011.
43. Shaniyazov K.SH. K etnicheskoy istorii uzbekskogo naroda: Istoriko - etnograficheskoye issledovaniye kipchakskogo komponenta.— Tashkent: Fan, 1974.— 342 ye.;
44. Shaniyazov K.SH., Ismailov X.I. Etnograficheskiye ocherki materialnoy kulturi uzbekov konsa XIX— nachala XX vv.— Tashkent, 1981.— 126
45. Ashirov Adhamjon O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari. – T.: Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
46. Davlatova S. O‘zbek milliy kiyimlari: an’anaviylik va zamonaviylik. – T., 2006.
47. Narodi Sredney Azii i Kazaxstana: V 2-x t./Pod red. S. P. Tolstova. M.: AN SSSR, 1963. T. 1 – 2.
48. Uzbeki. Kollektivnaya monografiya. – Moskva: Nauka, 2012.

IV. Elektron ta’lim resurslari

1. www.edu.uz.
2. www.aci.uz.
3. www.ictcouncil.gov.uz.
4. www.lib.bimm.uz
5. [www. Ziyonet. Uz](http://www.Ziyonet.Uz)
6. www.sciencedirect.com
7. www.acs.org
8. www.nature.com
9. <http://www.kornienko-ev.ru/BCYD/index.html>.